So‘z va so‘z turkumlari, so‘z va gap qurilishi, gapda so‘zlarning bog‘lanishi bilan bog‘liq barcha xususiyatlarni o‘rganuvchi til bo‘limiga **morfologiya** deyiladi. Turkchaning o‘ziga xos bazi qurilish xususiyatlari bordir. Bu bo‘limda qisqacha o‘laroq grammatik qurilishga xos qonuniyatlarini, so‘z formalari va bog‘lanish shakillarini o‘rganamiz.

SO‘Z VA SO‘Z TURKUMLARI

Biron bir ma‘noni bildiruvchi tovush yoki tovushlardan iborat nutq birligi va gap bo‘lagiga **so‘z** deyiladi. Turkchada sakkiz xil so‘z turlari bordir:

Ot	:	Ahmet, Ayşe, masa, sandalye, dolap, elma... vs.
Sifat	:	güzel, büyük, küçük, mavi, yeşil, kırmızı... vs.
Olmosh	:	ben, sen, o, biz, siz, onlar, kim, ne... vs.
	:	hemen, biraz, son derece, ileri, hızlı, en çok, aşağı, yukarı vs.
Ko‘makchi	:	gibi, kadar, için, ile, göre, üzere... vs.
Bog‘lovchi	:	ve, ama, fakat, lâkin, ancak, hatta, çünkü... vs.
Undov	:	eyvah!, üff!, vah vah!, hoppala!, aferin!... vs.
Fe‘l	:	gelmek, gitmek, bakmak, yazmak, çalışmak... vs.

OTLAR

(Tr. adlar: İng. nouns, substantives: Alm. Nomen, Substantiv: Fr. nom substantif)

Predmetlik ma‘nosini anglatadigan so‘z turkumiga **ot** deyiladi. Turkchada ot turkumiga kirgan so‘zlar semantik jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

Real Borliqdagi Otlar: Qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan narsa va predmetlarga berilgan nomlar:

masa, kalem, silgi, radyo, televizyon, ev, okul... kabilar.

Mavhum Otlar: Qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan belgi-xususiyat, harakat va holat kabi mavhum tushunchalarning nomlarini bildirgan otlar:

Sevgi, nefret, kıskançlık, şüphe, mutluluk, korku, cesaret... kabi.

Jism va Modda Otları: Birdan ortiq borliqlarning nomlaridir:

Atoqli Otlar: Yakka shaxslarning nomi, borliqdagi yakka narsa, voqea-hodisalarning nomi bo'lib xizmat qiladi. Atoqli otlar asosan kishi, hayvonlar, narsa ve joy nomlarini bildiradi:

Ahmet, Engin, İstanbul, Türkiye, İngiltere, Tekir, Güneş, Mars... kabi.

Atoqli otlarda bosh harflar katta harf bilan yoziladi ve quyidagicha siniflantiriladi:

Kishi nomlari: *Gülser, Murat, Atatürk, Mehmet, Ayşe...* kabi.

Hayvon nomlari: *Tekir, Karabaş, Pamuk, Minnoş...* kabi.

Joy nomlari: *Amerika Birleşik Devletleri, İspanya, Fransa, Ankara, Roma...* kabi.

Til, din, mazxab, tariqot nomlari: *İngilizce, Almanca, Türkçe*

Müslümanlık, Hıristiyanlık, Mevlevilik... kabi.

Xalq nomlari: *İngiliz, İngilizler, Alman, Almanlar, Japon, Japonlar...* kabi.

O'lka nomlari: *Amerika Birleşik Devletleri, Avustralya, İsviçre, Suriye, Rusya...* kabi.

Kitob, jurnal, gazeta nomlari: *Milliyet Gazetesi, Dil Dergisi, Türkçe Sözlük...* kabi.

Tashkilot, uyushma nomlari: *İstanbul Üniversitesi, Millî Eğitim Bakanlığı, Kızılay Derneği, Eğitim ve Kalkınma Vakfı...*

QARATQİCHLİ BİRİKMA

(Tr. ad tamlaması: İng. possessive constuction: Germ. Genetiv Konstruktion: Fr. complément du nom)

* İkki yoki undan ortiq ot yoki otlashgan so'zning o'zaro munosabati bilan ifodalanib kelgan birikmaga **qaratqichli birikma** degiladi. Qaratqchli birikma uchga bo'linadi:

* **Belgili qaratqichli birikma**
* **Belgisiz qaratqichli birikma**
* **Zanjirsimon qaratqichli birikma**

BELGİLİ QARATQİCHLİ BİRİKMA:*-ın,(-in,-un,-ün)*
(Tr. belirtili ad tamlaması: İng. genitival possesive constuction: Germ. Genitivkonstruktion: Fr. complément du nom déterminé)

kız	+ çanta	→	kız**ın** çantası	Kız**ın** çantası istasyonda kayboldu.
ev	+ kapı	→	ev**in** kapısı	Ev**in** kapısı dün boyandı.
okul	+ müdür	→	okul**un** müdürü	Okul**un** müdürü arabaya bindi.
otobüs	+ şoför	→	otobüs**ün** şoförü	Otobüs**ün** şoförü çok hızlı gidiyor.

Turkchada ikki unli harf o'zaro yon-yonga kelmaydi. Bu yuzdan unli bilan tugagan so'zlardan keyin qaratqich qo'shimchasi keladigan bo'lsa oraga **n** undosh harfi qo'yiladi:

Undosh bilan tugagan so'zlardan keyin : -ın (-in, -un, -ün)

Unli bilan tugagan so'zlardan keyin : -nın (-nin, -nun, -nün)

Unlilardan Keyin: -nın (-nin, -nun, -nün)

araba	+ kapı	→	araba**nın** kapısı	Araba**nın** kapısını açtım.

müze	+ pencere	→	müz**enin** penceresi	Müz**enin** penceresini kapattım.
oyuncu	+ elbise	→	oyuncu**nun** elbisesi	Oyuncu**nun** elbisesi çok güzel.
ütü	+ fişi	→	ütü**nün** fişi.	Ütü**nün** fişi bozuldu.

Undoshlarning Jarangsizlashishi

ç, k, p, t undoshlari, ikki unli orasida keladigan bo'lsa **c, ğ, b, d** shaklini oladi.

ç	ağa**ç**	+ dal	→	ağa**c**ın dalı	Ağa**c**ın dalında kıpkırmızı elmalar var.
k	gözlü**k**	+ cam	→	gözlü**ğ**ün camı	Gözlü**ğ**ün camını değiştirdim.
p	kita**p**	+ sayfa	→	kita**b**ın sayfası	Kita**b**ın sayfasını açtım.
t	yur**t**	+ kapı	→	yur**d**un kapısı	Yur**d**un kapısından içeri girdik.

BELGİSİZ QARATQİCHLİ BİRİKMA

(Tr. belirtisiz ad tamlaması: ing. shortened genitival construction: Germ. verkürzter Genitiv: Fr. complìment du nom nondétermine)A hátorozott fõnévi jelzõs szerekezet

Belgisiz qaratqichda **-ın (-in, -un, -ün)** qaratqich qo'shimchasi ishlatilmaydi.

Belgili Qaratqichli Birikma	**Belgisiz Qaratqichli Birikma**
araba**nın** lâstiği	araba lâstiği
otobüs**ün** şoförü	otobüs şoförü
gemi**nin** kaptanı	gemi kaptanı
ine**ğin** sütü	inek sütü
kadı**nın** elbisesi	kadın elbisesi
müze**nin** müdürü	müze müdürü
pencere**nin** camı	pencere camı
çocu**ğun** şapkası	çocuk şapkası
köpe**ğin** tasması	köpek tasması
okul**un** bahçesi	okul bahçesi

Qaratqichli so'z birikmasıdagi birinchi so'zga qaratuvchi, ikkinchi so'zga esa qaralmish deb aytiladi:

qaratuvchi	qaralmish	→	qaratqichli birikma
ev	kapı		evin kapısı

Belgili qaratqich va belgisiz qaratqich orasida ma'no jihatidan ba'zi farqliliklar bordir. Buni shu misollar bilan ifodalashimiz mumkin:

Kadının çantası : Bu qaratqichli birikmada sumka ma'lum bir shaxs (ayolga) oid bo'lib bu yuzdan bu qaratqichli birikmaga belgili qaratqichli birikma deyiladi.

Kadın çantası : Bu qaratqichli birikmada ayollar uchun ishlab chiqarilgan sumkadan so'z yuritilib sumkaning kimga tegishli ekanligi ma'lum emasdir. Bu yuzdan belgisiz qaratqichli birikma deyiladi.

ZANJİRSİMON QARATQİCHLİ BİRİKMA *(Tr. zincirleme ad tamlaması: İng. chaining possessive contruction: Germ. Substantivzusammen-setzung: Fr. complement du nom enchainé)*

Qaratqichli birikmada qaratuvchi va qaralmış soni birdan ortiq bo'lsa bunday qaratqichli birikmalarga zanjirsimon qaratqichli birikma deb aytiladi.

Qaratqichli Birikma	Zanjirsimon Qaratqichli Birikma
elbise dolabı	elbise dolabının kapısı
çiftlik sütü	çiftlik sütünün şişesi
müze müdürü	müze müdürünün şapkası
Ayşe'nin arabası	Ayşe'nin arabasının penceresi
Orhan'ın evi	Orhan'ın evinin kapısının kolu
Turgut'un evi	Turgut'un evinin penceresinin camı
yatak odası	yatak odasının perdesi
Devlet Üretme Çiftliği	Devlet Üretme Çiftliğinin yumurtası
Devlet Demir Yolları	Devlet Demir Yollarının trenleri
Türk Hava Yolları	Türk Hava Yollarının uçakları

OTLARNİNG SHAKLİY TUZİLİSHİ

Otlar shakliy tuzilishiga ko'ra asosiy, yasalgan ,a juft va takroriy ot turlariga bo'linadi.

Asosiy Otlar

Asosiy otlar hech qanday qo'shimcha olmagan, boshqa bir so'z bilan qo'shilmagan holda o'zak vaziyatidagi otlardir:

masa, sandalye, kitap, pencere, ev, hava, su... kabi.

Asosiy otlar ko'plik, egalik va boshqa qo'shimchalar bilan ifodalanganda ham o'z xususiyatini saqlab qoladi:

Çiçek**ler** güzeldir.
Anne**mi** severim.
Okul**dan** geliyorum.

Yasalgan Otlar

Yasovchi qo'shimchalar bilan ifodalangan va fe'llardan yasalgan otlar:

Ot Asosidan Yasalgan Otlar			
demir	+ ci	→	demir**ci**
söz	+ lük	→	söz**lük**
yağmur	+ luk	→	yağmur**luk**

Fe'l Asosidan Yasalgan Otlar		
bil-	→	bil**gi**
dur-	→	dur**ak**
sev-	→	sev**inç**
say-	→	say**aç**

Juft va Takroriy Otlar

İkki yoki undan ortiq asosning qo'shilishidan hosil bo'lgan otlarga juft va takroriy ot deyiladi. Qo'shma otlarning hosil bo'lishida uch holat kuzatiladi.

* Farqli so'zlarning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan juft va takroriy ot asl ma'nosini butunlay yoki qisman yo'qotib butunlay boshqa va yangi ma'noni anglatadi. Juft va takroriy otdagi avvalgi ot, keyingi ot yoki har ikkala otlar ham birdaniga haqiqiy ma'nosini yo'qotadi:

sivri	+	sinek	→	**sivrisinek**
kuş	+	burnu	→	**kuşburnu**
hanım	+	eli	→	**hanımeli**
aslan	+	ağzı	→	**aslanağzı**

* Tovush yoki bo'g'in yo'qolishi bilan:

cuma	+	ertesi	→	**cumartesi**
sütlü	+	aş	→	**sütlâç**
pazar	+	ertesi	→	**pazartesi**
güllü	+	aş	→	**güllâç**

* Ot hamda fe'lning sifatdosh yoki harakat nomi shakllaridan iborat bo'lishi bilan:

gece	+	kondu	→	**gecekondu**
biçer	+	döver	→	**biçerdöver**
uyur	+	gezer	→	**uyurgezer**
miras	+	yedi	→	**mirasyedi**

OTLARDA KİCHRAYTİRİSH

Kichraytirish qo'shimchasi shaxs bildirgan otlarga qo'shilganda, kichraytirish manosidan tashqari erkalash, achinish yoki hurmat ko'rsatish ma'nosini ham ifodalaydi.

Kichraytirish Qo'shimchasi: -cık(-cik, -cuk, -cük), -cağız (-ceğiz)

Biz bu küçü**cük** evde oturuyoruz.

Yıllarca bu ufa**cık** odada çalıştım.

Mini**cik** bir kız çocuğu kapının önünde duruyordu.

Sana küçük bir kedi**cik** getirdim.

Adam**cağız** günlerce aç susuz sokaklarda dolaşmıştı.

Zavallı kız**cağız**ın hiç kimsesi yoktu.

Erkalash

Biricik kızım Ayşe**cik** beni asla yalnız bırakmadı.

Sevgili Fatma**cığım** seni çok özledim.

Küçük yavru**cuk** hemen annesinin kucağına çıktı.

Sevgili anne**ciğim**, seni çok özledim.

Kız**cağız** bana çiçek yollamış.

Kadın**cağız** senin için her şeyi yapacağını söylüyor.

Achınish

Zavallı kedi**cik** çok acıkmıştı.

Küçük yavru**cuk** çok kötü hastalanmıştı.

Zavallı hayvan**cık** arabanın altında ezildi.

Zavallı adam**cağız** çok hasta.

Bu zayıf kadın**cağız** üç günden beri hiçbir şey yemiyor.

Küçük kız**cağız** çok zayıflamıştı.

-cık va **-cağız** qo'shimchalari ba'zi otlarda qoliplashgan holda ve ba'zi so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini joyiga keltirib yangi bir otni hosil qiladi.

arpa**cık**	(ko'z jildi atrofida hosil bo'ladigan yiringli chiqiq)
bademcik	(bodomcha bezi kasalligi)
gelincik	(gul yoki hayvon nomi)
Çınarcık	(joy nomi)
Ovacık	(joy nomi)
Köyceğiz	(joy nomi)



UNUTMANG

MORFOLOGİYA

So'z turkumlari, so'z va gap qurilishi, o'zaklar va qo'shimchalar bilan bog'liq barcha grammatik qonun-qoidalarni o'rganuvchi til bo'limiga morfologiya deb aytiladi.

SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI

Biron bir ma'noni ifodalovchi tovush yoki tovushlarga so'z deyiladi. Turkchada ot, sifat, olmosh, ko'makchi, bog'lovchi, undov, fe'l kabi sakkiz muhim so'z turi bor.

OTLAR

Predmetni ifodalovchi so'zlarga ot deyiladi. Otlar shu guruhlarga bo'linadi: Real borliqdagi otlar, mavhum otlar, atoqli otlar, turdosh otlar, jisim va modda otlari, birlik va ko'plik otlari.

ağaç, ev, akıl, sevgi, Ankara, kuşlar, toplum, ulus, sürü... kabi.

QARATQİCHLİ BİRİKMA:

İkki yoki undan ortiq ot yoki otlashgan so'zlarning o'zaro munosabati bilan ifodalangan birikmaga qaratqichli birikma deyiladi. Qaratqichli birikmalar uchga bo'linadi:

Belgili qaratqichli birikma : ineğin sütü
Belgisiz qaratqichli birikma : inek sütü
Zanjirsimon qaratqichli birikma : inek sütünün kaymağı

SHAKLİY TUZİLİSHİGA KO'RA OTLAR:

Otlar shakliy tuzilishiga ko'ra asosiy, yasalgan, juft va takroriy ot turlariga bo'linadi:

Assosiy otlar : çiçek, kalem, su ... gibi.
Yasalgan otlar : simitçi, kalemlik, yazar... gibi.
Juft va takroriy otlar : kuşburnu, pazartesi, uyurgezer... gibi.

OTLARDA KİCHRAYTİRİSH:

Kichraytirish qo'shimchasi shaxs bildirgan otlarga qo'shilganda kichraytirish, erkalash, achinish yoki hurmat ko'rsatish ma'nosini ifodalaydı:

Kichraytirish qo'shimchasi: -cık (-cik, -cuk, -cük); -cağız (-ceğiz)

Yıllarca bu ufa**cık** odada çalıştım.

Kız**cağız** bana çiçek yollamış.

Zavallı kedi**cik** çok acıkmıştı.

SİFAT

(Tr. sıfatlar: İng. adjektives: Germ. Adjektive: Fr. adjectifs)

Predmetning belgisini bildiruvchi va otlardan oldin keluvchi mustaqil so'zlarga **sifat** deyiladi.

***büyük** ev, **küçük** çocuk, **yaşlı** adam, **yeşil** bahçe, **sarı** çiçek, **bu** araba, **üç** kitap, **masmavi** gökyüzü...*

Sifatlar ikki asosiy turga bo'linadi.



SİFAT DARAJALARİ

(Tr. niteleme sıfatları: İng. qualificate adjective: Germ. qualifikatives Beiwort, attributives Adjectiv: Fr. adjectif qualificatif) .

QİYOSİY SİFATLAR

(Tr. karşılaştırma sıfatları: İng. comparative adjectives: Germ. Komparativ der Adjektive: Fr. adjectifs de comparaison)

Predmetlarning belgisini boshqa narsa belgisi bilan qiyoslab ko'rsatuvchi sifatlarga qiyoslashtiruvchi sifat deyiladi. Qiyoslashtiruvchi sifatlar **daha** va **en** so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi.

1	2	3
büyük ev	**daha** büyük ev	**en** büyük ev
küçük çocuk	**daha** küçük çocuk	**en** küçük çocuk
güzel kadın	**daha** güzel kadın	**en** güzel kadın
yaşlı adam	**daha** yaşlı adam	**en** yaşlı adam
iyi insan	**daha** iyi insan	**en** iyi insan
çalışkan öğrenci	**daha** çalışkan öğrenci	**en** çalışkan öğrenci

Predmetlarning sifatini ifodalash uchun gibi, kadar so'zlaridan foydalaniladi:

Ahmet, Ali **gibi** çalışkandır.
Ahmet, Ayşe **kadar** çalışkandır.

ORTTİRMA SİFATLARİ: m, p, r, s

(Tr. pekiştirme sıfatları; İng. intensive adjectives; Germ. Intensivum; Fr. adjectif intensif)

Predmet belgisining oddiy daraja holatidan ortiq ekanligini va kuchliligini ko'rsatadi. Turkchada so'zlarning bosh qismini olish holati faqatgina orttirma sifatlarida uchratiladi. Bu ko'proq sifatning boshiga old qo'shimcha olish shaklida emas balki oldindan qo'shilgan bo'g'in shaklidadir.

beyaz	→	**bem**beyaz	: çok beyaz, en beyaz
kara	→	**kap**kara	: çok kara, en kara
temiz	→	**ter**temiz	: çok temiz, en temiz
doğru	→	**dos**doğru	: çok doğru, en doğru

Orttirma sifatlarining hosil qilinishida sifatning oldiga m, p, r, s undosh harflari bilan tugagan bir bo'g'in keltiriladi. Bu shakilda sifatlarga yangi bir bo'g'in qo'shiladi. Orttirma sifatlari otlardan oldin yoki keyin keladi. Bu vaziyatda otlardan oldin kelib sifatlovchi birikma hosil qiladi.

m	**beyaz**	→	**bem**beyaz	:	bembeyaz çamaşır
	yeşil	→	**yem**yeşil	:	yemyeşil orman
	sıcak	→	**sım**sıcak	:	sımsıcak hamam
	boş	→	**bom**boş	:	bomboş oda
	başka	→	**bam**başka	:	bambaşka adam
	düz	→	**düm**düz	:	dümdüz yol
p	**karanlık**	→	**kap**karanlık	:	kapkaranlık oda
	dağınık	→	**dap**dağınık	:	dapdağınık büro
	acı	→	**ap**acı	:	apacı yemek
	aydın	→	**ap**aydın	:	apaydın insan
	dar	→	**dap**dar	:	dapdar sokaklar
	ıslak	→	**ıp**ıslak	:	ıpıslak elbise
	sağlam	→	**sapa**sağlam	:	sapasağlam adam
	sarı	→	**sap**sarı	:	sapsarı çocuk
	taze	→	**tap**taze	:	taptaze yumurta
	yalnız	→	**yapa**yalnız	:	yapayalnız kadın
	uzun	→	**up**uzun	:	upuzun yol
	yeni	→	**yep**yeni	:	yepyeni ev
r	**temiz**	→	**ter**temiz	:	tertemiz ev
	perişan	→	**per**perişan	:	perperişan ev
s	**mavi**	→	**mas**mavi	:	masmavi gökyüzü
	mor	→	**mos**mor	:	mosmor gözler
	koca	→	**kos**koca	:	koskoca adam
	yuvarlak	→	**yus**yuvarlak	:	yusyuvarlak masa

Orttirma sifatlari boshqa sifat darajalari kabi otlardan keyin keladi va to'liqsiz fe'llar bilan qo'shma gaplar quradi. Faqat eng oson yo'lni tanlash qonuni doirasida bu gaplarning ba'zilarida sifatdan keyin to'liqsiz fe'l qo'shib aytilmaydi.

Sifat	Gap
masmavi gökyüzü	Bugün gökyüzü **masmavi**.
tertemiz ev	Bizim ev **tertemizdir**.
çırılçıplak çocuk	Kış günü çocuk **çırılçıplaktı.**
taptaze yumurta	Bu yumurtalar **taptazedir**.
sımsıcak hamam	Hamam **sımsıcaktı**.
bomboş oda	Eve geldiğimizde oda **bomboştu**.

OZAYTİRMA SİFATLAR

(Tr. küçültme sıfatları: İng. diminutive adjectives: Germ. Verkleinerungsadjetive, Diminativ: Fr. adjectives diminutifs)

Narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligini, kuchsizligini bildiradi. Ozaytirma qo'shimchalari sifatlardan keyin kelib sifatlarning ma'nosiga yaqin yoki o'xshash yangi bir ma'no beradi. Masalan: *"Ucuzca bir ev"* deb aytilgan zahoti unchalik ham arzon bo'lmagan ammo arzonroq bir uy tushuniladi. *"Bu adamın kadınca davranishlari var"* deb aytilganda esa bu odamning xotinlarnikiga o'xshash ba'zi muomala tarzi borligi tushuniladi. Demak ozaytirma qoshimchasi sifatga yaqinlik yoki o'xshashlik ma'nosini ham beradi.

Ozaytirma sifatlari quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalanadi:

Ozaytirma qo'shimchalari: **-ca (-ce)**
-cık (-cik, -cuk, -cük)
-ımsı (-imsi, -umsu)
-ımtırak (-imtırak, -umtırak)

-ca (-ce)

temiz**ce** bir ev	→	temize yakın bir ev (tam temiz değil)
yeşil**ce** bir kumaş	→	yeşile yakın bir kumaş (tam yeşil değil)
güzel**ce** bir kadın	→	güzele yakın bir kadın(tam güzel değil)
pahalı**ca** bir araba	→	pahalıya yakın bir araba (tam pahalı değil)

Tatilde temiz**ce** bir otelde kaldık.

Elbise yapmak için yeşil**ce** bir kumaş aldım.

Ayten Hanım güzel**ce** bir kadındır.

Yeni aldığın araba biraz pahalı**ca** değil mi?

-cık (-cik, -cuk, -cük)

ufak	→	ufa**cık**	Ben bu **ufacık** odada oturuyorum.
bir	→	biri**cik**	Bu mektubu **biricik** eşime yolluyorum.
küçük	→	küçü**cük**	**Küçücük** çocuk, kocaman bir taşı kaldırdı.

-msı (-ımsı, -imsi, -umsu)

yeşil	→	yeşil**imsi**	Ayşe'nin yeşil**imsi** elbisesi ona çok yakışmıştı.
sarı	→	sarı**msı**	Sonbaharda bütün doğa sarı**msı** bir renk alır.
acı	→	acı**msı**	Dün yediğim acı**msı** yemek midemi rahatsız etti.
mor	→	mor**umsu**	Fırtınadan önce gökyüzü mor**umsu** bir renk aldı.

-mtırak (-ımtırak, -imtırak, -umtırak)

beyaz	→	beyazı**mtırak**	Fatma Hanım beyazı**mtırak** bir elbise giymişti.
mor	→	mor**umtırak**	Aldığım mor**umtırak** kumaşı herkes çok beğendi.

mavi	→	mavi**mtırak**	Bu mavi**mtırak** elbise sana çok yakışıyor.
ekşi	→	ekşi**mtırak**	Ekşi**mtırak** elmaları daha çok severim.
acı	→	acı**mtırak**	Ben biraz acı**mtırak** yemekleri seviyorum.

-msı ve -mtırak qo'shimchalari: Ko'pincha ranglar va ma'za-ta'm bilan bog'liq so'zlarni ifodalashda qo'llaniladi. Biroq unchalik ko'p ishlatilmaydi. Har ikki qo'shimcha bir xil ma'noni beradi:

yeşilimsi kumaş	→	yeşili**mtırak** kumaş
mavimsi elbise	→	mavi**mtırak** elbise
acımsı yemek	→	acı**mtırak** yemek
ekşimsi elma	→	ekşi**mtırak** elma

UNVON SİFATLARİ

(Tr. ünvan,san sıfatları; İng. epithet adjectives; Germ. Titeladjektive; Fr. adjectifs epithetes)

Atoqli otlardan oldin yoki keyin keladigan unvon, daraja, kasb, hurmat-ehtirom kabi holatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan sifatlarga unvon sifatlari deyiladi. Bu sifatlar boshqa sifat turlariga o'xshamaydi. Bir so'zning sifat bo'la olishi uchun otlardan oldin kelishi kerak. Ammo ba'zi unvon sifatlari otlardan keyin ham ishlatilmoqdadir. Misol uchun **bey, paşa** so'zlari faqat otlardan keyin kelmoqdadir. Otlardan keyin keluvchi sifatlar esa asosan kesim vazifasini bajaradi. Otlardan keyin kelgan so'zlarning sifat bo'lolmasligi sababli bey, paşa so'zlarining ham sifat o'laroq ishlatilishi juda qiyindir. Bu taqdirda unvon sifatlarini istisno deb qabul qilish eng to'g'ri yo'l bo'lib hisoblanadi. Unvon sifatlarini uch sinifga bo'lishimiz mumkin:

1. Otlardan oldin kelgan unvon sifatlari:

Sayın Ayşen Işık	**Mareşal** Fevzi Çakmak
Bay İsmail Yücel	**Hoca** Ahmet Yesevi
Bayan Serpil Öztürk	**Yüksek Mühendis** Erdem Güngör
Prof. Dr. Cahit Kavcar	**Sayın Cumhurbaşkanı** Süleyman Demirel
Genel Müdür Ali Acar	**Kraliçe** Elizabeth

2. Otlardan keyin kelgan unvon sifatlari:

Özgür **Bey**	Oğuz **Kağan**	Zeynep **Hala**
Filiz **Hanım**	Şehriban **Hatun**	Fatma **Nine**
Hasan **Efendi**	Mete **Han**	Ali **Amca**
Fevzi Çakmak **Paşa**	Babür **Şah**	Ahmet **Dede**

Unvon sifatlari ba'zi tilshunoslarga ko'ra xitob so'zlari deb ham qabul qilinadi.

3. Otlardan oldin va keyin keluvchi unvon sifatlari:

Nasrettin **Hoca**	Orhan **Gazi**	Hasan **Çavuş**
Hoca Nasrettin	**Gazi** Mustafa Kemal	**Çavuş** Hasan

ANİQLOVCHİ SİFAT

(Tr. belirtme sıfatları; İng. determinative adjectives; Germ. Bestimmungswörter; Fr. adjectif déterminatifs)

Predmet sifatini, sonini ko'rsatish, savol so'rash yoki belgisiz o'laroq ifodalovchi sifatlarga **aniqlovchi sifat** deb aytiladi. Aniqlovchi sifatlar to'rtga bo'linadi:

KO'RSATİSH SİFATLARİ

(Tr. işaret sıfatları; İng. demonstrative adjectives; Germ. Demonsrtativadjektive, Zeigebeiwort; Fr. adjektifs démonstratifs)

Otlarni ko'rsatgan holda ifodalovchi sifatlarga ko'rsatish sifatlari deyiladi. Ko'rsatish sifatlari **bu, şu, o** so'zlari bilan ifodalanadi. Bu so'zlar aslida ko'rsatish olmoshidir. Faqat bu olmoshlar otlardan oldin kelgan holda ko'rsatish sifati vazifasini bajaradi. Ko'rsatish sifatlari quyidagilardir:

bu :
Bu mektubu anneme ver.
Bu çocuk sınıfın en çalışkan öğrencisidir.
Bu acıya dayanmak kolay değildir.
Siz **bu** kadınla evlenmek istiyor musunuz?
Yarın gelirseniz size **bu** kitapların hepsini vereceğim.

şu : **Şu** çocuğu tanıyor musun?
Şu adam orada ne yapıyor?
Lütfen, bana **şu** dosyaları verir misin?
Polisler, **şu** hırsızları bir türlü yakalayamadılar.
Şu kalem senin mi?

o : **O** dağlarda güzel ormanlar vardı.
O adam eskiden çok iyi spor yapardı.
Seni **o** gün her yerde aradım.
Okuduktan sonra, **o** kitabı bana verir misin?
Bu evi görünce, **o** evi almaktan vazgeçtim.

SO'ROQ SİFATLARİ

(Tr. soru sıfatları; İng. interrogative adjectives; Germ. Fragewörte; Fr. adjektifs interrogatis)

So'roq sifatlari otlarni savollar bilan ifodalab keladi. So'roq sifatlari asosan *ne, ne kadar, nasıl, ne gibi, ne biçim, kaç, kaçıncı, kaçar, hangi, ne türlü* kabi so'roq so'zlari bilan ishlatiladi.

ne : Siz **ne** iş yapıyorsunuz?
nasıl : **Nasıl** kitap istiyorsunuz?
nice : Orada havalar **nice**?
ne gibi : Sizin **ne gibi** sorunlarınız var? Lütfen bize anlatın.
ne biçim : Sizler **ne biçim** insanlarla çalışıyorsunuz?
kaç : Otelde **kaç** gün kalacaksınız?
kaçıncı : **Kaçıncı** sınıfta okuyorsunuz?
hangi : Siz **hangi** evde oturuyorsunuz?
ne türlü : Siz **ne türlü** işler yapıyorsunuz?

BELGİSİZ SİFATLAR

(Tr. belgisiz sıfatlar; İng. indefinite adjectives; Germ. unbestimmte Adjektive; Fr. agjektif indéfinis)

Otlarni aniq ifodalamagan sifatlarga **belgisiz sifatlar** deyiladi. Belgisiz sifatlar asosan *hiç, bir, birtakım, birkaç, birçok, her, bazı, herhangi, bütün, nice* kabi so'zlar bilan ishlatiladi.

"Bir adam dün bize geldi." gapidagi shaxsning kim ekanligi noma'lumdir. Bu sababdan ushbu sifatlarga belgisiz sifatlar deyiladi. Belgisiz sifatlarga quyidagi misollarni keltiramiz:

bir	:	**Bir** kadın bugün bana telefon etti.
birtakım	:	Dün **birtakım** insanlar caddelerde yürüyüş yaptılar.
birkaç	:	Bu olaylar üzerine dün polisler **birkaç** kişiyi tutukladılar.
birçok	:	**Birçok** insan bu konuda benim fikirlerime katılıyor.
her	:	Bu devirde **her** adama güvenmeyeceksin.
bazı	:	**Bazı** insanlar yalnızca kendi çıkarlarını düşünür.
herhangi	:	Bu işi **herhangi** bir adam yapmış olabilir.
bütün	:	Gün gelecek **bütün** insanlar dostça yaşamayı öğrenecek.
nice	:	Bizim ülkemizde **nice** insan bu güzel günü bekliyordu.

SON SIFATLARI

(Tr. sayı sıfatları; İng. numeral adjectives; Germ. Zahladjektive; Fr adjectifs numéraux)

Otlarni son jihatidan ifodalab ke'luvchi so'zlarga son sifatlari deb aytiladi. Son sifatlari quyidagi quyi bo'limlarga ayriladi:

* sanoq son sifatlari
* tartib son sifatlari
* jamlovchi son sifatlari
* kasr son sifatlari

Sanoq Son Sifatları

Sanoq sonlar predmetlarning soni va miqdorini, boshqa bir ot bilan bog'lanib uning sifatini ko'rsatadi:

Küçük çocuk için **üç** litre süt aldım.

Manavdan **iki** kilo domates alır mısın?

Eşimle tam **kırk** yıl mutlu bir hayat yaşadık.

Karadeniz bölgesinde havalar **on iki** ay yağışlı geçer.

Tartib Son Sifatlari: -ıncı (-inci, -uncu,-üncü)

Sanoq sonlarga -nci qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Tartib sonlar bir turdagi narsalarning daraja -miqdor jihatidan tartibini korsatish uchun xizmat qiladi: *birinci, üçüncü, onuncu, yüzüncü* kabi.

Siz bir**inci** yarışmacı olarak yarışacaksınız.

Engin üç**üncü** sınıfa gidiyor.

Cumhuriyetin yüz**üncü** yılını kutladık.

Elli iki**nci** alayda askerlik yapıyorum.

-ıncı qo'shimchasi joyiga nuqta tinish belgisi qo'yib ham ishlatiladi:

Engin üç**üncü** sınıfa gidiyor. → Engin **3.** sınıfa gidiyor.

Jamlovchi Son Sifatlari: -ar (- er) ; -şar (- şer)

Miqdorni jamlab, to'dalab ko'rsatishda ishlatiladi. Jamlovchi sonlar -ar (-er), -şar (-şer) qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

Çocuklar üç**er** kişilik sıralar halinde dizildiler.

Bütün çocuklara beş**er** elma veriniz.

Çocuklara iki**şer** dilim pasta verdim.

Her bahçeye dokuz**ar** ağaç dikiniz.

Unli harflardan keyin **-ar (-er)** qo'shimchasi asosan **-şar (-şer)** shaklida o'zgaradi:

iki**şer**, yedi**şer**, altı**şar**, yirmi**şer**, elli**şer**... kabi.

Kasr Son Sıfatları

Miqdorni butunning qismiga ko'ra ifodalovchi sonlar kasr sonlar deyiladi.

Bu elbiseyi değerinin **dörtte biri** fiyatına aldım.

Bu yıl fiyatlara **yüzde yüz** zam yapıldı.

Sizin maaşınıza bu ay **yüzde on** zam yapacağız.

SİFATLOVCHİ BİRİKMA

(Tr. Sıfat tamlaması; İng. adjectival construction; Germ. Adjektivkonstruktion; Fr. complément d'adjectif)*

Sifatlarning otga ko'chishi yoki otlashuvi bilan hosil bo'lgan birikmalarga **sifatlovchi birikma** deb aytiladi. Sifatlovchi birikmada sifatlar sifatlovchi, otlar esa sifatlanmish vaziyatidadir.

Sifatlovchi	Sifatlanmish	Sifatlovchi Birikma sifat + ot
mavi	gökyüzü	mavi gökyüzü
bütün	insanlar	bütün insanlar
akıllı	çocuklar	akıllı çocuklar
cesur	kızlar	cesur kızlar
elli iki	öğrenci	elli iki öğrenci

Zanjirsimon Sifatlovchi Birikma

Bir sifatlovchi birikmada birdan ortiq sifatlarning joy olishiga zanjirsimon sifatlovchi birikma deyiladi. Zanjirsimon sifatlovchi birikmada ikki yoki undan ortiq sifat o'zaro bir oraga kelib otni sifatlab keladi. Bu yuzdan zanjirsimon sifatlovchi birikmada sifotlovchi bir, sifatlamish esa birdan ortiqdir:

Küçük,	sevimli,	uzun saçlı,	kırmızı şapkalı	kız.
sifatlovchi	sifatlovchi	sifatlovchi	sifatlovchi	sifatlanmish

Ak sakallı, beli bükük, siyah pantolonlu yaşlı bir adamdı.

Genç, güzel, kumral saçlı, beyaz giysili bir bayan yavaşça kapıyı açtı.

Bilgisiz, görgüsüz, cahil ve bencil insanlardan nefret ederim.

Güler yüzlü, çok tatlı bir çocuk pencereden başını uzattı.

Yuqorida ko'rsatilgan misollarda ham butun sifat darajalari va aniqlovchi sifatlar zanjirsimon sifatlovchi birikma ichida kelmoqda. Sifatlar haqidagi bu umumiy ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin biroz sifatlarning shakliy tuzilishi ustida to'xtalishni foydali deb hisoblaymiz.

SHAKLİY TUZİLİSHİGA KO'RA SİFATLAR

Sifatlar shakliy tuzilishiga ko'ra uchga bo'linadi:

* **Asosiy sifatlar**
* **Yasalgan sifatlar**
* **Juft va takroriy sifatlar**

ASOSİY SİFATLAR

(Tr. yalın sıfatlar; İng. simple adjectives; Germ. einfache Adjektive; Fr. adjectifs simples)

Hech qanday yasovchi qo'shimcha olmasdan o'zak holidagi sifatlarga asosiy sifatlar deb aytiladi.

güzel kız	**zor** iş
iyi çocuk	**üç** öğrenci
bir adam	**temiz** kent
mavi gezegen	**boş** şişe

YASALGAN SİFATLAR

(Tr. türemiş sıfatlar; İng. derived adjectives; Germ. abgeleitete Eigenschaftswörter; Fr. adjektif dérivé)

Turli so'z yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan sifatlarga yasalgan sifatlar deb aytiladi. Yasalgan sifatlar asosan ot yok fe'l negiziga yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan hosil qilinadi.

Ot Asosida Yasalgan Sifatlar

Otlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shilish yo'li bilan hosil qilinadi:

akıl	+ lı	→	akıl**lı** çocuk	akıl	+ sız	→	akıl**sız** çocuk
güç	+ lü	→	güç**lü** insan	güç	+ süz	→	güç**süz** insan
uyku	+ cu	→	uyku**cu** Ayşe	fizik	+ sel	→	fizik**sel** olaylar
yalan	+ cı	→	yalan**cı** tanık	yaz	+ lık	→	yaz**lık** elbise
çocuk	+ su	→	çocuk**su** davranışlar	dağ	+ cı + lık	→	dağ**cılık** okulu

Fe'l Asosida Yasalgan Sifatlar

Fe'l asosida yasalgan sifatlar orasida asosan sifatdoshlar muhim o'rin egallaydi. Sifatdoshlar asosan sifat kabi ishlatiladi va ularning barcha xususiyatlarini tashib keladi. Bu borada keyinroq batafsil ma'lumot berilishi yuzidan bu yerda ba'zi qisqa misollar keltirish bilan cheklanamiz:

gelmek	→	gel**en** adam	**pişmek**	→	pişm**iş** yemek
yüzmek	→	yüz**en** çocuk	**yazmak**	→	yazıl**mış** mektup
yazmak	→	yaz**ar** kasa	**gelmek**	→	gel**ecek** yıl
tanımak	→	tanı**dık** insan	**yapmak**	→	yapıl**acak** işler

Sifatdoshlar qatorida boshqa yasovchi qo'shimchalar ham fe'llardan sifat yasaydi:

kızmak	→	kız**gın** öğretmen	**süzmek**	→	süz**me** bal
durmak	→	dur**gun** su	**yazmak**	→	yaz**ma** kitap
kurmak	→	kuru**cu** üyeler	**saymak**	→	say**ılı** günler
oyalamak	→	oyalay**ıcı** işler	**utanmak**	→	utan**gaç** çocuk
düşünmek	→	düşün**dürücü** olaylar	**uymak**	→	uy**sal** insanlar

JUFT VA TAKRORİY SİFATLAR

(Tr. Birleşik sıfatlar; İng. compound adjectives; Germ. zusammengesetzte Adjektive; Fr. adjectifs composés)

Qo'shma so'zlar shaklida juftlanish yoki takrorlanish shaklida qurilgan sifatlarga juft va takroriy sifatlar deyiladi. Ularni quyidagi misollar bilan berish mumkin:

başmüdür odası	**Köprübaşı** mahallesi	**başkâtip** masası
yurtsever insanlar	**canciğer** dost	**mirasyedi** evlat

Juft va Takroriy sifatlarning bir qismiga qurolga rioya qiluvchi juft va takroriy sifatlar deyiladi. Bu sifat turlarining shakli quyidagicha:

Sifatlovchi birikma + -lı (-li, -lu, -lü)

dört silindir + **li** araba

iki çocuk + **lu** kadın

çok kat + **lı** otopark

Sifatlovchi birikma + -lık (-lik, -luk, -lük)

beş kuruş + **luk** iş

yarım saat + **lik** çalışma

bir gün + **lük** iş

Ot + egalik qo'shimchasi III shaxs birlik + sifat

hesab + ı büyük → hesabı büyük işler

göz + **ü** açık → gözü açık çocuk

karın + ı tok → karnı tok

kulak + ı kesik → kulağı kesik

UNUTMANG

SİFATLAR

Predmetlarning belgi va sifatini bildiruvchi hamda otlardan oldin keluvchi so'zlarga sifat deyiladi. Sifatlar daraja sifatlari va aniqlovchi sifatlari bo'lib ikki asosiy qismga bo'linadi. Butun sifat turlari ana shu ikki bo'lim ostida siniflantiriladi.

SİFAT DARAJALARİ: Otlarning sifati va xususiyatlarini ifodalab keladi:
iyi çocuk, doğru adam, güzel kız, küçük ev, iri adam, kırmızı çiçek, sabırlı insan kabi.

Sifat darajalari to'rtga bo'linadi:

Qiyosiy sifatlar: Predmetlarni qiyoslab ko'rsatadi: çalışkan, daha çalışkan, en çalışkan, iyi, daha iyi, en iyi, güzel, daha güzel, en güzel kabi.

Orttirma sifatlari: Bir predmet holatining kuchliligini va ortiqligini ko'rsatadi: *bembeyaz, sapsarı, tertemiz, taptaze, yemyeşil, dimdik, çarçabuk* kabi.

Ozaytirma sifatlari: Bir predmet holatining kuchsiz va ozligini ko'rsatadi. Ozaytirma qo'shimchalari bilan quriladi: *temizce bir ev, küçücük bir oda, mavimsi kumaş, yeşilimtırak elbise* kabi.

Sayın Mehmet Çalışkan, Günal Bey, Ayşe Nine, Mete Han, Hasan Çavuş kami.

Unvon sifatlari: Atoqli otlardan oldin yoki keyin kelib unvon, daraja, kasb, vazifa va hurmat-ehtirom ko'rsatishda ishlatiladi: *Sayın Mehmet Çalışkan, Günal Bey, Ayşe Nine, Mete Han, Hasan Çavuş...* kabi.

ANİQLOVCHİ SİFATLARİ: Otlarning sonini ifodalash, ko'rsatish, savol so'rash yoki belgisiz o'laroq ishlatiladi. Aniqlovchi sifatlar ham to'rtga bo'linadi:

Ko'rsatish Sifatlari: Otlarni ko'rsatgan holda uni ifodalab keladi. Bu, şu, o so'zlari bilan yasaladı:

Bu kitabı okudum.
Şu adamı tanıyor musun?
O kadın eskiden bankada çalışırdı.

So'roq Sifatlari: Otlarni savol jihatidan ifodalab keladi:

Siz **ne** yapıyorsunuz?
Nasıl bir işte çalışmak istiyorsunuz?
Hangi yemekleri seversiniz?

Belgisiz Sifatlar: Otlarni aniq ifodalamaydi:

Bütün çocuklar iyi bir eğitim görmelidir.
Birtakım insanlar dün gece olay çıkarmışlar.
Bazı insanlar saygısız oluyorlar.

Son Sifatlari: Otlarni son jihatidan ifodalab keladi. Son sifatlari ham to'rtga bo'linadi:

Sanoq son sifatlari	: Çocuğa **iki** litre süt al.
Tartib son sifatlari	: Yarışlarda **üçüncü** oldum.
Jamlovchi son sifatlari	: **İkişer** sıra olunuz.
Kasr son sifatlari	: Ücretinize **yüzde otuz** zam yapacağız.

SİFATLOVCHİ BİRİKMA

Sifatlarning otga ko'chishi yoki otlashuvi bilan hosil bo'lgan sifatlovchi birikmada kamida bir sifat va ot bo'ladi:

***akıllı** insanlar, **cesur** çocuklar, **hızlı** araba, **beş** öğrenci...* kabi.

Zanjirsimon sifatlovchi birikmada birdan ortiq sifat bordir:

Cesur, akıllı, dürüst, bilgili ve **çalışkan** çocukları severim.

SİFATLARNİNG SHAKLİY TUZİLİSHİ

Shakliy tuzilishiga ko'ra sifatlar uchga bo'linadi:

Asosiy Sifatlar: Yasovchi qo'shimcha olmaydi.

***güzel** çocuk, **beş** kişi...* kabi.

Yasalgan Sifatlar: Yasovchi qoshimchalar asosida yasalib ular ot yoki fe'llarning yasovchi qo'shimchalar bilan qo'shilishi shaklida hosil qilinadi:

Ot Asosida Yasalgan Sifatlar					Fe'l Asosida Yasalgan Sifatlar		
akıl	+	lı	:	akıll**ı** insan	yüzmek	:	yüz**en** çocuk
akıl	+	sız	:	akıl**sız** insan	gezmek	:	gez**ici** hastahane

Juft va Takroriy Sifatlar: Qo'shma so'z shaklida qurilib juftlanish yoki takrorlanish natijasida hosil qilinadigan sifatlardir.

Türkler **yurtsever** insanlardır.
Dün **canciğer** dostum aradı.

OLMOSHLAR

(Tr. adıllar, İng. pronouns: Germ. Pronomen.: Fr. pronoms)

Ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanilib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar narsa va kishilarni ko'rsatish, ularga ishora qilish, mavhum ma'no bildirish kabi vazifalarni bajaradi. Olmoshlar yetti turga bo'linadi:

Kishilik Olmoshları	ben, sen, o, biz, siz, onlar
Ko'rsatish Olmoshları	bu, şu, o, bunlar, şunlar, onlar
So'roq Olmoshları	kim, kimler, ne, neler, kaç, hangi
O'zlik Olmoshları	kendim, kendin, kendisi, kendimiz, kendiniz, kendileri
Bólishsizlik Olmoshları	biri, kimi, herkes, bazısı, birçoğu, herbiri
Qarashlilik Olmoshları	Mehmet'inki, benimki, onlarınki
Egalik qo'shimchasi (Olmoshi)	kitabım, evimiz, komşunuz, çocuklarım

KİSHİLİK OLMOSHLARİ *(Tr. kişi adılları: İng. personal pronouns: Germ. Personalpronomen, Fürwort: Fr. pronoms personnels)*

Shaxs o'rnida qo'llaniladigan olmoshlarga kishilik olmoshlari deyiladi. Kishilik olmoshlari kelishiklar bilan turlanadi. Quyidagi jadvalda kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanish shakli ko'rsatilmoqda:

Kishilik Olmoshlari va Kelishik Qóshimchalari

Bosh kelishik	ben	sen	o	biz	siz	onlar
Tushum kelishigi	beni	seni	onu	bizi	sizi	onları
Jo'nalish kelishigi	bana	sana	ona	bize	size	onlara
O'rin-payt kelishigi	bende	sende	onda	bizde	sizde	onlarda
Chiqish kelishigi	benden	senden	ondan	bizden	sizden	onlardan
Qaratqich kelishigi	benim	senin	onun	bizim	sizin	onların

Kishilik Olmoshlarining Qo'llanilishi

Kishilik Olmoshlarining Birlik Shakli:	
Ben	yarın geliyorum.
Beni	müdür çağırıyor.
Bana	para ver.
Bende	kalem var.
Benden	kitap mı istiyorsun?
Benim	evim çok küçük.

Kishilik Olmoshlarining Ko'plik Shakli:	
Biz	üniversiteye gidiyoruz.
Bizi	baloya çağırdılar.
Bize	davetiye gelmedi.
Bizde	ne kadar kalacaksınız?
Bizden	sıkıldılar.
Bizim	çok güzel bir evimiz var.

Sen	okula gidiyor musun?
Seni	çok seviyorum.
Sana	bir kitap vereceğim.
Sende	para var mı?
Senden	yardım rica ediyorum.
Senin	evin çok büyük.

Siz	üniversiteye gidiyor musunuz?
Sizi	baloya davet ediyorum.
Size	mektup yazacağım.
Sizde	defter var mı?
Sizden	özür diliyorum.
Sizin	eviniz çok güzel.

O	bize geliyor.
Onu	dün gördüm.
Ona	mektup yazdım.
Onda	çok para var.
Ondan	para istedim.
Onun	gözleri çok güzel.

Onlar	okula gitmiyorlar.
Onları	dün akşam gördün mü?
Onlara	ne söyledin?
Onlarda	para var mı?
Onlardan	kalem istedim.
Onların	evi çok küçük.

KO'RSATİSH OLMOSHLARİ *(Tr. işaret adılları; İng. demonstrative pronouns; Germ. Demonstrativpronomen; Fr. pronoms démonstratifs)*

Shaxs, narsa va ularning belgisini, bir turdagi narsalardan bittasini ajratib ko'rsatish, ta'kidlash uchun xizmat qiladigan so'zlarga ko'rsatish olmoshlari deyiladi. Ko'rsatish olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi. Bu vaziyatda qo'shimchalar oldiga **n** undosh harfi qo'yiladi:

Ko'rsatish Olmoshlari va Kelishik Qo'shimchalari

Bosh kelishik	bu	şu	o	bunlar	şunlar	onlar
Tushum kelishigi	bunu	şunu	onu	bunları	şunları	onları
Jo'nalish kelishigi	buna	şuna	ona	bunlara	şunlara	onlara
O'rin-payt kelishigi	bunda	şunda	onda	bunlarda	şunlarda	onlarda
Chiqish kelishigi	bundan	şundan	ondan	bunlardan	şunlardan	onlardan
Qaratqich kelishigi	bunun	şunun	onun	bunların	şunların	onların

Ko'rsatish Olmoshlaringn Qo'llanilishi

Olmoshlar asosan o'zlaridan oldin kelgan otning joyini egallaydi. Quyidagi na'munalarda bu yaqqol bir shakilda o'rtaga chiqmoqda. Aniqlanmish ot tushib qoldirilsa, ko'rsatish olmoshi otlashib, o'sha predmetni ko'rsatish yo'li bilan ko'rsatiladi:

Defteri alıyorum.	Neyi alıyorsun?	**Bunu** alıyorum.
Arabaya bakıyorum.	Neye bakıyorsun?	**Buna** bakıyorum.
Çantada bomba var.	Nerede bomba var?	**Bunda** bomba var.
Muzdan istiyorum.	Neden istiyorsun?	**Bundan** istiyorum.
Trenin kapısı.	Neyin kapısı?	**Bunun** kapısı.
Elbiseyi alıyorum.	Neyi alıyorsun?	**Şunu** alıyorum.
Bisiklete bakıyorum.	Neye bakıyorsun?	**Şuna** bakıyorum.
Şişede süt var.	Nerede süt var?	**Şunda** süt var.
Elmadan istiyorum.	Neden istiyorsun?	**Şundan** istiyorum.
Okulun kapısı.	Neyin kapısı?	**Şunun** kapısı.

Masayı alıyorum.	Neyi alıyorsun?	**Onu** alıyorum.
Gemiye bakıyorum.	Neye bakıyorsun?	**Ona** bakıyorum.
Şişede süt var.	Nerede süt var?	**Onda** süt var.
Peynirden istiyorum.	Neden istiyorsun?	**Ondan** istiyorum.
Cemil'in şapkası.	Kimin şapkası?	**Onun** şapkası.

Ayşe'yi arıyorum.	Kimi arıyorsun?	**Onu** arıyorum.
Serpil'e bakıyorum.	Kime bakıyorsun?	**Ona** bakıyorum.
Ahmet'te para var.	Kimde para var?	**Onda** para var.
Serap'tan hoşlanıyorum.	Kimden hoşlanıyorsun?	**Ondan** hoşlanıyorum.
Hamdi'nin elbisesi.	Kimin elbisesi?	**Onun** elbisesi.

Ko'rsatish Olmoshlarining Ko'plik Shakli

Koltukları beğendim.	Neleri beğendin?	**Bunları** beğendim.
Sandalyeleri istiyorum.	Neleri istiyorsun?	**Şunları** istiyorum.
Kalem ile silgi istiyorum.	Neleri istiyorsun?	**Şunları** istiyorum.
Çiçekleri alıyorum.	Neleri alıyorsun?	**Onları** alıyorum.
Canan ile Ali'yi sordum.	Kimleri sordun?	**Onları** sordum.

Ko'rsatish olmoshlari otlashib kelganda ba'zan ma'nosida noaniqlikga sabab bo'ladi. Bu holatda ko'rsatish olmoshidan keyin vergul qo'yiladi:

O, eve gitti.	O eve gitti.
Bu, adamı işten attı.	Bu adamı işten attı.
Olmosh	**Sifat**

SO'ROQ OLMOSHLARI *(Tr. soru adılları; İng. interrogative pronouns; Germ. Fragepronomen; Fr. pronoms interrogatifs)*

Otlarning o'rnini so'roq shakli bilan egallab predmet, uning belgisi va miqdori, ish-harakatning o'rni, payti va boshqa xusiyatlari haqida so'roqni bildiradi. So'roq olmoshlaridan **kim** shaxslarga nisbatan, **ne, kaç, hangi** umuman narsalarga (voqea-hodisa, hayvon, qushlarga) nisbatan ishlatiladi. So'roq olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan turlanip keladi.

So'roq Olmoshlari va Kelishik Qo'shimchalari

Bosh kelishik	kim	kimler	ne	neler
Tushum kelishigi	kimi	kimleri	neyi	neleri
Jo'nalish kelishigi	kime	kimlere	neye	nelere
O'rin-payt kelishigi	kimde	kimlerde	nede	nelerde
Chiqish kelishigi	kimden	kimlerden	neden	nelerden
Qaratqich kelishigi	kimin	kimlerin	neyin	nelerin

So'roq Olmoshlarining Qo'llanilishi

Kim geldi?	→	Engin geldi.
Kime para verdin?	→	Handan'a para verdim.
Kimde defter var?	→	Serpil'de defter var.
Kimden kitap aldınız?	→	Canan'dan kitap aldık.
Kimin arabası var?	→	Cemil'in arabası var.
Kimce sakınca yok?	→	Bence sakınca yok.
Kimler resim yapıyor?	→	Bizler resim yapıyoruz.
Kimleri tutukladınız?	→	Suçluları tutukladık.
Kimlerde jeton var?	→	Onlarda jeton var.
Kimlerden korkuyorsunuz?	→	Hırsızlardan ve katillerden korkuyoruz.
Kimlerin eşi geliyor?	→	Onların eşleri geliyor.

kaç

Kaç so'roq olmoshi ko'plik shaklida ishlatilmaydi. Kelishik qo'shimchalari bilan turlanib keladi.

Saat **kaçta** bize geleceksiniz?

Suçlulardan **kaçını** yakaladınız?

Elmaların **kaçı** çürük çıktı?

Armutların kilosunu **kaçtan** aldınız?

hangi

Hangi so'roq olmoshi ko'plikda ishlatiladi ve kelishik qo'shimchalari bilan turlanib keladi.

Arabalardan **hangisini** satın alacaksın?

Sınıftaki kızlardan **hangisi** öykü yazıyor?

Karşıdaki adamlardan **hangisi** resim yapıyor?

Bu bavulların **hangisi** sizin?

Bu çantaların **hangisinde** radyo var?

Bu insanların **hangisinde** tabanca var?

Meyvelerin **hangisinden** istiyorsunuz?

Hangileri sizin eşyanız?

Hangilerini satın alıyorsunuz?

O'ZLİK OLMOSHLARİ *(Tr. dönüşlü adıl; İng. reflexive pronouns; Germ. Reflexivpronomen; Fr. pronoms réfléchis)*

O'zlik olmoshi **kendi** so'zidan iborat bo'lib, kishilik olmoshi yoki otning ma'nosini oydinlashtiradi, kendi so'zi umuman egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llaniladi. O'zlik olmoshi bosh va qaratqich kelishigi shaklidagi kishilik olmoshlari bilan turlanganda ta'kid, ajratib ko'rsatish ma'nolarini anglatadi:

Ben	**kendim**	istedim.
Sen	**kendin**	istedin.

O	**kendisi**	istedi.
Biz	**kendimiz**	istedik.
Siz	**kendiniz**	istediniz.
Onlar	**kendileri**	istediler.

O'zlik Olmoshlari va Kelishik Qo'shimchalari

Bosh kelishik	kendim	kendin	kendisi	kendimiz	kendiniz	kendileri
Tushum kelishigi	kendimi	kendini	kendisini	kendimizi	kendinizi	kendilerini
Jo'nalish kelishigi	kendime	kendine	kendisine	kendimize	kendinize	kendilerine
O'rin-payt kelishigi	kendimde	kendinde	kendisinde	kendimizde	kendinizde	kendilerinde
Chiqish kelishigi	kendimden	kendinden	kendisinden	kendimizden	kendinizden	kendilerinden
Qaratqich kelishigi	kendimin	kendinin	kendisinin	kendimizin	kendinizin	kendilerinin

O'zlik Olmoshlarining Qo'llanilishi

kendim → Bu ödevi **kendim** hazırladım.

kendimi → Birdenbire **kendimi** suyun içinde buldum.

kendime → Geçen hafta **kendime** bir elbise aldım.

kendimde → Bu yaştan sonra **kendimde** spor yapacak güç bulamıyorum.

kendimden → Sana vurduğum için **kendimden** utanıyorum.

kendinin → Bu hata **kendinin** hatası, başka kimsenin suçu yok.

kendimce → Benim de **kendimce** bazı fikirlerim var.

kendin → Bu işi **kendin** istedin.

kendini → Neden **kendini** bu kadar üzüyorsun?

kendine → Yarın **kendine** yeni bir kitap al.

kendinde → Niçin **kendinde** hiç suç aramıyorsun?

kendinden → Neden **kendinden** korkuyorsun?

kendinin → Bu işte **kendinin** büyük hatası var.

O'zlik olmoshlari umuman kishilik olmoshlariga o'xshab ketadi. Ba'zan kishilik olmoshlarining ma'nosini ta'kidlash uchun kishilik olmoshlari bilan birgalikda keladi:

Bu mektubu ben **kendim** yazdım.

Bu işi sen **kendin** istedin.

O, bu evi **kendisi** oturmak için satın aldı.

Bu geziye katılmayı biz **kendimiz** istedik.

Gemiyle gitmeyi siz **kendiniz** istediniz.

Antalya'da tatil yapmayı onlar **kendileri** istediler.

O'zlik olmoshi bilan shaxsni yanada kuchaytirish ma'nosida ba'zan *bizzat* so'zi ham ishlatiladi:

Bu mektubu **bizzat** ben kendim yazdım.

Bu işi **bizzat** sen kendin istedin.

O, bu evi **bizzat** kendisi oturmak için satın aldı.

Bu geziye katılmayı **bizzat** biz kendimiz istedik.

Gemiyle gitmeyi **bizzat** siz kendiniz istediniz.

Antalya'da tatil yapmayı **bizzat** onlar kendileri istediler.

O'zlik olmoshi ba'zan kishilik olmoshlari sifatida ham ishlatiladi:

Babam okulda çalışıyor, **kendisi** okulun müdürüdür.

Erol Bey şiir yazıyor, **kendisi** şairdir.

Yalçın Bey resim yapıyor, **kendisi** ressamdır.

O'zlik olmoshidagi kendi so'zi ta'kid ma'nosini anglatib so'z birikmalarida keng ishlatiladi:

Kendi işimi kendim yaparım.

Kendi işini kendin yapacaksın.

Kendi hatanı kabul etmelisin.

Kendi hatalarımızı kabul etmezsek başarılı olamayız.

Kendi hayallerimizi, yine kendimiz yıktık.

O'zlik olmoshi gapda egani, harakatning bajaruvchisini ta'kidlab keladi:

Handan Hanım, bu çantayı **kendisi** için aldı.

Hamdi Bey, mektuplarını **kendisi** yazıyor.

Canan Hanım, bu elbiseyi **kendisi** için yaptırdı.

O'zlik olmoshi ba'zan orttirilmish shaklida ham qo'llaniladi:

Engin Bey, dün **kendi kendine** konuşuyordu.

Yaşlı kadın, **kendi kendine** mırıldanıyordu.

İsmail Bey, **kendi kendini** çok beğeniyor.

BO'LİSHSİZLİK OLMOSHLARİ

(Tr. belgisiz adıllar; İng. indefinite pronouns; Germ. unbestimmte Pronomen; Fr. pronoms indéfinis)

Ot, sifat, son kabi so'z turkumlarini anglatgan ma'no haqida inkorni bildiradi. Bo'lishsiz olmoshlarda qat'iyan bir shaxs yoki narsa ko'rsatilmaydi. Bo'lishsizlik olmoshlari quyidagi so'zlarni qo'shish bilan hosil bo'ladi:

biri, birisi, kimi, kimisi, herkes, kimse, hiç kimse, çoğu, hepsi, bazısı, birkaçı, birazı, birçoğu, başka, herbiri, insan, adam, şey... kabi.

Bo'lishsizlik olmoshlari jonli va jonsiz borliqlarning nomlari joyida ishlatiladi va kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi:

bazısı, bazısına, bazısında, bazısından, bazısının... kabi.

Bo'lishsizlik Olmoshlarining Qo'llanilishi

biri	→	Dün okulda **biri** sizi soruyordu.
kimi	→	Burada **kimi** arıyorsunuz?
herkes	→	Yarın **herkes** ödevini mutlaka yapacak.
kimse	→	Okulda **kimse** beni anlamıyor.
bazısı	→	Hayvanların **bazısı** ot, bazısı et yer.
birkaçı	→	Hırsızlardan **birkaçını** dün yakaladık.
başka	→	Bu sırrı sakın **başkaları** duymasın!
birçoğu	→	Hayvanların **birçoğu** kış uykusuna yatar.

herbiri	→	Ayşe mektupların **herbirini** tek tek okudu.
insan	→	**İnsan** giderken bir telefon eder.
adam	→	**Adam** arkadaşına yalan söyler mi?
şey	→	Bugün bana bir **şeyler** oluyor.

QARASHLİLİK OLMOSHİ *(Tr. ilgi adılı; İng. relative pronoun; Germ. Relativpronomen; Fr. pronom relatif)*

Kishilik olmoshiga -ki qo'shimchasini qo'shish bilan otlardagidek qarashlilik olmoshi hosil qilinadi. Qarashlilik olmoshidagi qarashlilik ideyasi shu olmoshning o'zida ifodalanadi.

Engin'in arabası kırmızı, benim arabam beyazdır.

Engin'in arabası kırmızı, benim**ki** beyazdır.

İlk gapdagi *arabam* so'zinin o'rnini ikkinchi gapda -ki qo'shimchasi olmoqdadir. Bu yuzdan -ki qo'shimchasi otning o'rnini egallab olmosh vazifasini bajarib keladi. Bunga yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin:

Serpil'in kalemi ince, benim kalemim kalın yazıyor.

Serpil'in kalemi ince, benim**ki** kalın yazıyor.

Sizin eviniz küçük, bizim evimiz büyüktür.

Sizin eviniz küçük, bizim**ki** büyüktür.

Yuqoridagi misollarda keltirilganidek -ki qo'shimchasi qaralmish joyini egallab so'zning qaytadan takrorlanishining oldini olib tushuntirish shaklini qisqartmoqdadir.

Qarashlilik Olmoshi va Ko'plik Qo'shimchasi

Qarashlilik olmoshi -ki ko'plik qo'shimchalaridan oldin yoki keyin qo'llaniladi:

sizlerin**ki**,	dostların**ki**,	komşuların**ki**
sizin**ki**ler	dostların**ki**ler	komşuların**ki**ler

Ko'plik qo'shimchalari *-lar (-ler), -ki* olmoshidan keyin kelganda, -ki olmoshi ko'plik ma'nosiga ega bo'ladi.

Egalik Qo'shimchasi (Olmoshi): -ım, -ın,-ı, -ımız,-ınız, -ları

Ba'zi tilshunoslar egalik qo'shimchalarini ham olmosh turlari ichiga kiritib, kishilik olmoshlari bilan hosil qilingan qaratuvchi vazifasidagi birikmalarga qo'shilgan egalik qo'shimchalarini egalik olmoshi deb hisoblamoqdadir.

Benim	odam
Senin	odan
Onun	odası

Bizim	odamız
Sizin	odanız
Onların	odaları

Bir so'z turkumining olmosh bo'lib hisoblanishi uchun otlarning yoki boshqa olmoshlarning joyini egallamog'i kerak bo'ladi. Kishilik olmoshlari bilan hosil qilingan so'z birikmasida qaratuvchi aytilmasa, qaralmishga qo'shiluvchi egalik qo'shimchasi egalik olmoshi bo'lishi mumkin:

Benim odam temiz. → Odam temiz.

İkkinchi gapdagi *benim* so'zi aytilmaganligi uchun *-ım* egalik qo'shimchasi bu so'zning vazifasini bajarib egalik olmoshini hosil qilmoqda.

OLMOSHLİ BİRİKMA *(Tr. adıl tamlaması; İng. noun phrase; Germ. attributiver Genitiv; Fr. adjectif possessif)*

Olmoshlarning otlar bilan o'zaro bir oraga kelib olmoshlarning qaratqichli birikmasini hosil qiladi. Bu so'z birikmasi qarathichli birikmaga o'xshaydi. Olmoshli birikmalarda qaratuvchi olmoshdan tashkil topadi:

benim *kalemim,* ***senin*** *kalemin,* ***onun*** *kalemi;* ***kendi*** *kalemim,* ***kendi*** *kalemin,* ***kendi*** *kalemi...* kabi.

Olmoshli birikma egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Egalik qo'shimchalari tanglay garmoniyasi quroliga rioya qiladi. Quyidagi jadvalda kishilik olmoshlari bilan qurilgan olmoshli-birikmalariga ba'zi misollar keltirilgandir:

Olmoshli Birikma ve Tanglay Garmoniyasi

Ben**im**	araba**m**	ev**im**	okul**um**	otobüs**üm**
Sen**in**	araba**n**	ev**in**	okul**un**	otobüs**ün**
O**nun**	araba**sı**	ev**i**	okul**u**	otobüs**ü**
Biz**im**	araba**mız**	ev**imiz**	okul**umuz**	otobüs**ümüz**
Siz**in**	araba**nız**	ev**iniz**	okul**unuz**	otobüs**ünüz**
Onlar**ın**	araba**ları**	ev**leri**	okul**ları**	otobüs**leri**

Olmoshli birikmalarda umuman *ben* ve *biz* olmoshlaridan faydalanilmaydi:

Benim evim → evim ; bizim evimiz → evimiz.

Bizim ev**imizi** boyattık. → Ev**imizi** boyattık.

Benim başım ağrıyor. → Başım ağrıyor.

Senin anne**n** geldi mi? → Anne**n** geldi mi?

Barcha olmoshlar olmoshli-birikma hosil qiladi:

Bunun arabası var.

Onun evi güzeldir.

Kendi evimize gittik.

Kendilerinin arabasına bindiler.

Kimlerin kitabını okuyorsun?

Hangi yazarları beğeniyorsun?

Kimi insanlar çok okuyorlar.

Hiç kimsenin malında gözümüz yok.

Olmoshli birikmalar kelishik qo'shimchalari bilan turlanib keladi:

benim evimi, benim evime, benim evimde, benim evimden, benim evimin... kabi.

OLMOSHLAR VA TENGLİK QO'SHİMCHASİ

Tenglik qo'shimchalari umuman kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlari bilan birga ishlatilib shaxsga nisbatan yaqinlashish ma'nosini bildiradi. Tenglik qo'shimchalari ko'pincha ko'rsatish olmoshlari bilan qo'llaniladi. Quyidagi na'munalarda ham tenglik qo'shimchasining olmoshlar bilan birga qo'llanilish shakli ko'rsatilmoqda:

Kishilik Olmoshi:	**So'roq Olmoshi:**
Bence bu oda çok güzel.	
Bizce bu para yeterli.	**Kimce** sakınca yok?
Onlarca bu işte sorun yok.	**Nece** konuşuyorsun?

Ko'rsatish Olmoshi:	**O'zlik Olmoshi:**
Bunca insan var.	Erol'a bakarsan **kendince** bizi suçluyor.
Şunca yıldır arkadaşız.	Benim de **kendimce** fikirlerim var.
Onca işim varken partiye gelemem.	**Kendilerince** haklılar ama durum çok farklı.



UNUTMANG!

OLMOSHLAR

Ot bo'lmagan holda otlarning o'rnida qo'llaniluvchi so'zlarga olmosh deyiladi. Olmoshlar yetti turga bo'linadi:

Kishilik olmoshlari, shaxs otlari o'rnida qo'llaniladi:

ben, sen, o, biz, siz, onlar

Ko'rsatish olmoshlari, otlarini bildirmasdan borliqlarni ko'rsatuvchi, ifodalovchi so'zlardir:

bu, şu, o, bunlar, şunlar, onlar

Ko'rsatish sifati boshidagi ot olinishi bilan ko'rsatish sifati, ko'rsatish olmoshiga aylanadi.

sifat		**olmosh**	
Bu	adam ressamdır.	Bu	ressamdır.
O	çocuk çok çalışkandır.	O	çok çalışkandır.

So'roq olmoshlari, otlarning o'rnini so'roq shakli bilan egallaydi:

kim, kimler, ne, neler, kaç, hangi

O'zlik olmoshlari, kishilik olmoshi yoki otning ma'nosini oydinlashtiradi. Qilingan ishning qilganga qaytishini ta'kidlab keladi:

kendim, kendin, kendi, kendimiz, kendiniz, kendileri... kabi.

Bo'lishsizlik olmoshlari, noma'lum shaxslarning, jonli va jonsiz borliqlarning yoki mavhum otlarning o'rnini egallab inkor ma'nosini bildiradi:

biri, birisi, kimi, kimisi, herkes, kimse, hiç kimse, çoğu, hepsi, bazısı, birkaçı, birazı, birçoğu, başka, herbiri, insan, adam, şey... kabi.

Qarashlilik olmoshi (-ki) unli uyg'unligi quroliga bo'ysinmaydi faqat *dünkü* va *bugünkü* so'zlaridan keyin -ki qarashlilik olmoshi, -ku shakliga o'zgaradi:

Benim arabam boyanmayacak, Esen Hanımın**ki** boyanacak.

-ki qarashlilik olmoshi unli uyg'unligi quroliga bo'ysinmaydi.

okulun**ki**, arabanın**ki**, horozun**ki**, ütünün**ki**... kabi.

Ba'zan *ü* tovushidan keyin kelgan qarashlilik -ki olmoshi ikki farqli shakilda aytiladi.

Gönül'ün**kü**	>	Gönül'ün**ki**
otobüsün**kü**	>	otobüsün**ki**
ütünün**kü**	>	ütünün**ki**

Egalik qo'shimchasi (olmoshi): -im, -im, -i, -imiz, -imiz, -leri

Ba'zi tilshunoslarga ko'ra egalik qo'shimchalarini ham olmosh turlari ichiga kiritilmog'i kerak. Bu qarashga ko'ra kishilik olmoshlari bilan hosil qilingan qaratuvchi vazifasidagi birikmalarda, qaratuvchiga qo'shilgan egalik qo'shimchalari egalik olmoshlari deb hisoblanmoqda.

Benim kitab**ım**.	Bizim kitab**ımız**.
Senin kitab**ın**.	Sizin kitab**ınız**.
Onun kitab**ı**.	Onların kitap**ları**.

Bir so'z turkumining olmosh bo'lib hisoblanishi uchun otlarning yoki boshqa olmoshlarning o'rnini egallashi kerak bo'ladi. Kishilik olmoshlari bilan hosil qilingan so'z birikmasida qaratuvchi aytilmasa, qaralmishga qo'shiluvchi egalik qo'shimohasi egalik olmoshi bo'lishi mumkin:

İkkinchi gapdagi **benim** so'zi aytilmaganligi uchun **-ım** egalik qo'shimchasi bu so'zning vazifasini bajarib egalik olmoshini hosil qilmoqda.

Benim kitabımı ver. → Kitab**ım**ı ver.

Olmoshli-birikma, olmoshlar bilan otlar o'zaro bir oraga kelib olmoshli birikmani hosil qiladi:

benim arabam, onların evi, sizlerin okulu, kimin arabası, hangi adam... kabi.

Olmoshlar va Tenglik Qo'shimchasi

Tenglik qo'shimchasi umuman kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlari bilan birga ishlatilib shaxsga nisbatan yaqinlashish ma'nosini bildiradi:

Onca işim varken partiye gelemem.

Kendince Ali Bey de haklı.

RAVİSH

(Tr. belirteçler*; İng. adverbs; Germ. Adverbien; Fr. adverbes)

Fe'l, sifat ve boshqa ravishlardan oldin kelgan holda harakat ve holatning belgisini shuningdek belgining belgisini bildirib kelgan so'zlarga ravish deyiladi. Ravishlar o'zidan oldin kelgan so'zlarning ma'nosini payt, holat, o'lchov, sifat va so'roq jihatidan o'zgartirishga uchratadi.

Turkchada juda ko'p sozlar ravish sifatida qo'llaniladi. Bu so'zlarning ba'zilari esa quyidagilardir:

hemen, şimdi, çok, az çok, en çok, biraz, son derece, sabaha karşı, akşama doğru, önce, sonra, çabuk, hızlı, yavaş, ileri, geri, birdenbire, ansızın... kabi.

Ravishlar ma'no va vazifasi jihatidan besh guruhga bo'linadi:

* **Payt ravishi**
* **O'rin ravishi**
* **Miqdor-daraja ravishi**
* **Holat ravishi**
* **So'roq ravishi**

PAYT RAVİSHLARİ *(Tr. zaman belirteçleri; İng. adverbs of time; Germ. Adverb der Zeit; Fr. adverbes de temps)*

Harakat va holatning bajarilish paytini bildirishga xizmat qiluvchi so'zlardir:

Hakan **dün akşam** geldi.

Hamdi Bey **şimdi** gitti.

Orhan **yarın** gelecek.

Payt ravishi vazifasini bajaruvchi eng ko'p ishlatiladigan so'zlar quyidagilardir:

dün, bugün, şimdi, yarın, eskiden, demin, önce, sonra, yazın, kışın, geçen yıl, gelecek yıl, akşam, sabah, öğleden sonra, gece, gündüz, sabahları, günlerce, aylarca, yıllarca... kabi.

Gapdagi ravishlarni aniqlash uchun *ne zaman, ne zamana kadar, ne zamandan beri* kabi savollarni beramiz:

Ne zaman?

Hakan **ne zaman** geldi?	Hakan **dün gece** geldi.
Hasan okula **ne zaman** gidiyor?	Hasan okula **sabahları** gidiyor.
Ankara'ya **ne zaman** geldiniz?	Ankara'ya **geçen yıl** geldik.
İzmir'e **ne zaman** gideceksiniz?	İzmir'e **gelecek yıl** gideceğiz.
Üniversiteyi **ne zaman** bitirdiniz?	**Geçen yıl** bitirdim.
İşe **ne zaman** başladınız?	**İki yıl** önce başladım.
Tatile **ne zaman** çıkacaksınız?	Tatile **yazın** çıkacağız.
Ne zaman kayak yapacaksınız?	Uludağ'da **kışın** kayak yapacağız.

Ne zamana kadar?

Eve **ne zamana** kadar dönersin?	**Akşama kadar** dönerim.
Arabayı **ne zamana** kadar tamir edersiniz?	**İki saate kadar** tamir ederim.
Toplantı **ne zamana** kadar biter?	**Üç saate kadar** biter.
Ne zamana kadar çalışacaksın?	**Akşama kadar** çalışacağım.
Ne zamana kadar evleneceksin?	Bu yıl **sonuna kadar** evleneceğim.

Ne zamana kadar so'roqlari ba'zan ne kadar so'rog'i shaklida qisqacha qilib aytiladi:

Ne kadar?

Toplantı **ne kadar** sürer?	Toplantı **iki saat** sürer.
İstanbul'da **ne kadar** kalacaksın?	İstanbul'da **bir hafta** kalacağım.
Yolculuk **ne kadar** sürer?	Yolculuk **üç saat** sürer.
Sınav **ne kadar** sürer?	Sınav **iki saat** sürer.
Burada **ne kadar** çalışacaksın?	Burada **altı ay** çalışacağım.
Ehliyet kursu **ne kadar** sürecek?	Yaklaşık **iki ay** sürecek.

Ne zamandan beri?

Ne zamandan beri İzmir'de kalıyorsun?	**Beş yıldan beri** İzmir'de kalıyorum.
Ne zamandan beri buradasın?	**İki saatten beri** buradayım.
Ne zamandan beri üniversitede çalışıyorsun?	**Beş aydan beri** üniversitede çalışıyorum.
Ne zamandan beri hastasın?	**İki haftadan** beri hastayım.
Ne zamandan beri sinemaya gitmiyorsun?	**Üç aydan beri** sinemaya gitmiyorum.
Ne zamandan beri Amerika'dasın?	**Çocukluğumdan beri** Amerika'dayım.
Okula **ne zamandan beri** gidiyorsun?	Okula **yedi aydan beri** gidiyorum.
Ne zamandan beri spor yapıyorsun?	**Yedi yaşımdan beri** spor yapıyorum.
Ne zamandan beri politika ile ilgileniyorsun?	**Sekiz aydan beri** politika ile ilgileniyorum.
Ne zamandan beri evlisin?	**On bir yıldan beri** evliyim.

Ne zamandır?

Ne zamandır hastasın?	**Bir haftadır** hastayım.
Ne zamandır ailenle görüşmüyorsun?	**Uzun yıllardır** ailemle görüşmüyorum.

O'RİN RAVİSHİ *(Tr. yer ve yön belirteçleri; İng. adverbs of place; Germ. Lokativ- und Ablativadeverbien; Fr. adverbes de lieu)*

Harakat va holatning bajarilish o'rnini va harakat yo'nalgan tomonni bildiradi. O'rin ravishiga kiruvchi so'zlardan ba'zilari quyidagilardir:

ileri, geri, aşağı, yukarı, ön, arka, sağ, sol, alt, üst, bura, şura, ora... kabi.

O'rin ravishlari umuman kelishiklarda turlanib keladi. Gapda o'rin ravishini topish uchun nereye, nerede, nereden, neresi savollari beriladi. Faqat so'roq sifatida ishlatilgan so'zlar fe'llardan oldin keladigan bo'lsa ravish vazifasini bajaradi: *Nereden geliyorsun? Nerede oturuyorsun?, Nereye gidiyorsun?...* kabi.

Nereye?

Hakan **nereye** girdi?	Hakan **içeri** girdi.
Müdür **nereye** bakıyor?	Müdür **ileriye** bakıyor.
Ayşen **nereye** çıkıyor?	Ayşen **yukarı** çıkıyor.
Araba **nereye** gidiyor?	Araba **geriye** gidiyor.
Paketi **nereye** bırakayım?	Paketi **aşağı** bırak.
Arabayı **nereye** park edeyim?	Arabayı **sağa** park et.

Nerede?

Hasan **nerede** oturuyor?	Hasan **dışarıda** oturuyor.
Otobüs **nerede** duruyor?	Otobüs **yanda** duruyor.
Turgut **nerede** bekliyor?	Turgut **ileride** bekliyor.
Fatma **nerede** ders çalışıyor?	Fatma **içeride** ders çalışıyor.
Canan **nerede** kitap okuyor?	Canan **dışarıda** kitap okuyor.
Çocuk **nerede** oyun oynuyor?	Çocuk **arkada** oyun oynuyor.

Nereden?

Serap **nereden** geliyor?	Serap **yukarıdan** geliyor.
Okula **nereden** gidelim?	Okula **buradan** gidelim.
Hasan **nereden** iniyor?	Hasan **yukarıdan** iniyor.
Otobüs **nereden** geçti?	Otobüs **buradan** geçti.
Eve **nereden** gideyim?	Eve **sağdan** git.
Postahaneye **nereden** gidilir?	Postahaneye **soldan** gidilir.

O'rin ravishi egalik qo'shimchalarida turlanadi:

Ahmet **sağımda** oturuyor.

Çocuklar **önümde** gidiyordu.

Kelebekler **üstümde** uçuşuyor.

Kalabalıkta **önümde** ve **arkamda** pek çok insan vardı.

O'rin ravishi qaratqichli birikmalar hosil qiladi:

Arabayı **evin önüne** park etmeyiniz.

Köpek **masanın altında** uyuyor.

Öğrenciler **okulun arkasında** oynuyor.

Kuşlar **kentin üstünden** uçuyor.

MİQDOR-DARAJA RAVİSHİ *(Tr. ölçü belirteçleri; İng. adverbs of quantity; Germ. Quantitätsadverbien, ektive; Fr. adverbes de quantité)*

Harakat va holatning miqdori-belgisini yoki belgining ortiqligini bildiradi. Miqdor-daraja ravishlari asosan shu so'zlar bilan birga ishlatiladi:

az, çok, pek, en, kadar, daha, en çok, en az, pek çok, pek az, biraz, fazla, hep, hepten, kısmen, daha... kabi.

Bu so'zlar otlarga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi:

ravish : Hasan çok çalışıyor.

sifat : Okulda çok öğrenci var.

Miqdor-daraja ravishlari ozlik, ko'plik, tenglik, ustunlik, son, daraja, qiyoslashtirma kabi harakat va holatlarni ifodalab keladi. Bu ravishlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Çok çalıştım; ama patron bana **çok az** ücret verdi.

Bu ödevi yapmak için **sabaha kadar** çalıştım.

Çiçekler içinde **en çok** gülü severim.

Toplantıda bu konuyu **pek az** konuştuk.

Böyle boş otururşak, savaşı **hepten** kaybederiz.

Bana **biraz** su verir misin?

Bu adamı **pek** beğenmedim.

Dünkü maçta **pek güzel** oynadın.

Dikkat edersen resimleri **daha güzel** yapabilirsin.

Konuyu **daha kısa** anlat.

HOLAT RAVİSHİ *(Tr. Niteleme ve durum belirteçleri; İng. adverbs of quality; Germ. Modaladverbien; Fr. adverbes qualificatifs)*

Ish harakatning qay tarzda bajarilishini, yuz berish holatini bildiradi. Sifat darajalarini ifodalovchi so'zlar holat ravishi sifatida ham qo'llaniladi. Bu so'zlar otlarga bog'lanib sifatlovchi, fe'llarga bog'lanib ravishga aylanadi. Holat ravishlari o'z oralarida ko'p gina quyi bo'limlarga ayriladi. Faqat biz batafsil tafsilotiga kirmasdan misollar keltirish bilan cheklanishni to'g'ri deb hisoblaymiz:

Bu işi **böyle** yapınız.

Çocuklar **bağırarak** koştular.

Okula **geç** kaldık, **hızlı** yürüyünüz.

Siz akıllı insansınız, **aptalca** konuşmayınız.

Bu işin aslını **mutlaka** öğreneceğim.

İkimiz arasındaki bu sırrı **kesinlikle** saklayacağım.

Bu adama **niçin** inanmıyorsun?

Bu ödevleri **birlikte** yapınız.

Yaşlı adam bu evde **yalnız** oturuyor.

Soğukta **çok fena** üşüdüm.

Çok seslendim, ama beni **yine** işitmedi.

Ben yokken **uslu uslu** oturun.

Bu konuda **çok kötü** düşünüyorsunuz.

Düşüncelerinizi bize **güzel** anlatıyorsunuz.

İkişer ikişer yürüyün.

SO'ROQ RAVİSHİ *(Tr. Soru belirteçleri; İng. interrogative adverbs; Germ. Interrogativadverbien; Fr. adverbes interrogatifs)*

Harakat va holatning bajarilish shaklini so'roqlab keladi. So'roq ravishlari asosan quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

ne, nasıl, nereden, niçin, neden, hani, ne biçim, ne kadar... kabi.

Sizce bu durumda **ne** yapılır?

Bunca yolu yürüyerek **nasıl** gideriz?

Bu adam, bu kadar parayı **nereden** kazanıyor?

Bu akşam **niçin** bizde kalmıyorsun?

Bu işte benim hiçbir suçum yok, **neden** bana kızıyorsun?

Hani dün okulda buluşacaktık!

Burada **ne kadar** kalacaksınız?

UNUTMANG!

RAVİSH

Ravishlar fe'l, sifat va boshqa ravishlardan oldin kelib, ularning ma'nosini o'zgartiradi. Vazifalari jihatidan ravishlar besh guruhga bo'linadi:

Payt Ravishi: Harakat va holatlarning bajarilish paytini bildiradi. Payt ravishlari shu savollarga javob beradi:

Okulu **ne zaman** bitirdin?	Okulu **geçen yıl** bitirdim.
Eve **ne zamana** kadar dönersin?	Eve **akşama kadar** dönerim.
Yolculuk **ne kadar** sürer?	Yolculuk **iki saat** sürer.

O'rin Ravishi: Harakat va holatning bajarilish o'rnini va harakat yo'nalgan tomonni bildiradi. O'rin ravishlari quyidagi savollarga javob beradi:

Hakan **nereye** gitti?	Hakan **sağa** gitti.
Ayşe **nerede** duruyor?	Ayşe **dışarıda** duruyor.
Okula **nereden** gidelim?	Okula **buradan** gidelim.

Miqdor-Daraja Ravishi: Harakat va holatlarning miqdori-belgisini yoki belgining ortiqligini bildiriladi:

Bu çocuğu **çok** beğendim.
Dün **sabaha kadar** çalıştık.

Miqdor-daraja ravishlari otlar bilan bog'lanib sifatlovchi vazifasini bajaradi:

ravish : Engin **çok** çalışıyor.
sifat : Okulda **çok** öğrenci var.

Holat Ravishi: İsh-harakatning qay tarzda bajarilishini va sodir bo'lish holatini bildiradi:

Araba **çok hızlı** gidiyordu.
Bugün toplantıda **çok güzel** konuştunuz.

Holat ravishi otlar bilan bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi:

ravish : Adam **kötü** düştü.
sifat : **Kötü** adamları sevmem.

So'roq Ravishi: İsh-harakat bajarilish shaklini so'roqlab keladi:

Bu adam **ne biçim** konuşuyor?
İstanbul'da **ne kadar** kalacaksınız?

KO'MAKCHİ

(Tr. ilgeçler; İng. prepositions; Germ. Präpositionen; Fr. postposition, particules)

Ko'makchi o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi turli tuman munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Umuman ko'makchi sifatida qo'llanilgan so'zlar quyidagilardir:

gibi, için, dolayı, değin, göre, kadar, üzere... kabilar.

Ko'makchi sifatida ishlatilgan bu so'zlardan tashqari sifat, ravish va ot sifatida qo'llanilgan ko'pgina so'zlar ham ko'makchi bo'lib xizmat qiladi. Bulardan ba'zilari *Aşağı, yukarı, sonra, karşı, öte, doğru, başka, alt, üst, yan, iç, dış* kabi so'zlardir. Bu so'zlar ko'makchi bo'lmasa ham ba'zan gapda ko'makchi vazifasini bajarib keladi. Ko'makchilarning gap ichida ishlatilishiga ba'zi misollarlar keltiramiz:

gibi

Bu ko'makchilar asosan o'xshatishlarda ishlatiladi.

Yaşar Doğu, aslan **gibi** kuvvetli bir adamdı.

Leyla, melek **gibi** güzel bir kızdı.

Senin **gibi** iyi bir adam görmedim.

Ben, köpek **gibi** vefalı hayvanları severim.

gibi ko'makchisining joyiga ba'zan *-si, -ca, -casina* kabi sifatlovchi qo'shimchalar ishlatiladi:

Bence yemek biraz acımsı.	→	Bence yemek acı **gibi.**
Sana kardeşçe davrandım.	→	Sana kardeş **gibi** davrandım.
Çok bilirmişçesine konuştu.	→	Çok bilirmiş **gibi** konuştu.

kadar

Bu ko'makchi asosan o'xshatish, chog'ishtirish, yo'nalish va chegara ma'nosini bildiradi:

Senin **kadar** güzel bir kadın görmedim.
Fatma Hanım **kadar** cimri biri zor bulunur.
Bodrum'dan Antalya'ya **kadar** her yeri gezdim.
İstersen eve **kadar** birlikte yürüyelim.

kadar ko'makchisi ba'zan kabi ko'makchisi bilan bir xil ma'noda ishlatiladi:

melek gibi güzel kız	→	melek kadar güzel kız
kar gibi beyaz taşlar	→	kar kadar beyaz taşlar
aslan gibi kuvvetli adam	→	aslan kadar kuvvetli adam

için

Bu ko'makchi asosan atalganlik, maqsad, sabab va xoslikni bildiradi:

Senin **için** her şeyi yaparım.

Bu şiirleri çok sevdiğim bir kadın **için** yazdım.

Bazı insanlar sadece para **için** çalışır.

Sağlığımız **için** dengeli beslenmeliyiz.

ile

Bu ko'makchi asosan birgaliktalikni, vositachilikni, sababiyatni, biriktiruvchanlik va boshqa ko'pgina ma'nolarda ishlatiladi. Ham ko'makchi hamda bog'lovchi sifatida qo'llaniladi. Ko'makchi sifatida kelganda so'zlar arasida aloqa o'rnatadi:

Bu paketleri posta **ile** yollayınız.

İstanbul'a otobüs **ile** gittik.

İnsan çok para **ile** her zaman mutlu olmaz.

Sınavı büyük bir başarı **ile** kazandık.

ile so'zi, ve ma'nosida ishlatilganda bog'lovchi vazifasini bajarib keladi:

bog'lovchi	**bog'lovchi**
Kalem **ile** silgi aldım.	Kalem **ve** silgi aldım.
Ayşen **ile** Ali pikniğe gittiler.	Ayşen **ve** Ali pikniğe gittiler.
Çanta **ile** bavulu bana ver.	Çanta **ve** bavulu bana ver.

ile so'zining niçin bog'lovchisi vazifasini bajarib kelishini to'g'ri tushuna olish uchun bu vaziyatga ma'no jihatidan qarash kerak.

Yuqorida keltirilgan misollardagi gaplarning har biri bir xil gapdek ko'rinmoqtadir. Biroq ma'no jihatidan qaraydigan bo'lsak har gap ikki gapning birlashishidan tashkil topmoqtadir:

Ayşen pikniğe gitti. Ali pikniğe gitti.	}	Ayşen ile Ali pikniğe gittiler. Ayşen ve Ali pikniğe gittiler.
Kalem aldım. Silgi aldım.	}	Kalem ile silgi aldım. Kalem ve silgi aldım.
Çantayı bana ver. Bavulu bana ver.	}	Çanta ile bavulu bana ver. Çanta ve bavulu bana ver.

Quyidagi gaplarda *ile* so'zi, *ve* so'zi vazifasini tashimaydi. Bu yuzdan ko'makchi so'z hisoblanadi:

İzmir'e uçak **ile** gittim.

Bu resimleri yağlı boya **ile** yaptık.

Bugün hava güzel. Dışarı gömlek **ile** çıkabilirsin.

ile so'zi ba'zan o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shilib yoziladi:

-la (-le)

İşe otobüs **ile** gidiyorum. → İşe otobüs**le** gidiyorum.

Sabahları jilet **ile** traş oluyorum. → Sabahları jilet**le** traş oluyorum.

Mektubu uçak **ile** yolla. → Mektubu uçak**la** yolla.

ile ko'makchisidan oldin kelgan so'zning oxirida unli bor bo'lsa, o'rtaga y undoshi qo'yiladi:

-yla (-yle)

Okula araba**yla** gidelim.

Önümüzdeki hafta Ayşe'**yle** evleniyorum.

Mektubu kargo**yla** değil, posta**yla** yolla.

-lı qo'shimchasi ko'pincha *ile* bog'lovchisi bilan bir xil ma'noni tashib keladi. Bu sabab yuzidan *-lı* qo'shimchasi ba'zan ile ko'makchisining joyiga ishlatiladi:

Köye at **ile** gittik. → Köye at**lı** gittik.

Evden şemsiye **ile** çıktım. → Evden şemsiye**li** çıktım.

Kışın palto **ile** gezeriz. → Kışın palto**lu** gezeriz.

Umuman *-li* qo'shimchasining zid ma'noli so'zlari *-sız* qo'shimchasini qo'shgan holda yasaladi:

Köye at**lı** gittik. → Köye at**sız** gittik.

Evden şemsiye**li** çıktım. → Evden şemsiye**siz** çıktım.

Kışın palto**lu** gezeriz. → Kışın palto**suz** gezeriz.

göre

Bu ko'makchi sabab, o'xshatish va qarshilashtirish ma'nolarini bildiradi asosan chiqish kelishigidagi so'z bilan keladi:

Bana **göre** bu elbise çok güzel.

Nurşen'e **göre** bu kitap iki ayda bitecek.

Halil'e **göre** Gizem daha çalışkan bir öğrenci.
İngilizlere **göre** Türkiye bir tatil cenneti.
Öğrendiğime **göre** senin annen doktormuş.

göre ko'makchisi o'rniga ba'zan tenglik qo'shimchasi bo'lgan *-ca (-ce)* qo'shimchalari ishlatiladi:

Bana **göre** bu elbise çok güzel.	→	Ben**ce** bu elbise çok güzel.
Sana **göre** bu araba pahalı mı?	→	Sen**ce** bu araba pahalı mı?
Bu yıl gönlüme **göre** bir tatil yaptım.	→	Bu yıl gönlüm**ce** bir tatil yaptım.
Benim fikrime **göre** bu işi yapabiliriz.	→	Benim fikrim**ce** bu işi yapabiliriz.

üzere (üzre)

Bu ko'makchi asosan için ko'makchisi kabi sabab va maqsad ma'nolarini bildiradi:

Anneme yollamak **üzere** bir paket hazırladım.
Tatile çıkmak **üzere** hazırlıklarımı tamamladım.
Daha önce anlaştığımız **üzere** bu sorunu hallettik.
Sana vermek **üzere** yüz milyon lira biriktirdim.

Turkchada so'zlar gapdagi o'rinlariga qarab ko'pincha birdan ortiq vazifani bajarib keladi. Bu sabab yuzidan ushbu ko'makchi so'zlar ravish, sifat va ot sifatida ham ishlatiladi:

ko'makchi	: Aslan **gibi** adam.
ravish	: Aslan **gibi** dövüştüler.
ko'makchi	: Aslan **kadar** kuvvetli.
ravish	: Seni sabaha **kadar** bekledim.

-ile, -siz, -ca ko'makchilari bilan hosil bo'lgan so'zlar ravish, sifat va ot sifatida ham ishlatiladi:

ravish	:	Bu hastalıktan **zamanla** kurtulursunuz.
		Bu yoksul çocuklar da **insanca** yaşamalıdır.

sifat	:	**Yaşlı** kadının parası yokmuş.
		Sevimsiz insanları hiç sevmem.
ot	:	Dün köye bir **atlı** geldi.
		Ülkede binlerce **işsiz** var.

KO'MAKCHİLAR VA KELİSHİK QO'SHİMCHALARİ

Ko'makchilar kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalari bilan birga ishlatilmaydi. Bu qo'shimchalarni olgan ko'makchilar ot vazifasini bajaradi. Ko'makchilar doimo o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin keladi. Bu holatda har bir ko'makchi o'zidan oldin keluvchi so'zning ma'lum bir kelishik qo'shimchasi olishiga imkon yaratadi. Bu jihati bilan ko'makchilar to'rt bo'limga bo'linadi:

* **Bosh kelishik ko'makchisi**
* **Jo'nalish kelishigi ko'makchisi**
* **Chiqish kelishigi ko'makchisi**
* **Qaratqichli ko'makchi**

Bosh kelishik ko'makchisi

Bu ko'makchilardan oldin kelgan so'zlar bosh kelishik shaklida keladi:

Halil Bey **çocuk gibi** bir adamdır.

Kedi için et aldım.

Hasan **fil kadar** güçlüdür.

Pikniğe **bisiklet ile** gidelim.

Bosh kelishikdagi so'z bilan ishlatilgan bu so'zlar ba'zan olmoshlar bilan bog'lanib qaratqichli holat hosil qilinadi:

Bu işi **benim için** yapmalısın.

Sizin kadar dürüst birini görmedim.

Bizim gibi insanlar çok azaldı.

Jo'nalish kelishigi ko'makchisi

Bu ko'makchilar o'zlaridan oldin keluvchi so'zga *-a (-e)* jo'nalish kelishik qo'shimchasi bog'lanishi bilan yasaladi:

Bana göre bu film çok güzel.

Bize göre İnci Hanımın bu işte hiçbir suçu yok.

Bugün **akşama kadar** çalıştık.

Güneşe karşı bakamıyorum.

Chiqish Kelishigi Ko'makchisi

Bu ko'makchilar o'zlaridan oldin keluvchi so'zga *-dan (-den)* chiqish kelishigi qo'shimchasi bog'lanishi bilan yasaladi:

Kahvaltıdan önce sigara içmemelisin.

Toplantıdan sonra sinemaya gidelim.

Hastalıktan dolayı bu yaz tatile çıkamadık.

Pencereden dışarı baktık.

Senden başka beni anlayan kimse yok.

Qaratqichli ko'makchi

Bu ko'makchilar o'zlaridan oldin keluvchi so'zga qaratqichli kelishik qo'shimchasi bog'lanishi bilan yasaladi:

Bu yemeği **sizin için** yaptım.

Bu dünyada **benim kadar** aptal insan olamaz.

Bizim gibi yaşlı insanlar sağlığına dikkat etmelidir.

Toplantıya **kimin ile** (kiminle) gittiniz?

Bunun gibi adamların değerini bilmemiz gerek.

Onun kadar bilgili bir insan görmedim.

Onun gibi dürüst birini bulmak çok zor.



UNUTMANG!

KO'MAKCHİLAR

O'zlari bilan bog'lanib kelgan so'zlardan keyin kelib so'zlar orasida turli-tuman munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ko'makchi sifatida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar quyidagilardir:

gibi : Halil, aslan **gibi** kuvvetli bir gençtir.

kadar : Senin **kadar** güzel bir kız görmedim.

için : Sağlığımız **için** sigara içmemeliyiz.

ile : Okula bisiklet **ile** gidiyorum.

göre : Bana **göre** sen çok iyi bir insansın.

üzere : Tatile çıkmak **üzere** bütün hazırlıklarımı tamamladım.

Ko'makchilar va Kelishik Qo'shimchalari

Ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan kelishik qo'shimchalari jihatidan bog'lanib keladi. Bu jihatdan ko'makchilar to'rtga bo'linadi:

Bosh kelishik ko'makchisi	:	gibi, için, kadar, ile
Jo'nalish kelishik ko'makchisi	:	göre, kadar, karşı
Chiqish kelishik ko'makchisi	:	önce, sonra, dolayı, başka
Qaratqichli ko'makchisi	:	için, kadar, gibi, ile

BOG‘LOVCHİLAR

(Tr. bağlaçlar; İng. conjunctions; Germ. konjunktionen; Fr. conjuctions)

Gap bo‘laklarini yoki qo‘shma gapning qismlarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlarga bog‘lovchilar deyiladi. Turkchaning grammatik shakli asosan qisqa gaplar bilan anglatishga uyg‘undir. Bu yuzdan bog‘lovchi sifatida qo‘llanilgan so‘zlar cheklangan bo‘lib ulardan ba‘zilari quyidagilardir:

ve, ama, çünkü, ya da, fakat, eğer, veya, lâkin, oysa, yahut, ancak, oysaki, veyahut, yalnız, halbuki... kabilar.

TUZİLİSHİ JİHATİDAN BOG‘LOVCHİLAR

Bog‘lovchilar shakli va tuzilishi jihatidan bir-biridan farqli turli xususiyatlarga ega. Ularni shu guruhlarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

Yakka Bog‘lovchilar: *ve, ile, de, dahi, ama, bile, eğer, lâkin, yani, meğer, hem* ... kabi.

Yasalgan Bog‘lovchilar: *üstelik, örneğin, gerçekten, açıkçası, kısacası, yoksa...* kabi.

Ergashtiruvchi Bog‘lovchilar: *öyleyse, oysa, neyse, kimbilir, veyahut, meğerse, nitekim* ... kabi.

Aniqlov Bog‘lovchisi: Qo‘shma gap tarkibida bunday bog‘lovchilar orqali munosabatga kirishgan gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo‘lib, mustaqil gapning biror bo‘lagini izohlab keladi. *-ki* bog‘lovchisi ana shunday juda ko‘p grammatik aloqalarni ko‘rsatadi. Aniqlov bog‘lovchisi o‘z ichida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) -ki bog‘lovchisi bilan qurilgan bog‘lovchilar:

oysaki, halbuki, mademki, sanki, şöyle ki, yeter ki, demek ki, farzet ki, tut ki, şu var ki, nerde kaldı ki, ne var ki, değil mi ki... kabi.

b) Qaratqichli shaklida qo'llanilgan bog'lovchilar:

Bunun için, bundan dolayı, bu yüzden, bu bakımdan, buna göre, görünüşe göre, o halde, şu halde, bundan başka, senin anlayacağın, sözün kısası, bununla birlikte... kabi.

c) Takrorlangan bog'lovchilar:

ne....ne, hem....hem, gerek.....gerek(se), ya....ya, olsun.....olsun, ama....ama, kâh....kâh, ister....ister(se) ... kabi.

Bu bog'lovchilardan ba'zilari Turkchaga xorijiy tillardan o'tgandir. Keyinchalik xorijiy tillardan kirib kelgan bog'lovchilar o'rniga Turkcha so'zlardan tuzilgan bog'lovchilar yasalgandir. Bu shakilda Turkcha va xorijiy so'zlardan tuzilgan ba'zi bog'lovchilar gapda bir xil vazifani bajaradi.

Ta'riflardan ham ma'lum bo'lganidek bog'lovchilar va ko'makchilar funktsiyasi jihatidan birbiriga juda o'xshab ketadi. İkkisi orasidagi muhim ayiruvchi xususiyat esa ravishlarning so'zlar, bog'lovchilarning esa yordamchi so'zlar, so'z turkumlari va gaplar orasida munosabat o'rnatishidir. Ba'zi so'zlar ham ko'makchi hamda bog'lovchi sifatida qo'llaniladi. Ko'plab tilshunoslar ko'makchi va bog'lovchi orasidagi farqni aniq ko'rsata olmaganlardir. Bu farqni yaqqol bir shakilda ko'rish uchun shu misollarni keltirishimiz mumkin:

Hasan, Ali ve Esen dün İzmir'e gittiler.

Ega qo'shimchasi

Bu misolda *Hasan, Ali* va *Esen* grammatik jihatdan teng huquqli so'zlardir. Bunday so'zlar *ve* bog'lovchisi bilan o'zaro bog'lanib keladi.

Az konuşun, çok dinleyin ve büyüklerinize karşı saygılı olun.

gap	gap	gap

Bu misolda *ve* bog'lovchisi gaplarni bir-biriga bog'lab keladi. Ko'makchi gaplarda ko'makchi gapdan ajratilgan vaqtda gapning ma'nosi buziladi. Bog'lovchilar gapdan ajratilganda esa gap ma'nosi buzilmaydi.

Engin okula bisiklet **ile** gitti.	Engin okula bisiklet ... gitti.	(ko'makchi)
Engin **ve** Ayşe okula gittiler.	Engin ... Ayşe okula gittiler.	(bog'lovchi)

Ko'makchi va bog'lovchi o'rtasidagi farqlar quyidagi misollarda yana ham yaqqol bir shakilda ko'rsatilmoqdadir.

ve

Ko'p ishlatilgan bir bog'lovchidir. Gap orasida turli funktsiyalarni bajarib keladi:

Ot, sifat, ravish kabi so'zlarni o'zaro bog'lab keladi:

Serpil Hanımın gözleri, saçları **ve** dudakları çok güzeldi.

Cahit Bey dürüst, namuslu **ve** iyi bir insandır.

Çocuklar evin önünde **ve** arkasında top oynuyordu.

İnsanlar başarıya ulaşmak istiyorlarsa, çalışkan, zeki, akıllı **ve** dürüst olmak zorundalar.

Gaplarni va ergash gaplarni o'zaro bog'lab keladi:

O gün eve çok yorgun geldi **ve** hemen kendini yatağa attı.

Derslerine çok iyi çalıştı **ve** sonunda başarıya ulaştı.

Yatmadan önce uzun süre gökyüzüne baktı **ve** sonra sessizce uyudu.

Çok çalışın, çok okuyun, çok düşünün **ve** söylediklerimi asla unutmayın.

Ödevlerinizi bu akşam yazın **ve** onları bana yarın getirin.

Bu konuda hiç çalışmayan **ve** bunu duymamış olan kişiyle işi yürütemem.

Ot, sifat va olmoshli so'z birikmalarini ifodalashda foydalaniladi:

Hasan'ın kalem **ve** defterleri sizde mi?

Anne **ve** baba sevgisi olmayan insanlara saygım yoktur.

Akıllı **ve** saygılı çocuklar daha başarılı olurlar.

Sizin **ve** bizim dünyalarımız birbirinden çok farklı.

Senin **ve** benim ortak yanlarımızı birleştirmemiz gerek.

Takrorlanib keluvchi so'zlarni ifodalashda foydalaniladi:

Günlerce **ve** günlerce hep o sevdiği insanı bekledi.

Bu yağmursuz günler, aylarca **ve** aylarca sürdü.

Yıllarca **ve** yıllarca hep bu mutlu anı bekledim.

ve, ile bog'lovchilari ba'zan bir xil ma'noda ishlatiladi:

Hasan **ve** Mehmet sinemaya gittiler.	Ben en çok ağaçları **ve** çiçekleri severim.
Hasan **ile** Mehmet sinemaya gittiler.	Ben en çok ağaçlar **ile** çiçekleri severim.

Bir xil vazifani bajargan ba'zi so'zlarni va gaplarni bir-biriga bog'lashda qo'shimchalarning va o'xshash vazifani bajaruvchi so'zlarning bir qismi foydalanilmaydi. Bu shakilda ma'noni ifodalashda jonlilik va harakatlilik bilan boyitiladi.

Babam her sabah odama girer**di**, beni uyandırır**dı**, yanaklarımdan öper**di** ve sonra işine gider**di**.

Babam her sabah odama girer, beni uyandırır, yanaklarımdan öper **ve** sonra işe giderdi.

Orhan'ın, Turgut'**un** ve Serpil'**in** annesi dün bize geldi.

Orhan, Turgut **ve** Serpil'in annesi dün bize geldi.

gece **eğitimi** ve gündüz **eğitimi**	→	gece ve gündüz eğitimi
ilk**öğretim** ve yüksek **öğretim**	→	ilk ve yüksek öğretim

ya da, veya, yahut, veyahut

Bu bog'lovchilar umuman bir xil ma'noda ishlatilmaydi. Bir xil vazifani bajaruvchi so'zlarni, so'z turkumlarini, gap va gap bo'laklarini bog'lab keladi.

ya da

Sana bugün **ya da** yarın mutlaka geleceğim.

Ahmet doktor **ya da** mühendis olmak istiyor.

Çay **ya da** kahve iç.

Bu önemli görevi Ali **ya da** Murat yapabilir.

Sana borcumu mark **ya da** dolar olarak ödeyeceğim.

veya: Zidlik, tanlov ma'nolarini ifodalaydi:

Pikniğe cumartesi **veya** pazar günü gideriz.

Bu yıl tatil için Marmaris'e **veya** Bodrum'a gitmek istiyorum.

Bu olaydan sonra üç **veya** dört yıl hapis cezası verirler.

Bu toplantıya sen **veya** ben, ikimizden birinin mutlaka katılması gerekiyor.

yahut: Biron bir fikirdan voz kechilganda eng torg'rirog'i, maqulrog'ini ifoda(la)shda qo'llaniladi:

Bu adamla üç gün içinde evleneceksin **yahut** ömür boyu bekâr kalacaksın.
Bu iş için borç alacaksın **yahut** ortak olacak zengin bir adam bulacaksın.
Bana yarın gel **yahut** birini gönder.

Alohida bo'lish bilan bir qatorda bir xil tur yoki qimmatga ega bo'lgan ikki narsani ifodalashda ikkinchi so'zning oldiga qo'yiladi:

Kavun **yahut** karpuz, ikisi de iyi!

Sen **yahut** o, hiç fark etmez.
Türk parası **yahut** dolar, ikisiyle de hesabı ödeyebilirsin.

veyahut

Artık derslerine iyi çalış **veyahut** okulu bırak, bir işe gir.

Bu televizyonu tamir ettirelim **veyahut** bir yenisini alalım.

Yazın hep birlikte İzmir'e **veyahut** İstanbul'a gidelim.

ama, fakat, lâkin, yalnız

Bu bog'lovchilar umuman bir xil ma'noda yoki bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashda qo'llaniladi. Ama, lâkın, fakat bog'lovchilari Arapchadan Turkchaga o'tgan bo'lib yalnız bog'lovchisi ega Turkchadir. Bu bog'lovchilar zid ma'noli gap va gap bo'laklarini bog'lab keladi, gaplar orasida sabab-natija munosabatlarini o'rnatadi.

ama: a) Sabab-natija munosabatlarini o'rnatib, biron-bir shartni o'rtaga qo'yadi:

Televizyon izlemek istiyorsun, **ama** ödevlerini yapmadın.

Güzel bir ev satın almak istiyorum, **ama** yeterli param yok.

Ben seni çok seviyorum, **ama** sen beni hiç sevmiyorsun.

Toplantıya zamanında gelmek istedim, **ama** trafik çok yoğundu.

b) Zid ma'nolarni ifodalab keladi:

Telefon ettim **ama** onu bulamadım.
Ankara yazın çok sıcak olur **ama** kışın da çok soğuk olur.
Ayşe çok çalışkan **ama** Orhan tembeldir.

c) Biron-bir shartni o'rtaga qo'yadi:

Para vereceğim **ama** hepsini harcama!
Seninle gelirim **ama** kimseye söylemeyeceksin.
Konsere bilet al **ama** ön sıralardan olsun.

fakat: a) Zid ma'nolarni ifodalab keladi.
b) Sabab-natija munosabatini o'rnatadi.

Seninle evlenmek istiyorum, **fakat** düğün yapacak param yok.
Üniversiteyi bitireceksin, **fakat** iş bulamayacaksın.
Çok iyi bir adamdı, **fakat** biraz tembeldi.
Bu kitabı tam üç kez okudum, **fakat** hiçbir şey anlamadım.
Arkadaşınla oyna, **fakat** asla kavga etme.

lâkin

Sana karşı hep iyi davrandım, **lâkin** sen bunu hiçbir zaman anlamadın.
İstediğim evi satın aldım, **lâkin** çok borçlandım.
Murat, derslerine çok çalışıyor, **lâkin** bir türlü başarılı olamıyor.
İstediğin parayı al, **lâkin** işi çabuk ve iyi yap.

ancak

Ama, fakat, lâkin bog'lovchilari bilan bir xil ma'noda ishlatiladi. Bundan tashqari o'zidan oldin kelgan so'zga yalnız, sadece, henüz ma'nolarini beradi. Biron-bir ishning eng yaqin yoki eng kech amalga oshishini tushuntirishda ishlatiladi.

Senin sözlerine hak veriyorum, **ancak** sen de beni bir kez dinlemelisin.
Çok çalışıyor, **ancak** bir türlü başarılı olamıyor.
Dün sergide çok güzel bir kadınla tanıştım, **ancak** onun kim olduğunu bilmiyorum.
Vaktin yok biliyorum, **ancak** yarın gelebilirsen çok iyi olur.
Seninle çok iyi anlaşabiliriz, **ancak** birbirimizin düşüncelerine saygılı olmamız gerek.
Onunla konuşabilirsin, **ancak** çok dikkatli ol.

Eve girdikten sonra **ancak** yemek yiyip bulaşık yıkadı.
Ancak onunla konuşurum.
Sınav **ancak** bitti, bu yüzden geç kaldım.
Oraya **ancak** yarın gelebilirim.
Ahmet **ancak** yarın Ankara'da olur.
Size **ancak** 6 aylık vize verebiliriz.

yalnız

Bu bog'lovchi ama, fakat, lâkin, ancak bog'lovchilari o'rniga ishlatiladi. Bundan tashqari biron bir fikirni yoki mavzuni yoritib unga e'tiborni qaratadi. Ba'zan bu so'z sifat va ravish vazifalarini ham bajarib keladi.

sifat : Kocası öldükten sonra, **yalnız** bir kadın olarak yaşadı.
ravish : Bu yıl tatile **yalnız** gidiyorum.

Bana başka birşey söylemedi, **yalnız** bu olaya çok üzülmüştü.
Pikniğe yarın gidelim, **yalnız** sen beni erken uyandır.
Bu sınavı başarırsın, **yalnız** çok çalışman gerek.
Sana borç verebilirim, **yalnız** en kısa zamanda bana geri ödemelisin.
Özgürce konuş, dilediğin gibi hareket et, **yalnız** terbiyeli ol!

Sadece ma'nosida ishlatiladi:
Yemekte **yalnız** çorba vardı.
Partiye herkes geldi **yalnız** o gelmedi.
Alışverişe gittim, **yalnız** meyve aldım.

çünkü, zira

Bu bog'lovchi biron-bir sababni bildiruvchi, mavzuni yorutuvchi gap bo'laklari va gaplarni o'zaro bog'lab keladi. Umuman birinchi gapdagi ifodalarni çünkü bog'lovchisi bilan boshlangan ikkinchi gap yoritib beradi. Zira bog'lovchisi çünkü bog'lovchisi bilan bir xil yoki yaqin ma'nolarda ishlatiladi.

çünkü

Dün size gelemedik, **çünkü** çok işimiz vardı.

Sınavları başaramadın, **çünkü** hiç çalışmadın.

Toplantıya geç kaldım, **çünkü** trafik çok yoğundu.

Ben araba alamam, **çünkü** param yok.

zira

Ödevleri yapamadım, **zira** dün hasta oldum.

Bu yaz tatile çıkamayacağız, **zira** paramız yok.

Sen bu gece bizde kalamazsın, **zira** evde fazla yatak yok.

Yarın size gelemem, **zira** hiç vaktim yok.

hatta

Bu bog'lovchi gaplarning ma'nosini kuchaytirgan holda o'zaro bog'lab üstelik, hem de, bile bog'lovchilari vazifasini ham bajarib keladi. Ba'zan bile bog'lovchisi bilan birgalikda ishlatiladi:

Ayşen araba kullanmayı öğrendi; **hatta** Ankara'dan İstanbul'a araba ile gitti.

O Ayşe'yi çok sever, **hatta** onun için ölür.

Niyazi sınavlarda çok başarılı oldu; **hatta** ödül bile aldı.

Bugünlerde çok fazla çalışıyorum; **hatta** hafta sonu tatil bile yapamıyorum.

üstelik

Bu bog'lovchi gaplarni kuchaytirgan holda o'zaro bog'lab keladi:

Dün çok yorgun ve hastaydım; **üstelik** bir de müdürden azar işittim.

Dün akşam yemekler çok güzeldi; **üstelik** güzel bir müzik vardı.

Muhammed çok saygısız bir öğrenci; **üstelik** tembel de.

Çok halsiz ve yorgunum; **üstelik** başım da ağrıyor.

Akşama kadar hiçbir iş yapmıyor; **üstelik** bir de maaşına zam istiyor.

Bu kentten ayrılamam; işim, annem, babam, **üstelik** nişanlım da burada.

bile

Bu bog'lovchi kutilmagan his-tuyg'u va voqealarni izohlovchi gap va gap bo'laklarini o'zaro bog'lab keladi.

Doğum günü partime doksan iki yaşındaki dedem **bile** katıldı.

Henüz dört yaşında; piyano çalıyor, şarkı söylüyor, yazı **bile** yazıyor.

Haydar Bey trafik kazasından sonra hafızasını yitirmiş, kendi kızını **bile** tanımıyor.

Herşey o kadar çabuk oldu ki, en yakın arkadaşlarımızı **bile** düğüne davet edemedik.

Bir hodisa yoki voqeaning qanchalik haqiqatni aks ettirmaganligini qiyoslashtirgan holda ifodalashda ishlatiladi.

O kadar yetenekli bir ressam ki, hocası **bile** onun kadar güzel resim yapamıyor.

Çok güzel Türkçe öğrenmiş, ben **bile** onun yazdığı kompozisyonları yazamam.

Ko'p vaqtdan beri, avvaldan ma'nosini beradi:

Okulunu bitirdi, evlendi **bile.**

Kış geldi **bile.**

Beni gördü ama tanımadı **bile.**

A- O filme mutlaka git.

B- Gittim **bile.**

Üstelik ma'nosini bildiradi:

Herşeyi yaptım. Yemek **bile** pişirdim.

İyileşti, işe **bile** başladı.

Shart-istak qo'shimchasi bilan birga ishlatilganda qarama-qarshi ma'noni beradi.

Çalışsa **bile** yapamaz.

Ona çok kızdım. Özür dilese **bile** onunla konuşmam.

Okusam **bile** anlayamam.

bile bog'lovchisi ba'zan de bog'lovchisining o'rnida keladi:

Partiye dedem **de** geldi.	Bu sınavı kazansa **da** işe giremez.
Partiye dedem **bile** geldi.	Bu sınavı kazansa **bile** işe giremez.

yani

Bu bog'lovchi bir mavzuni yaqqol va qisqacha ifodalashda ishlatiladi.

Elimizde yeterince para yok; **yani** biz bu evi satın alamayız.

Ben bu yaz doktora tezimi hazırlayacağım; **yani** bu yaz tatile çıkamayacağım.

Bu adam geçmişte hırsızlık yapmış; **yani** sabıkalı biri.

Yani bog'lovchisi ba'zan so'roq gapning boshida keladi:

Yani bunca olaydan sonra, sen bu adamın dürüst biri olduğunu mu savunuyorsun?

— Çok belim ağrıyor.

— **Yani** bu ağır bavulları taşımama yardımcı olamayacak mısın?

Yani siz bu sene tatile çıkmak istemiyor musunuz?

meğer, meğerse

Kutilmagan, taxmin qilmagan vaziyatlarni ifodalashda ishlatiladi.

Biz onu akıllı biri sanırdık; **meğer** adam delinin biriymiş.

Bana zengin biri olduğunu söylemişti; **meğerse** tek kuruşu bile yokmuş.

nitekim

Gap orasida va gap boshida ishlatiladi. Gaplarni qarshilashtirish, o'xshatish yoki mavzuni oydinlashtirish boqimidan o'zaro bog'lab keladi:

Bu adam dürüst biri değil; **nitekim** daha önce hırsızlık suçundan tutuklanmış.

Babam, bütün yaşamı boyunca sağlığına dikkat etti; **nitekim** tam doksan iki yıl yaşadı.

Onlara yağmur yağacağını önceden söylemiştim; **nitekim** bir saat sonra gerçekten yağmaya başladı.

örneğin, meselâ

Gaplarni o'zaro bog'lab mavzuni izohlash yoki farqli misollar keltirishda ishlatiladi.

Başarmak için çok çalışmak gerek. **Örneğin** Naim Süleymanoğlu çok çalıştı, halterde dünya şampiyonu oldu.

Kuduz hastalığından korunmak için hayvanlara dikkat etmek gerekir. **Örneğin** kuduz mikrobu özellikle köpek ve kedilerin ısırmasıyla insanlara geçer.

Öğretmenler doğru yolu göstermemeli, doğru yoldan bizzat gitmelidir. **Örneğin** ben sigara içmiyorum.

Örneğin so'zining joyiga ba'zan mesela so'zi qo'llaniladi.

Örneğin ben sigara içmiyorum. = **Meselâ** ben sigara içmiyorum.

rağmen, karşın

So'z turkumlarini va gaplarni o'zaro bog'lab qarama-qarshilik ma'nosini beradi.

Çok hasta olmama **rağmen**, bu toplantıya mutlaka katılacağım.

Babaannem 70 yaşında olmasına **rağmen** kendisini hala genç bir kız gibi hissettiğini söyler.

Yağmura **rağmen**, paltosuz, şemsiyesiz yola koyulduk.

Günlerce rejim yapmasına **rağmen** bir kilo bile veremedi.

Yolun kötü olmasına **rağmen**, arabayla ilerlemeye çalıştık.

Yolun kötü olmasına **karşın**, arabayla ilerlemeye çalıştık.

yoksa, aksi halde, aksi takdirde

So'z turkumlari va gaplarni xavf-xatar, tahdit tug'diruvchi holatlarga etiborni qaratish jihatidan o'zaro bog'laydi:

İnsan sağlığına dikkat etmeli; **yoksa** sonunda çok pişman olur.

Bana borcunu zamanında öde; **yoksa** seni mahkemeye veririm.

Kutilmagan, ishonish qiyin bo'lgan (qo'rquv, dahshat, hayajon, xursandchilik, xafagarchilik) holatlarni ifodalab keluvchi so'roq gaplarning boshida yoki oxirida keladi:

Ayşe bugün okula gelmedi. **Yoksa** hasta mı?

Bakıyorum arabanı değiştirmişsin. **Yoksa** piyangodan para mı çıktı?

Çok mutlu görünüyorsunuz, evlendiniz mi **yoksa**?

Son günlerde beni hiç aramıyorsun; **yoksa** artık beni sevmiyor musun?

Avvalgi gapda ko'rsatilgan bir voqelikning to'g'riligini isbotlash uchun ishlatiladi.

Çok parası var herhalde. **Yoksa** 50 milyar verip o evi alamazdı.

Hasta olmalı, **yoksa** okula gelirdi.

Tanlovli so'roq gaplarda tanlashni o'rtaga qo'yadi.

Yarın mı **yoksa** öbür gün mü geleceksin?

Eve mi **yoksa** sinemaya mı gidersin?

yoksa so'zi o'rniga ba'zan aksi halde yoki aksi takdirde so'zlari ishlatiladi.

Bana verdiğin sözü tut; **yoksa** çok pişman olursun!

Bana verdiğin sözü tut; **aksi halde** çok pişman olursun!

Doktorun verdiği ilaçları düzenli olarak kullanmalısın; **aksi takdirde** iyileşemezsin.

bari

Bu bog'lovchilar gaplarni shartli ma'nosi jihatidan bog'lab keladi. Hiç olmazsa, hiç değilse bog'lovchilari bilan bir xil ma'noda ishlatiladi.

Çok öksürüyorsun, **bari** sigara içme.

Mektup yazmıyorsun, **bari** arada sırada telefon et.

Barcha tanlovlardan keyin murojat qilinadigan eng oxirgi tanlov chora ma'nosini beradi.

Hiç kimse benimle gelmiyor, **bari** sen gel.

Ben okuyamadım, **bari** sen oku.

Uçakta yer yokmuş, **bari** otobüsle gideyim.

istak-tavsiya, ogohlantirish ma'nolarini anglatadi:

Madem beni dinlemeyip gidiyorsun, arabanı dikkatli sür **bari**.

Grip salgını varmış, aşı olalım **bari**.

Hava çok sıcak, **bari** biraz rüzgar esse.

hiç olmazsa, hiç değilse

Biron-bir shartni ifodalab bari bog'lovchisi bilan bir xil ma'noda ishlatiladi:

Çok yorgunsun, **hiç olmazsa** biraz dinlen.

Madem benimle gelmeyecektin, **hiç olmazsa** önceden haber verseydin.

"En az", "en azından" ma'nosini beradi:

Bu kadar erken gitmeyin, **hiç olmazsa** bayrama kadar kalın.

Ayşe **hiç değilse** arada uğrar, sen telefon bile etmiyorsun.

Kendin çalışmıyorsun, **hiç değilse** çalışanları engelleme.

da (de)

Turkchada eng ko'p ishlatiladigan bir bog'lovchidir. Gapdagi qo'llanish joyiga qarab turli ma'nolarni beradi. Gaplarni, so'z turkumlari va bir xil so'z turkumlarini o'zaro bog'lab keladi. Asosan biron-bir voqelikda tenglik, ishtiroklik, o'xshashlik ma'nolarini ifodalab keladi. Ba'zan gapdagi ma'nolarini ifodalab keladi. Ba'zan gapdagi ma'nolarni quvvatlandirib keladi. Bu bog'lovchilar bilan ifodalangan gapdagi vazifasiga qarab: Teng kuchli egalarni o'zaro bog'lab keladi:

Teng kuchli egalarni o'zaro bog'lab keladi:

Toplantıya Hasan **da**, Ayşe **de** katıldı.

Bu işi sen **de**, ben **de** yapamayız.

Sabab-natija munosabati qurgan holda gaplarni o'zaro bog'lab keladi:

Şirket önce para kazansın **da**, sonra sizin maaşınıza zam yaparız.

Beni duyuyorsun **da**, neden cevap vermiyorsun?

Ankara'ya kadar geliyorsun **da**, niçin bana uğramıyorsun?

Sen okulu bitir **de**, nasıl olsa sana bir iş buluruz.
Mektubu aç **da** okuyalım.
Bize gel **de** ders çalışalım.
Bir fincan kahve içelim **de** öyle gidelim.

Bu gaplardagi de bog'lovchisi chiqarilsa ikki alohida gap hosil bo'ladi:

Şirket önce para kazansın. Sonra sizin maaşınıza zam yaparız.

Ketma-ket keluvchi gaplarda qisqa ma'no quradi:

Bu işi sen yapamazsın, ben yapamam, Ahmet **de** yapamaz.
Bu işi sen **de**, ben **de**, Ahmet **de** yapamaz.

Onu buraya getir, bunu buraya getir, şunu buraya getir, hepsini buraya getir.
Onu **da**, bunu **da**, şunu **da**, hepsini buraya getir.

da (de) Bog'lovchisining Tashigan Ma'nolari:

Ta'na, dashnom

Sen önce kendi hatanı bil **de** sonra başkalarını eleştir.
İşini dikkatli yap **da** bir daha hata olmasın.

qo'rquv, tahdit

Geleceği varsa, göreceği **de** var!
Gazetede yalan haberler yaz **da** görelim, bakalım neler olacak.
Borcunu ödeme **de** sonunun ne olacağını gör!

hayajon, hayrat

Sen **de** mi Brütüs?
Siz **de** mi buradasınız?
Sen **de** mi hırsızlık yaptın?

Kamsitish, masxara qilish, umidsizlik

Adam olacak **da** para kazanacak!

Büyüyecek **de** beni yenecek!

Seçime girecek **de** bakan olacak!

Shikoyat, ta'na

İzmir'e kadar gelmiş **de** bana uğramamış.

İki hafta evde hasta yatmış **da** bana haber vermemiş.

Evlenmiş **de** bize hiç haber vermemiş.

Maqtov, yoqtirish

Ev **de** ev olmuş, böyle güzelini görmedim!

Pilav **da** pilav olmuş.

Hohish, tilak, yolvorish

Birkaç gün izin alsan **da** bir yerlere gitsek.

Baban erken gelse **de** yemeğimizi yesek.

Bırak da, biraz **da** ben konuşayım.

Gel so'zi bilan birga ishlatilganda zidlov ma'nosini anglatib imkonsizlik holatini ifodalaydi.

Gel **de** inanma.

Gel **de** olanlara gülme.

Gel **de** şimdi Ali'yi arama.

Ne so'zi bilan birgalikda ishlatilganda maqtov va haddan ziyod ma'nolarini ifodalab keladi:

Ne **de** akıllı.

Bahçeleri ne **de** güzel yapmışlar.

Ne kadar **da** çirkinmiş.

Ravishlar bilan birgalikda kelganda ma'nolarni quvvatlab keladi:

Gidip **de** gelmemek var, gelip de girmemek var.

Çalışıp **da** kazanmak kolay mı?

Ben onu sevince **de** gülüyor, kızınca **da.**

Bir so'zi bilan birga ishlatilganda 'üstünlük' ma'nosini beradi:

Utanmadan bir **de** yalan söylüyorsun.

Ortalığı kirlettiğin yetmiyor gibi, bir **de** yüzüme bakıp gülüyorsun.

Herşeyi berbat ettin, bir **de** yaptıklarınla övünüyorsun.

Bir so'zi bilan birgalikda va gap boshida kelsa ish-harakatning ortidagi hayajon va kutilmagan holatni ifodalab keladi:

Bir **de** baktım ki otobüs kalkmış.

Bir **de** ne göreyim, herkes bana gülmüyor mu!

Bir **de** baktım ki, saat 9.00 olmuş.

Takrorlanib keluvchi "bir...bir de" shaklida gapga tenglik, o'xshashik va ustunlik ma'nosini qo'shib keladi.

Çektiğimi bir ben bilirim, bir **de** Allah.

Bunu bir Ali yapabilir, bir **de** ben.

İstak mayli bilan yasalgan gaplarga tenglik, o'zgarmaslik ma'nosini beradi:

Bugün **de** gitsen olur, yarın **da.**

Makyaj yapsan **da** güzelsin, yapmasan **da.**

da (de) bog'lovchisi shartli fe'llardan keyin bile va dahi bog'lovchilarinin ma'nosini bildiradi:

Çağırsan **da** gelmez.	İstanbul'a gelsem **de** sana uğramam.
Çağırsan **bile** gelmez.	İstanbul'a gelsem **bile** sana uğramam.
Çağırsan **dahi** gelmez.	İstanbul'a gelsem **dahi** sana uğramam.

da (de) bog'lovchisining va -da (-de) qo'shimchasining yozilishi

da (de) bog'lovchisi yozilishda asosan kelishik qo'shimchalari -da (-de) bilan aralashtiriladi. Kelishiklardagi -da (-de) so'zlarga qo'shilib, da (de) bog'lovchilari esa alohida yoziladi.

-da (-de) kelishik qo'shimchasi nerede, kimde, ne zaman so'roqlariga javob beradi:

Kimde kalem var?	Orhan'**da** kalem var.
Nerede masa var?	Ev**de** masa var.
Ne zaman geleceksin?	Saat on**da** geleceğim.

da (de) bog'lovchilari qo'shimcha emas balki mustaqil so'zlardir. So'zlarning oxirida keladi va alohida yoziladi. da bog'lovchisi asosan fe'llardan keyin keladi. -da (-de) kelishik qo'shimchasi esa fe'ldan keyin kelmaydi. Bu yuzdan fe'llardan keyin kelgan butun da (de) larning bog'lovchi bo'lganligi uchun alohida yoziladi.

Gel **de** ders çalışalım.

Erken yat **da** sabahleyin erken kalk.

da (de) bog'lovchisi otlardan keyin kelganda ham alohida qilib yoziladi:

Partiye Orhan **da** geldi.	(Partiye Orhan **dahi** geldi.)
Sen **de** bize katıl.	(Başkaları partiye katılıyor, sen **de** bize katıl.)
Pasta **da** çok güzelmiş.	(Başka şeyler gibi pasta **da** çok güzelmiş.)

da (de) bog'lovchisi unli uyg'unligi quroliga bo'ysinadi. Undosh o'xshashligi quroliga rioya qilmaydi. -da (-de) qo'shimchasi esa unli uyg'unligi va undosh o'xshashligi qurollariga amal qiladi:

da (de) bog'lovchisi	→	Paris'e **de** gittik.
-da (-de) bog'lovchisi	→	Paris'**te** kalıyoruz.

dahi

Bu bog'lovchi *de* bog'lovchisining ma'nosini tashib keladi:

Bu sorunları ben **dahi** çözemem.	Sizi artık ben **dahi** kurtaramam.
Bu sorunları ben **de** çözemem.	Sizi artık ben **de** kurtaramam.

ki

ki bog'lovchisi umuman gaplarni o'zaro bog'lab gapda sabab-natija munosabatini quradi:

Bu akşam bize gelin **ki** oturup biraz sohbet edelim.

Öyle sanıyorum **ki** sen bu sınavı başaramayacaksın.

Biz inanıyoruz **ki** gelecek günler daha iyi olacak.

Bugün öyle yoruldum **ki** akşam hiçbir yere gidecek halim kalmadı.

Geçen yıl dediler **ki** enflasyon bir yıl içinde yüzde yirmiye düşecek.

ki bog'lovchisi ba'zan gap boshi dagi fe'llardan keyin keladi.

Baktım **ki** arkadaşlarım birdenbire yok olmuş.

Desem **ki** sen dünyanın en güzel kadınısın!

Bilsem **ki** sen bu parayla iş yapacaksın, hepsini sana veririm.

De **ki** ölümden sonra yine hayat vardır.

So'roq gaplardan keyin keladi:

Bu akşam partiye gitsem mi **ki**?

Acaba bakanlığa bir mektup yazsak mı **ki**?

Onunla açık açık herşeyi konuşsam mı **ki**?

Ba'zan ki bog'lovchisidan keyin keluvchi ikkinchi gap aytilmaydi:

Bu iş bana o kadar kolay geldi **ki**... (hemen yaptım)

Dün akşamki parti o kadar güzeldi **ki**... (bitmesini hiç istemedim)

Senin de bir şey bildiğin yok **ki**... (bu işi yapabilesin)

Yeni evimiz öyle güzel oldu **ki**... (herkes onu çok beğeniyor)

Ot va ot turkimiga kiruvchi so'zlardan keyin keladi:

Öyle bir adam **ki** dünyada eşi benzeri az bulunur.

O kadar güzel **ki** daha güzelini hiç görmedim!

Sen **ki** bana söz vermiştin!

Siz **ki** benim en güvendiğim kişilersiniz!

ki bog'lovchisining ishlatilishiga Orhan Velining shu sheri yaxshi misol bo'la oladi:

DEĞİL

Bilmem **ki** nasıl anlatsam;
Nasıl, nasıl size derdimi!
Bir dert **ki** yürekler acısı
Bir dert **ki** düşman başına
Gönül yarası desem...
Değil!
Ekmek parası desem...
Değil!
Bir dert **ki**...
Dayanılır şey değil.

ki bog'lovchisi va *-ki* aloqa qo'shimchasining yozilishi

ki bog'lovchisi va *-ki* aloqa qoshimchasi unli uyg'unligi quroliga rioya qilmaydi, sabahki, akşamki, yazınki... vh. Faqat dünkü va bugünkü so'zlaridan keyin -ki aloqa olmoshi -kü shakliga o'zgaradi. ki bog'lovchisi mustaqil so'z bo'lganligi uchun alohida yoziladi. -ki aloqa qo'shimchasi esa so'zlarga qo'shilib yoziladi:

bog'lovchi : Sen **ki** benim en yakın dostumsun.

Ben **ki** seni çok sevmiştim.

aloqa qo'shimchasi:

Sende**ki** kalemi bana ver.

Bende**ki** her şey senin sayılır.

-ki aloqa qo'shimchasini ki bog'lovchisidan ajratish uchun neredeki, ne zamanki, kiminki savollari beriladi:

Neredeki adam?	Sokakta**ki** adam.	(sokakta duran adam)
Neredeki masa?	Odada**ki** masa.	(odada duran masa)
Bu kalem kiminki?	Bu kalem benim**ki**.	(bana ait)
Bu silgi kiminki?	Bu silgi senin**ki**.	(sana ait)
Bu ekmek ne zamanki?	Bu ekmek bugün**kü**.	(bugüne ait)
Bu pasta ne zamanki?	Bu pasta dün**kü**.	(düne ait)

ki bog'lovchisi bilan birlashib keluvchi ba'zi bog'lovchilar ham bordir. Bu bog'lovchilardan ba'zilari ki bog'lovchisi bilan qo'shib yoziladi:

oysa**ki**, halbu**ki**, san**ki**, madem**ki**, çün**kü**... kimi.

Bu bog'lovchilardan tashqari ki bog'lovchisi bilan birgalikda ishlatilgan boshqa bog'lovchilar alohida yoziladi:

demek **ki**, farzet **ki**, yeter **ki** , kaldı **ki**, öyle **ki**, şöyle **ki**, tut **ki**, şu var **ki**... gibi.

Bu bog'lovchilarga shu misollarni keltirish mumkin:

oysa, oysaki

Gaplarni zidlik, qarama-qarshi qo'yish munosabatlari jihatidan bog'lab keladi. Jumlaga bog'lanib kelgan boshqa jumlaning izohlovchisi bo'lib keladi.

Dışardan gören herkes onun sert bir insan olduğunu sanır; **oysa** onun yumuşacık bir kalbi vardır.

Engin çok güzel piyano çalıyor; **oysa** henüz dört yaşında.

Ben sana çok güvenmiştim; **oysaki** sen beni aldattın.

Sınavlarda başarılı olamadım; **oysaki** çok çalışmıştım.

halbuki

Bu bog'lovchi, *oysa* va *oysaki* so'zlari bilan bir xil ma'noga ega, izoh, zidlik, qarama-qarshilik, natijani ifodalash yoki bir voqelikni qo'llab-quvvatlash funktsiyalarini bajarib keladi. Natijani avvalgi vaziyatlarga halbuki bog'lovchisini keltirish bilan ifodalashga harakat qilamiz.

Yapraklar nedense sararmamıştı; **halbuki** artık sonbahar gelmişti.

Yapraklar nedense sararmamıştı; **oysa** artık sonbahar gelmişti.

Çok uykum var, **halbuki** dün erken yattım.

Murat Bey hırsızlık yapmış; **halbuki** herkes onu dürüst biri sanırdı.

Ahmet trafik kazası yapmış; **halbuki** çok dikkatli araba kullanırdı.

Canan sık sık hastalanıyor; **halbuki** sağlığına çok dikkat eder.

Türkçeyi çok iyi bildiğini söylüyor, **halbuki** iki kelime konuşamıyor.

sanki

Gaplarni va so'z turkumlarini taxmin va ehtimollik ma'nolari jihatidan bog'lab keladi:

Selma dün akşam yemekte **sanki** beni hiç tanımıyormuş gibi davrandı.

Başkalarını kötüleme, **sanki** sen daha iyi bir adam mısın?

Bu kadını **sanki** bir yerden tanıyorum.

Bu müziği **sanki** bir kez daha dinlemiştim.

ki bog'lovchisi bilan ishlatilgan boshqa bog'lovchilarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Bu kez sınavı başarmış; demek **ki** iyi çalışmış.

Biz bu engeli de aşarız; yeter **ki** siz dikkatli olun.

Bugün işim çok; kaldı **ki** biraz da hastayım, bu toplantıya katılamam.

Seni seviyorum; öyle **ki** senin için canımı bile veririm.

Bu işin hatalı olduğuna ben de inanıyorum; gel gör **ki** patron böyle yapmamızı istiyor.

Sana yardımcı olmak isterdim; ne çare **ki** benim de param yok.

Bu sorunu çözdük; şöyle **ki** yarın hepiniz ücretlerinizi zamanında alacaksınız.

Bence riske girmeyelim; tut **ki** işler iyi gitmedi. O zaman ne yapacağız?

Bu binayı kentin en yüksek yerine yapın; ta **ki** en uzak yerden bile görünsün.

TAKRORİY BOG'LOVCHİLAR *(Tr.yinelenen bağlaçlar; İng. repetion conjunctions; Germ. Doopelkonjunktionen; Fr. conjonctions répétées)*

Ba'zi so'zlar takrorlangan holda kelib bog'lovchi sifatida ishlatiladi. Bu bog'lovchilardan ba'zilari esa quyidagilardir:

ne.....ne, ne de

Ko'p ishlatiladigan bu bog'lovchi gaplarni bir xil funktsiya, zidlik ma'nolari jihatidan o'zaro bog'lab keladi. Gapga salbiy ma'no beradi:

Uzun zamandan beri annemden **ne** bir mektup, **ne** bir haber alıyorum.

Ne bir dostum **ne** de bir ailem var. Hayatta kimsesiz bir insanım.

Çölün ortasında yürüyorduk, çevrede **ne** bir ev, **ne** bir insan, **ne** bir ağaç, **ne** bir hayvan, hiç-bir şey gözükmüyordu.

Sizi **ne** eşiniz aradı, **ne** çocuklarınız.

ne...ne bog'lovchisi qisqacha tushuntirish imkonini beradi:

Ne arabaya bindim, **ne** otobüse bindim, okula yürüyerek gittim.

Ne arabaya, **ne** otobüse bindim.

Ne arabaya bindim, **ne** otobüse.

ne...ne bog'lovchisi ba'zi iboralarda ham qoliplashgan shakilda ishlatiladi:

Ne şiş yansın, **ne** kebap.

Ne kokar, **ne** bulaşır.

Ne çaldın yüzüme, **ne** çalayım yüzüne?

Ne benden sana bazlama, **ne** senden bana gözleme.

Ne ölü görmüş ağlamış, **ne** düğün görmüş oynamış.

ne...ne bog'lovchisi ba'zan de bog'lovchisi bilan birga ishlatilganda ma'noni kuchaytirib keladi. de bog'lovchisi foydalanilmagan taqdirda ham ma'noda biron bir o'zgarish bo'lmaydi:

Bana **ne** borcunu verdi **ne de** malı iade etti.

Kardeşim bana **ne** mektup yazıyor **ne de** telefon ediyor.

Ayşe, **ne** doğum günü partime geldi **ne de** telefon edip doğum günümü kutladı.

Zid ma'noli sifatlar bilan birga foydalanilganda ham o'rta ma'noni beradi:

Ne şişman **ne** zayıf, orta.

Ne uzun **ne** kısa.

Ne güzel **ne** çirkin.

ne.... ne bog'lovchisi ba'zan de...de bog'lovchisi ma'nosini ham tashib keladi:

Bu görevi **ne** sen, **ne** ben yapabiliriz.

Bu görevi sen **de**, ben **de** yapamayız.

Çölde **ne** ev, **ne** insan, **ne de** hayvan vardı.

Çölde ev **de**, insan **da**, hayvan **da** yoktu.

hem.....hem, hem de

Bir xil vazifani bajarib keluvchi so'zlar, so'z turkumi va gaplarni o'zaro bog'lab keladi. Tenglik, zidlik va birgalikda bo'lish ma'nolarini anglatadi.

Hem masayı, **hem** koltukları satın alıyorum.

Halil **hem** çalışıyor, **hem** okuyor.

İşçiler **hem** çok para istiyor, **hem** çalışmıyor.

Geziye giderken **hem** çocukları, **hem** hanımı birlikte götürmek istiyorum.

Adam **hem** konuşuyor, **hem** keman çalıyor, **hem** oynuyor, **hem** gözleri ile salonu kontrol ediyordu.

hem.... hem bog'lovchisi de bog'lovchisi bilan birgalikda ishlatiladi:

Hem yemek yemiyor, **hem** ilâç almıyor, **hem de** iyileşmeyi bekliyor.

Hamdi Bey **hem** dürüst, **hem** namuslu, **hem de** çok çalışkan bir insandır.

Bunga qaramay, buning bilan birgalikda degan ma'nolarni beradi.

Bana **hem** para vermiyorsunuz, **hem de** çok çalıştırmak istiyorsunuz.

Hem "Diyet yapıyorum" diyorsun **hem de** kalorili şeyler yiyorsun.

Hem "Sevmiyorum" diyorsun **hem de** onun yanından hiç ayrılmıyorsun.

hem...hem bog'lovchisi iboralarda qolip shaklida ishlatiladi:

Hem camide, **hem** kilisede mum yokmuş.

Hem kel, **hem** fodul.

Hem nalına, **hem** mıhına.

Hem suçlu, **hem** güçlü.

Hem ziyaret, **hem** ticaret.

gerek.....gerek (gerekse)

So'z turkumlarini o'zaro bog'lab tenglik, birgalikdalik va tanlov ma'nolarini anlatadi. Gerek...gerek bog'lovchisi, hem...hem bog'lovchisi bilan ba'zi hollarda bir xil ma'noda ishlatiladi. Faqat gerek...gerek fe'l ifodalarini bog'lamaydi. -moq fe'l qo'shimchasi holidagi fe'l ifodalarida ishlatilishi mumkin.

Gerek günde iki paket sigara içmesi, **gerek(se)** sağlıksız beslenmesi onu genç yaşta çökertti.

Akşamları **hem** radyo dinler, **hem de** gazete okur.

Gerek gece çalış, **gerek** gündüz çalış, bu işi iki gün içinde yap.

Gerek memurlar, **gerek** işçiler, hepimiz devletin çıkarlarını düşünmek zorundayız.

Mehmet Bey **gerek** iş hayatında **gerekse** özel hayatında son derece prensip sahibi bir insandır.

Gerek uçakla, **gerekse** otobüsle olsun, ben yolculuğu çok severim.

Konuklar **gerek** bugün gelsinler, **gerekse** yarın, biz onları ağırlamaya hazırız.

ister.....ister (isterse)

Bu bog'lovchi asosan *gerek...gerek* bog'lovchisi bilan bir xil ma'noda ishlatiladi:

İster gece çalış, **ister** gündüz çalış; bu işi iki gün içinde yap.

İster bugün gel, **ister** yarın, ben her zaman evdeyim.

Emine **ister** evde kalsın, **isterse** bizimle gelsin.

Bütün insanlar **ister** Türk, **ister** Alman, **ister** Fransız, **ister** Afrikalı olsun, hepimiz çevremizi ve dünyamızı korumakla görevliyiz.

olsun.....olsun

So'z turkumlari va gaplarni tenglik va zidlik ma'nolari jihatidan o'zaro bog'lab keladi:

Zengin **olsun**, fakir **olsun** hepimizi aynı Tanrı yaratmıştır.

Küçük **olsun**, büyük **olsun** herkes Ali Beyi çok severdi.

İyi günde **olsun**, kötü günde **olsun**, sağlıkta **olsun**, hastalıkta **olsun** ben hep senin yanında olacağım.

Çalışanlarıyla **olsun,** idarecileriyle **olsun** burası son derece seçkin bir kurumdur.

kâh.....kâh

So'z turkumlari va gaplarni zidlik va ba'zan ma'nolari jihatidan o'zaro bog'lab keladi:

Kayık büyük dalgaların üstünde **kâh** o yana, **kâh** bu yana sallanıp duruyordu.

Hüsnü Beye güvenilmez, **kâh** bizden yana, **kâh** başkalarından yana olur.

Genç kadın **kâh** gülüyor, **kâh** ağlıyor; büyük bir şok geçiriyordu.

Kâh telefonla **kâh** mektupla, annemle sürekli haberleşiyoruz.

kâh...kâh bog'lovchisi o'rniga bazen so'zi ham ishlatiladi:

Kâh yağmur yağar, **kâh** kar	:	**Bazen** yağmur yağar, **bazen** kar.
Kâh güler, **kâh** ağlar	:	**Bazen** güler, **bazen** ağlar.

ya.....ya (da)

İkki tanlov orasida birini tanlashda ishlatiladi. Ega, kesim va gaplarni o'zaro bog'lab keladi.

Ya pasta ye, **ya** börek.

Ya sinemaya gideceğim, **ya** tiyatroya.

Ya sinemaya, **ya** tiyatroya gideceğim, şeklinde de olabilir.

O evi almak için **ya** arsasını, **ya da** arabasını satacak.

Ya Ali, **ya da** Ayşe gelecek.

Tanlovlardan birining boshqasidan afzal hisoblanishi ma'nosi bordir. Bu yerda afzal deb ko'rsatilgan tanlov avval ifoda qilinadi.

Ya yemeğini ye, **ya da** git, yat.

Ya Türkçe öğren, **ya da** kursa gelme.

Ya o ayakkabıyı alırım, **ya da** hiçbir şey almam.

Ya Ayşe'yle evlenirim, **ya da** intihar ederim.

Veya bog'lovchisi o'rniga ishlatilishi mumkin:

Pasta **veya** börek ye.

Faqat bu gapda "ya pasta ye, ya börek" deganda ikkisidan birini tanlash majburiyati bahs mavzusi bo'lmoqda. Boshqa bir tanlovga fursat berilmayapti.

"Pasta veya börek ye." ifodasida esa bir qancha tanlov orasidan birini tavsiya etish ma'nosi o'z og'irligini qo'ymoqda.

ya....yahut, ya....yahut da, ya....veya shaklida ham ishlatilishi mumkin:

Ya dersi dinle **yahut da** dışarı çık.

Ya mektup yaz, **yahut** telefon et.

ya....ya bog'lovchisi qolip sifatida ba'zi iboralarda ham foydalaniladi.

Ya bu deveyi gütmeli, **ya da** bu diyardan gitmeli.

Ya dayak yememiş, **ya** sayı saymayı bilmiyor.

Ya deve, **ya** deveci.

Ya devlet başa, **ya** kuzgun leşe.

UNUTMANG!

BOG'LOVCHİLAR

Bog'lovchilar bir xil funktsiyaga ega so'zlarni, so'z turkumlarini va gaplarni o'zaro bog'lab keladi.

Tuzilish Jihatidan Bo'glovchilar

- Sodda Bog'lovchilar : ve, ile, de
- Yasalgan Bog'lovchilar : üstelik, yalnız
- Biriktiruv Bog'lovchilari : öyleyse, oysa
- Turkum Bog'lovchilar : öyleyse, oysa

a. ki bog'lovchisi yasalgan bo'lovchilar:
oysaki, halbuki, sanki, mademki, şöyle ki, yeter ki, demek ki...

b. Qaratqichli birikma shaklida ishlatiladigan bog'lovchilar:
bunun için, bu yüzden, bu bakımdan, bana göre, o halde, şu halde, bundan başka

c. Takroriy bog'lovchilar:
ne... ne, hem.... hem, gerek... gerek, ya...ya... kabi.

- **Teng huquqli so'zlarni bog'lovchilar:**

"Bugün pazardan elma, portakal, mandalina ve muz aldım." gapdagi elma, portakal, mandalina ve muz so'zları grammatik jihatdan teng huquqli so'zlardır.

Mehmet, Esen ve **Engin** yarın İstanbul'a gidecekler.
Sen ya da **ben** bu işi mutlaka halledeceğiz.

- **So'z turkumlari bilan birga qo'llanilgan bog'lovchilar:**

Ayşenlerin evlerinin önünde ya da **deniz kıyısındaki iskelede** seni bekliyorum.

- **Gaplar bilan qo'llanilgan bog'lovchilar:**

Bana borcunu hemen öde **yoksa** yasal yollara başvururum.

Ko'makchilar va Bog'lovchilar

Cümlenin hemcins üzvlcerini, söz birleşmelerini vc cümleleri bir-birine bağlayan qoşmalar da bağlayıcı funksiyasında özünü gösterir.

Teng Huquqli So'zlar:

Ayşen, Birsen ve Ahsen **gibi** iyi kızlar görmedim. (bog'lovchi)
Arzu **gibi** güzel kız görmedim. (ko'makchi)

Gaplar:

Çocuklara hiç yemek vermedi, **üstelik** onları çok kötü dövdü. (bog'lovchi)
Çocuklara yemek vermediği **gibi** onları çok kötü dövdü. (bog'lovchi)

da (de) bog'lovchisi:

a. Mustaqil so'z bo'lganligi uchun alohida yaziladi.

b. Gap orasidan chiqarilganda ko'pincha ma'no buzilmaydi.

Oku **da** adam ol. → Oku, adam ol.
Bize gel **de** sinemaya gidelim. → Bize gel, sinemaya gidelim.

Ba'zi hollarda da (de) bog'lovchisi gapdan chiqarilganda ma'no buziladi yoki ma'no tugallanmay qoladi:

Sen **de** mi Brütüs? → Sen mi Brütüs?
Yarın o **da** mı geliyor? → Yarın o mu geliyor?

c) *da (de)* bog'lovchisi alohida yozilganligi uchun undosh o'xshashligi quroliga bo'ysinmaydi. Faqatgina tanglay garmoniyasi qoidasiga bo'ysinadi:

Dün sergiye **de**, tiyatroya **da** gidemedik.

-da, -de qo'shimchasi:

a) So'zlar bilan qo'shilib yoziladi.

b) *Nerede, ne zaman, kimde* so'roqlariga javob beradi.

Nerede oturuyorsun? Ankara'**da** oturuyorum.
Kimde kalem var? Ben**de** var.
Ne zaman gidiyorsun? Bugün saat 5'**te**.

c) Tanglay garmoniyasi va undosh o'xshashligi qoidasiga rioya qiladi.

İstanbul'**da** ve Paris'**te** birer hafta kaldık.

ki bog'lovchisi

a) Mustaqil so'z bo'lganligi uchun alohida yoziladi.

b) Asosan jumlalarni o'zaro bog'lab gaplar o'rtasida sabab-natija munosabati quradi.

c) Tanglay garmoniyasiga rioya qilmaydi.

Ben **ki** sana değer vermiştim.

-ki qo'shimchasi

a) So'zlar bilan qo'shilib yoziladi.

b) Tanglay garmoniyasiga rioya qilmaydi (dünkü va bugünkü so'zlaridan tashqari).

Sende**ki** kalemi kullanabilir miyim?

-ki qo'shimchasi va ki bog'lovchisini bir-biridan ajratish uchun neredeki, ne zamanki va kiminki savollari beriladi:

Neredeki çocuk? Okulda**ki** çocuk.
Ne zamanki yemek? Akşam**ki** yemek.
Bu çanta kiminki? Bu çanta onun**ki**.

ki bog'lovchisi bilan birlashib yozilgan ba'zi bog'lovchilar bordir: *oysaki, halbuki, sanki, mademki, çünkü*

Madem**ki** ısrar ediyorsun, seninle sinemaya geliyorum.

ki bog'lovchisi alohida yozilgan bog'lovchilar: *demek ki, farzet ki, yeter ki, kaldı ki, öyle ki, şoyle ki, tut ki, şu var ki....*

Çok yorgunum, öyle **ki** yemek yiyecek halim bile yok.
(**Öyle** yorgunum **ki** yemek yiyecek halim bile yok.)

UNDOV

(Tr. ünlemler; İng. interjection; Germ. interjektion; Fr. interjection, exclamation) interiectio

Sevinch, xafagarchilik, jahl, qo'rquv, hayratlanish kabi his-hayajonni va xitobni bildirishda xizmat qiladigan so'zlarga undov deyiladi. Undovlar asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

UNDOV SO'ZLAR (UNDOV NEGİZLİ SO'ZLAR)
Bu undovlar ma'nosiga qarab ikkiga bo'linadi:

• Bir kishiga xitob qilishga, uni chaqirishga yordam beruvchi undovlar:

Oradan çekilsene **be!**

Yol versene **be!**

Hırsızlık, sana göre bir iş miydi **be** abi!

Eee, yaptıkların yeter artık!

Eee, hep seni mi dinleyeceğiz!

Ha, evet anladım!

Ha, onu mu sordun!

Haydi, gidelim!

Hey, buraya baksana!

Hı, demek bu işi o yapmış!

Hişt, buraya bakar mısın?

• Shodlik, xafagarchilik, jahl, qo'rquv, taajjublanish kabi his-tuyg'ularni aks etturuvchi undovlar:

A, ne kadar güzel bir manzara!

Aaa, bu arabanın boyasına ne olmuş!

Aman sakın size bir şey olmasın!

Aman yarabbi, gerçekten çok korkunç bir kaza!

Ay, başım çok ağrıyor!

Eh, sonunda bizim iş oldu!

Ey Türk gençliği!

Eyvah, yine lâstik patladı!

Eyvah, çocuk pencereden düşecek!

Hoppala, bu da nereden çıktı!

Oh, nihayet rahat bir nefes alabildik!

Oooh, sonunda suçlu cezasını buldu!

Of, bu adam da başımıza belâ oldu!

Of, bu ne biçim iş! Soğuktan hepimiz hasta olduk.

Üf, canım yandı!

Üff, ne sıkıcı bir yer!

Vah vah! Hasanların evini hırsız soymuş.

Babanız ölmüş, **vah vah** başınız sağ olsun!

UNDOV SİFATİDA QO'LLANİLGAN SO'ZLAR

Ba'zi so'zlar aslida undov so'z bo'lmasa ham biroq undov vazifasini bajarib keladi. Xitob yoki xitob qilishda ishlatiladigan undovlar sifatida foydalaniladi:

Nejdet! Ahmet! Gülser Hanım! Hasan Bey!... kabi.

Xursandchilik, ko'tarinki kayfiyat, xafagarchilik, ruhiy holat, achinish, qo'rqish, hayajon kabi holatlarda ishlatiladigan ba'zi so'zlar ham undov sifatida ishlatiladi:

Aferin, çok güzel bir iş başardın!

Allah! Allah! Bu adam ne yapmak istiyor!

Ayol, bu adam da kim!

Sakın anneme bir şey olmasın!

Tanrım, ben şimdi ne yapacağım!

Yarabbi! Sen bana güç ver!

Yazık, çok genç yaşta öldü!

FE'LLAR

(Tr. Eylemler; İng. verbs; Germ. verben; Fr. verbes)

Fe'l Kategoriyaları, Murakkab Zamonli Fe'llar, To'liqsiz Fe'l, Fe'lning Funktsional Shakllari va Yordamchi Fe'llar

Predmetning harakatini va jarayon tarzidagi holatini bildirgan mustaqil so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'llar shaxs va predmetlar harakatini ifodalash bilan birga, turlicha holatni, belgining o'zgarishini ham harakat tarzida anglatadi. Fe'l-so'z turkumlari ichidagi eng muhimi bo'lib ular borliqlarning ish-harakatini, holatlarini va jarayon tarzidagi vaziyatlarni izohlab shaxs zamon va holatni ifodalab keladi. Fe'llarning ifodalab kelgan holatlarga shu misollarni keltirish mumkin:

ish	:	okumak, yemek, içmek, bulaşık yıkamak, duş almak...
jarayon	:	büyümek, küçülmek, yaşlanmak, gevşemek, güzelleşmek...
harakat	:	gelmek, gitmek, koşmak, atlamak, yüzmek...
holat	:	bulunmak, durmak, korkmak, oturmak, uyumak...

Turk tilidagi fe'llar va bu fe'llardan turlangan so'zlar umuman olganda Turkchadir. Biroq mektuplaşmak, selâmlaşmak kabi xorijiy so'zlardan turlangan fe'llar ham bordir.

So'z turkumlari ichida fe'llarning o'ziga xos va muhim o'rni bordir. Chunki fe'llar kesim bo'lib kelgan paytda yakka holda bir gapni ifodalab keladi. Ega to'ldiruvchi kabi boshqa gap bo'laklarida bunday holat kuzatilmaydi. Misol uchun "yapabildim" so'zi yakka holda o'z boshiga bir gap bo'lib ega, shaxs va vaqtni ifodalab keladi. Gap bo'laklari ichida eganing o'z holiga gap qurish qobiliyati yo'qdir.

Turkchada fe'llarning ishlanish shakli matematika kabi sag'lom bir poydevorga asoslanmoqda. Fe'llar ustida quyidagi tartibda berilgan mavzular ishlanadi:

* Fe'l shakli
* Fe'l kategoriyalari
* Fe'llarning turlanishi va mayllar

* Murakkab zamonli fe'llar
* To'liqsiz fe'l va var, yok so'zlari
* Fe'lning funktsional shakllari (harakat nomi, sifatdoshlar, ravishdoshlar)
* Ravishdoshli murakkab fe'llar
* Yordamchi fe'llar (olmak, etmek, eylemek ve kılmak)

FE'L SHAKLİ

Fe'l o'zak va fe'l qo'shimchasidan tashkil topadi:



Sodda fe'l o'zagi yana ham kichik ma'noli guruhga bo'linmaydi. Turkchada fe'l va ot negizi o'zgarmasdan ularning olgan qo'shimchalari o'zgarib keladi. Fe'l o'zagiga qo'shiluvchi -mak, -mek qo'shimchalari fe'l qo'shimchasi (mastar eki) ve fe'l—biron bir ish-harakatning nomidir.

sevmek, bilmek, görmek, gelmek kabi so'zlar fe'l nomi bo'lib ayni paytda bu so'zlar ot bo'lib hisoblanadi.

Fe'l O'zagi

Sodda fe'llardan -mak, -mek qo'shimchasi chiqarilganda faqatgina fe'l o'zagi qoladi:

sev-, bil-, gör-, gel-... kabi.

Fe'l Negizi

Fe'l O'zagiga so'z yasovchi qo'shimchalari qo'shilganda hosil bo'lgan yangi so'zga fe'l negizi deyiladi.

sev+il-mek, sev+dir-mek, sev+in-mek, sev+dirt-mek kabi.

sev-	:	fe'l o'zagi
sevil-	:	fe'l negizi

Fe'l o'zagi yana ham kichik ma'noli bo'laklarga bo'linmaydi. Fe'l negizi esa yana ham kichik ma'noli bo'lakga bo'linadi.

sevindirilmek fe'lida fe'l negizi quyidagicha bo'laklarga bo'linishi mumkin:

sev-in-dir-il-mek, sev-in-dir-mek, sev-in-mek, sev-mek

sevindirilmek fe'lida fe'l o'zagi eng kichik ma'noli sev- o'zagidir. Bu fe'l o'zagi esa yana ham kichik bo'lakga bo'linmaydi.

Fe'llarda Shaxs va Vaqtning İfodalanishi

Fe'l o'zaklari turlovchi qo'shimchalarni olib fe'lning shaxsi va vaqtini ifodalab keladi:

sev-iyor-um	→	birinchi shaxs, birlik	: I sh., b.
sev-iyor-sun	→	ikkinchi shaxs, birlik	: II sh., b.
sev-iyor	→	uchinchi shaxs, birlik	: III sh., b.
sev-iyor-uz	→	birinchi shaxs, ko'plik	: I sh., k.
sev-iyor-sunuz	→	ikkinchi shaxs, ko'plik	: II sh., k.
sev-iyor-lar	→	uchinchi shaxs, ko'plik	: III sh., k.

ben
sen
o
biz
siz
onlar

sevmek fe'lining turlanishida fe'l shaxsi va vaqtini ifodalab keluvchi qo'shimchalar quyidagilardir:

Shaxsni ko'rsatib keluvchi qo'shimchalar → -um, -sun, -uz, -sunuz, -lar

Vaqtni ko'rsatib keluvchi qo'shimchalar → -(i)yor (hozirgi zamon qo'shimchasi)

FE‘L KATEGORİYALARİ

(r. Eylemde çatı; İng. verbal voice; Germ. Diathese; Fr. voix du verbe)

O‘timli va O‘timsiz Fe‘llar

Bosh Nisbat, Majhul Nisbat, O‘zlik Nisbati, Birgalik Nisbati, Orttirma Nisbat

Fe‘llarning predmet yoki ob‘ektni ifodalab kelishi yoki eganing holatiga qarab fe‘l kategoriyalarining fe‘l o‘zagi va negiziga ba‘zi qo‘shimchalarni keltirgan holda yangi fe‘l yasaladi. Harakat bilan sub‘ekt va ob‘ekt orasidagi munosabat esa har xildir.

yaz-mak, yaz-ıl-mak, yaz-ış-mak, yaz-dır-mak, yaz-dır-t-mak, yaz-dır-ıl-mak... kabi.

Turkchada bu kategorilar fe‘llarning ob‘ekt va sub‘ekt orasidagi munosabatiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

FE‘L KATEGORİYALARİ

Ob‘ektga Ko‘ra Kategoriyalar	Sub‘ektga Ko‘ra Kategoriyalar
1. O‘timli Fe‘l	1. Bosh nisbat
2. O‘timsiz Fe‘l	2. Majhul nisbat
	3. O‘zlik nisbat
	4. Birgalik nisbati
	5. Orttirma nisbat

OB'EKTGA KO'RA KATEGORİYALAR

O'timli va O'timsiz Fe'llar

Turkchadagi fe'llarning ba'zilari harakat va holatning ob'ektini ifodalab keladi ba'zilari esa yo'q.

Esen mektupları yazdı. (Ob'ekt bor)
Esen erkenden uyudu. (Ob'ekt yo'q)

Fe'llarning harakat va holatning predmet-ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab ikki turga bo'linadi:

* **O'timli Fe'llar** (Ob'ektni ifodalab keladi)
* **O'timsiz Fe'llar** (Ob'ektni ifodalab kelmaydi)

O'TİMLİ FE'LLAR *(Tr. geçişli eylemler; İng. transitive verb; Germ. transitive Verben; Fr. verbes transitifs)*

O'timli fe'l tushum kelishigidagi so'zni boshqarib keladi, biror predmetga o'tgan harakatni, predmetga qaratilgan va unda biror o'zgarish yuzaga keltiradigan harakat yoki holatni bildiradi.

"Ahmet arabayı yıkıyor." Gapdagi Ahmadning amalga oshirgan ishi mashinaga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yuzdan yuvmoq (yıkamak) fe'li o'timli fe'ldir. Gapdagi mashina (araba) so'zi bajaruvchi (ega)ning amalga oshirayotgan ishini ko'rsatib fe'lning ma'nosini tugalllab kelmoqdadir. Gapdan araba so'zini chiqaradigan bo'lsak, *"Ahmet yıkıyor."* gapida Ahmadning nimani yuvayotganligi noma'lumdir.

Predmet-ob'ekt *(Tr. nesne; İng. determined direct object; Germ. bestimmtes näheres Objekt; Fr. complément)*

O'timli fe'lning ma'nosini tugallab keluvchi sodda yoki tushum kelishigidagi so'zga predmet (ob'ekt) deyiladi. Bu gapdagi araba so'zi ob'ekt bo'lib tushum kelishigi qo'shimchasini olgan.

O'timli fe'llarni qisqacha qilib ob'ektni ifodalab kelgan fe'llar deb aytishimiz mumkin. Gapda predmetni aniqlash uchun *neyi, kimi* savollari beriladi:

Ahmet neyi yıkadı?	→	Ahmet **arabayı** yıkadı.
Fatma kimi seviyor?	→	Fatma **çocuğu** seviyor.
Nurten neyi suluyor?	→	Nurten **çiçeği** suluyor.
Polis kimi yakaladı?	→	Polis **hırsızı** yakaladı.

Bu gaplarda araba, çiçek va hırsız so'zlari biror predmetlardir. Predmetlar bosh kelishikda keladi yoki tushum kelishigi qo'shimchasini oladi:

Bosh kelishik	Tushum kelishigi
Ahmet **araba** kullandı.	Ahmet **arabayı** kullandı.
Fatma **çocuk** seviyor.	Fatma **çocuğu** seviyor.
Nurten **çiçek** suluyor.	Nurten **çiçeği** suluyor.
Polis **hırsız** yakaladı.	Polis **hırsızı** yakaladı.

O'TİMSİZ FE'LLAR *(Tr. geçissiz elyemle İng. intransitive verbs; Germ. intransitive Verben; Fr. verbe intransitif)*

Predmetni ifodalab kelmagan, tushum kelishigidagi so'zni boshqarib kelmasdan odatda, boshqa narsaga o'tmasdan bajaruvchining o'zida qolgan harakatni ifodalovchi fe'llarga o'timsiz fe'llar deyiladi. *"Serpil erkenden uyudu."* Gapda Serpil egadir va Serpilning uxlashi uning o'zida qoluvchi bir harakat (ish)dir. Umuman bunday jarayon va harakatni ifodalovchi fe'llar o'timsizdir.

gülmek, ağlamak, uyumak, gitmek, gelmek, düşmek, barışmak... kabilar.

O'timsiz fe'llar ob'ektni ifodalab kelmaganligi uchun *kimi, neyi* savollariga javob berolmaydi:

Çocuklar sınıfta kahkahalarla güldüler.

Gülten annesinin ölümüne aylarca ağladı.

Bu sabah erkenden işe gittim.

İstanbul'dan Ankara'ya altı saatte geldik.

Rüzgâr esince bütün kağıtlar masadan yere düştü.

Sonunda savaş bitti ve iki ülke birbiriyle barıştı.

Yuqoridagi gaplarning hech qaysida predmet ifodalanmagan. Bu yuzdan gapdagi fe'llar o'timsizdir va *neyi, kimi* savollariga javob berolmaydi.

O'timli va O'timsiz Fe'llar

Ba'zi fe'llar ham o'timli ham o'timsizdir:

Çocuklar önümden geçti.	(tesirsiz)
Araba bisikleti geçti.	(tesirli)
Yolculuk iki gün sürdü.	(tesirsiz)
Çiftçi tarlayı sürdü.	(tesirli)
Dün bahçede gezdim.	(tesirsiz)
Dün bahçeyi gezdim.	(tesirli)

O'timsiz Fe'llarning O'timli Fe'llarga Aylanishi

O'timsiz fe'llarga *-dir, -tir, -r, -t* kabi qo'shimchalar qo'shish bilan o'timli holga aylantiriladi:

Serpil erkenden uyudu.	(o'timsiz)
Serpil çocuğu uyuttu.	(o'timli)
Çocuk annesine güldü.	(o'timsiz)
Çocuk annesini güldürdü.	(o'timli)
Ayşe yatağına yattı.	(o'timsiz)
Annesi Ayşe'yi yatağına yatırdı.	(o'timli)

SUB'EKTGA KO'RA KATEGORİYALAR

Bosh Nisbat, Majhul Nisbat, O'zlik Nisbati, Birgalik Nisbat, Orttirma Nisbat

Bajaruvchi (sub'ekti) ma'lum bo'lgan fe'llarga Bosh nisbat deyiladi.

Ayşe yemek yiyor.

Mehmet öğretmen olmuş.

Esen yarın İstanbul'a gidecek.

Gaplardagi ega ma'lumdir. Bu yuzdan *yiyor, olmuş, gidecek* fe'llari bosh nisbatdir. Bosh nisbat ham otimli va o'timsiz bo'lishi mumkin. Yuqorida berilgan misollardagi yemek fe'li o'timli; *olmak, gitmek* fe'llari esa o'timsizdir. Bosh nisbatning o'ziga xos muhim xususiyati eganing ma'lum bo'lishi va eganing fe'ldagi ish-harakatni bajarishidir. Bu yuzdan ish-haraketning bajaruvchisi ma'lum bo'lgan fe'llar bosh nisbatda kelib, sub'ektning vaziyati va bajaradigan ish-harakatiga qarab bosh nisbat qo'shimchalar olib ba'zi yangi fe'llarni hosil qiladi:

FE'L KATEGORİYASİ QO'SHİMCHALARİ BİLAN YASALGAN FE'LLAR

Fe'l o'zagi yoki negiziga qo'shimchalar keltirib o'zlik, majhullik, birgalik, orttirma nisbatlarini hosil qilgan qo'shimchalarga fe'l kategoriyasi qo'shimchalari deyiladi. Ular quyidagi to'rt bo'limda tekshirib chiqiladi:

* **Majhul nisbat**
* **O'zlik nisbati**
* **Birgalik nisbati**
* **Orttirma nisbat**

Fe'l kategoriyasi qo'shimchalari bilan turlangan bu fe'llarga shu misollarni keltirishimiz mumkin:

Hasan çocuğu dövdü.	(Bosh nisbat, ega harakatni bajargandir.)
Çocuk dövüldü.	(Majhul nisbat, ega ma'lum emas, çocuk fe'ldan tasirlangandir.)
Çocuğun annesi dövündü.	(O'zlik nisbati, anne harakatni bajarib ayni paytda undan ta'sirlangandir.)
Hasan'la çocuk dövüştü.	(Birgalik nisbati, Hasan va çoçuk harakatdan birgalikda ta'sir ko'rmoqdalar.)
Hasan çocuğu dövdürdü.	(Orttirma nisbat, ega ishni boshqasiga qildirmoqda.)

Yuqorida berilgan misollarda ko'rib turganimizdek bosh nisbatga fe'l kategoriyasi qo'shimchalari qo'shilib yangi fe'llar hosil qilinmoqda va ega turli ko'rinishga ega bo'lmoqda. Endi esa hosil qilingan yangi fe'l nisbatlarini qarab chiqaylik.

MAJHUL NİSBAT: -I(-il, -il, -ul, -ül);- n(-in, -in, -un, -ün)

(Tr. edilgen eylem; İng. passive verb; Germ. Leideform; Fr. verbe passif)

Haqiqiy harakatni bajarganning ma'lum bo'lmasdan balki to'ldiruvchi vazifasidagi sub'ektning harakatini o'ziga qabul qildirgan fe'llarga majhul nisbat deyiladi. Majhul nisbat fe'l asosiga *-I, -n* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Kapı aç**ıl**dı.	(Gap egasi noma'lum)
Duvar çiz**il**di.	(Gap egasi noma'lum)
Adam vu**rul**du.	(Gap egasi noma'lum)
Çocuk dö**vül**dü.	(Gap egasi noma'lum)

Unli yoki **-I, -r** undoshlari bilan tugagan so'zlardan keyin umuman **-n** qo'shimchasi bilan majhul nisbat hosil qilinadi:

-a	yaş**a**-mak	→	yaşa-**n**-mak	Güzel bir gün yaşandı.
-l	bi**l**-mek	→	bil-**in**-mek	Soruların hepsi bilindi.
-r	gö**r**-mek	→	gör-**ün**-mek	Uzaktan araba göründü.
-u	ok**u**-mak	→	oku-**n**-mak	Bütün kitaplar okundu.

O'ZLİK NİSBATİ: -I, -n, -ş

(Tr. dönüşlü eylem; İng. reflexive verb; Germ. reflexives Verb; Fr. verbe pronominal réfléchi)

Sub'ekt tomonidan bajarilib yana sub'ektning o'ziga qaytgan harakat va holatga o'zlik nisbati deyiladi. Bunda harakatning bajaruvchisi ham, harakat qaratilgan predmet ham bir shaxsning o'zi bo'ladi.

Anne çocuğu yıkadı.	(majhul nisbat)
Çocuk yıkandı.	(o'zlik nisbati)

Birinchi gapda anne çocuğunu yıkamaktadir. İkkinchi gapda esa çocuk kendi kendini yıkamaktadır. Bu yuzdan ikkinchi gapdagi yıkanmak fe'li o'zlik nisbatidir. O'zlik nisbati fe'l o'zagi yoki negiziga *-I, -n, -ş* qo'shimchalari qo'shish bilan hosil qilinadi.

Ba'zi hollarda majhul nisbat bilan o'zlik nisbati bir-birlari bilan aralashtiriladi. Buning asosiy sababi esa *-l, -n* qo'shimchalarining ham majhul hamda o'zlik nisbatida ishlatilishidir. Bu yuzdan gapning majhul yoki o'zlik nisbati bo'lganligini aniqlash uchun ularning ma'nosiga qaraladi. Bularga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin:

Çocuk yıkandı. (Çocuk bir başkası tarafından yıkanmışsa, majhul nisbat)

Çocuk yıkandı. (Çocuk kendi kendini yıkamışsa, o'zlik nisbati)

O'zlik Nisbati Qo'shimchasi: -l(-il -ıl,- ul,- ül)

Bu işe gerçekten çok üz**ül**düm.	üz-mek → üz-**ül**-mek
Dağa çıkarken hepimiz çok yor**ul**duk.	yor-mak → yor-**ul**-mak
Yaşlı adam bir köşeye büz**ül**dü.	büz-mek → büz-**ül**-mek
Düşman askerleri dağın arkasına çek**il**di.	çek-mek → çek-**il**-mek
İki gün süren dev dalgalardan sonra deniz dur**ul**du.	dur-mak → dur-**ul**-mak
Askerler ileriye at**ıl**dı.	at-mak → at-**ıl**-mak
Öğrenciler karşımıza diz**il**di.	diz-mek → diz-**il**-mek

O'zlik Nisbati Qo'shimchasi: -n (-ın, -in, -un, -ün)

Sınavı başarınca çok sev**in**dim.	sev-mek → sev-**in**-mek
Bu sabah erkenden giy**in**dim.	giy-mek → giy-**in**-mek
Gelirken müdüre gör**ün**düm.	gör-mek → gör-**ün**-mek
Geçen yıl Hasan Bey eşinden boş**an**dı.	boşa-mak → boşa-**n**-mak

Ahmet Bey uyumak için hemen soy**un**du.	soy-mak → soy-**un**-mak
Adam, düşmemek için pencereye tut**un**du.	tut-mak → tut-**un**-mak
Yaşlı kadın akşama kadar döv**ün**dü.	döv-mek → döv-**ün**-mek

O'zlik Nisbati Qo'shimchasi: -ş (-ış, -iş, -uş, -üş)

Genç kadın küpelerini, kolyelerini taktı,tak**ış**tırdı.	tak-mak → tak-**ış**-tır-mak
Kısa bir süre sonra halkta yanlış bir kanı ol**uş**tu.	ol-mak → ol-**uş**-mak
Ahmet Bey bu kez de politikacı olmaya kalk**ış**tı.	kalk-mak → kalk-**ış**-mak
Çok çalıştım, ama sonunda isteklerime eri**ş**tim.	er-mek → er-**iş**-mek
Küçük çocuk, tam bir dövüşçü gibi yeti**ş**ti.	yet-mek → yet-**iş**-mek
Yaşlı adam, oğlunu görünce, genç delikanlıya dön**üş**tü.	dön-mek → dön-**üş**-mek
Dün akşama kadar koş**uş**turdum.	koş-mak → koş-**uş**-tur-mak

Ba'zi hollarda o'zlik olmoshlaridan foydalanilgan holda o'zlik nisbati bosh nisbat holiga keltiriladi. Faqat bu holat butun o'zlik nisbatlariga tegishli emasdir.

Kendinizi çok övmeyiniz.	→	Çok övünmeyiniz.
Kendinizi çok yormayınız.	→	Çok yorulmayınız.
Kendinizi iyi yıkayınız.	→	İyi yıkanınız.

Ayşe bakındı	→	Ayşe kendini baktı (olmaz).
Adam giyindi	→	Adam kendini giydi (olmaz),

BİRGALİK NİSBATİ: -ş (-iş,-ış,-uş,-üş)

(Tr. işteş eylem; İng. reciprocal verb; Germ. reziprokes Verbum; Fr. verbe pronominal réciproque)

Biron bir ish-harakatning ikki yoki undan ortiq sub'ekt tomonidan birgalikda bajarilisihiga birgalik nisbati deyiladi. Birgalik nisbat fe'l asosiga (-ş) qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi. Birgalik nisbati asosan ikki vazifani bajarib keladi:

1. Bir harakatning qarshilikli o'laroq amalga oshirilganligini ifodalaydi (Birgalik-o'zlik):

Hamdi ile Murat döv**üştüler**.	dövmek → döv-**üş**-mek
Almanlar ile Fransızlar çarp**ıştılar**.	çarp-mak → çarp-**ış**-mak
Yeni konuklarımızla dün tanı**ştık**.	tanı-mak → tanı-**ş**-mak
Anneyle çocuk hasretle kucakla**ştılar**.	kucakla-mak → kucakla-**ş**-mak
Müdürle dün akşam gör**üştük**.	gör-mek → gör-**üş**-mek

2. Bir harakatning ko'plik tomonidan amalga oshirilganligini ifodalaydi (Birgalik-ko'plik):

Yangın çıkınca apartmandaki insanlar kaç**ıştılar**.	kaç-mak → kaç-**ış**-mak
Kuşlar yükseklere doğru uç**uştular**.	uç-mak → uç-**uş**-mak
Polisler olay yerine koş**uştular**.	koş-mak → koş-**uş**-mak
Salondaki tüm izleyiciler gül**üştüler**.	gül-mek → gül-**üş**-mek
Bu üzücü olaya saatlerce ağla**ştılar**.	ağla-mak → ağla-**ş**-mak

Ba'zan belgisiz olmoshlar bilan qurilgan gaplar birgalik nisbati bilan bir xil ma'noni tashib keladi:

Birbirlerine gülmüşler.	→	gül**üş**müşler
Birbirlerini tanımışlar.	→	tanı**ş**mışlar
Birbirlerini dövmüşler.	→	döv**üş**müşler
Birbirimize baktık.	→	bak**ıştık**

ORTTİRMA NİSBAT: -drt, -r, -t

(Tr. ettirgen eylem; İng. factitive verb; Germ. faktitives Verb; Fr. verbe factitif)

Bir on bir ish-harakatning bajarilishida boshqa shaxslarning ishtirok etganligini yoki bu ishning bajarilishiga sabab bo'lganligini va yordamchi bo'lganligini ifodalovchi

fe'llarga orttirma nisbati deyiladi. Umuman ishni bajargan sub'ektdir. Faqat orttirma nisbati bilan qurilgan gaplarda ega ishni qildirgandir. Orttirma nisbati fe'l asosiga *-dır, -r, -t* qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi. Orttirma nisbatini quyidagi misollar bilan ko'rsatamiz:

Bosh Nisbat	Öğrenci kitabı okudu.	(oku-mak)
Orttirma Nisbat	Öğretmen kitabı öğrenciye okuttu.	(oku-t-mak)

Birinchi gapdagi öğrenci kitabı kendiliğinden okumuştur. Faqat ikkinchi gapda, öğrenciye kitabı öğretmen okutmuştur. Bu yuzdan ikkinchi gapdagi okutmak fe'li orttirma nisbatidir. Quyidagi misollar bilan ko'rsatishimiz mumkin:

Orttirma Nisbat Qo'shimchasi: -dir (-dır,- dur,- dür) - tir(- tır,- tur,- tür)

Sekreter mektupları yazıyor.	→	Müdür mektupları sekretere yaz**dır**ıyor.
Terzi elbise dikiyor.	→	Ayşen elbiseyi terziye dik**tir**iyor.
Memur para bozuyor.	→	Turgut parayı memura boz**dur**uyor.
Hırsız konuşuyor.	→	Polis hırsızı konuş**tur**uyor.
İşçiler çatıyı tamir etti.	→	Hasan Bey işçilere çatıyı tamir et**tir**di.

Orttirma Nisbat Qo'shimchasi: -r (-ar, -er, -ır, -ir, -ur, -ür)

Çocuk su içti.	→	Anne çocuğa su iç**ir**di.
Öğrenciler sınıftan çıktı.	→	Öğretmen öğrencileri sınıftan çık**ar**dı.
Küçük çocuk kaçtı.	→	Hırsızlar küçük çocuğu kaç**ır**dı.
Ayşe erkenden yattı.	→	Annesi Ayşe'yi erkenden yat**ır**dı.

Orttirma Nisbat Qo'shimchasi: -t

Aysel çamaşırları yıkadı.	→	Aysel çamaşırları temizlikçi kadına yıkat**tı**.
Hasan elbiseleri temizledi.	→	Hasan elbiseleri temizlet**ti**.
Yeşim erkenden uyudu.	→	Annesi Yeşim'i erkenden uyut**tu**.

Yaşlı kadın bavulları taşıyor.	→	Yaşlı kadın bavulları taşıtıyor.
Müdür evrakları imzaladı.	→	Sekreter müdüre evrakları imzalattı.

Orttirma va İshtirokli Orttirma Nisbat

Orttirma nisbatlarni ikki bo'limga bo'lgan holda tekshirish kerak:

1. Sub'ektning bir ishni boshqasiga bevosita qildirilishi.
2. Sub'ektning bir ishni boshqalariga bilvosita qildirilishi.

Bu holatni bir necha misollar bilan ko'rsatamiz:

Çocuk uyudu. (Çocuk kendi kendine uyumuştur.)

Anne çocuğu uyu**ttu**. (Çocuğu anne uyutmuştur.)

Anne çocuğu dadıya uyu**ttur**du. (Anne çocuğu dadıya uyutturmuştur.)

"Anne çocuğu uyuttu" misolda sub'ekt ishni to'gridan (bevosita) çocuğa qildirmoqda. Çocuk kendiliğinden uyumamış, annesi ona ninni söyleyerek ya da kucağında sallayarak değişik yöntemlerle uyutmuştur. *"Anne çocuğu dadıya uyutturdu"* misolida esa anne çocuğu dadı aracılığıyla uyutturmuştur. Bu ikki orttirma nisbatlarni bir-birlaridan ajratish uchun bir vositachi yordamidagi orttirma nisbatni ishtirokli orttirma nisbat deb ataymiz. İshtirokli orttirma nisbati bir necha orttirma nisbat qo'shimchalarining ustma-üst kelishi bilan yasaladi:

Adam öldü. (Bosh nisbat)

Ali adamı öl**dür**dü. (Orttirma nisbat)

Ali adamı kiralık katillere öl**dür**ttü. (İshtiroklik orttirma nisbati: öl-**dür-t-**tü)

Yeşim yemeği yedi. (Bosh nisbat)

Annesi Yeşim'e yemeği ye**dir**di. (Orttirma nisbat)

Annesi Yeşim'e yemeği dadı aracılığıyla ye**dirt**ti. (İshtiroklik orttirma nisbati: ye-**dir-t**-ti)

Orttirma Nisbat ishni bajarish jihatidan:

a) Bir ishni boshqasiga qildirish;

b) İshning bajarilishiga yordamchi bo'lish yoki sababchi bo'lish;

c) O'timsiz fe'lni o'timliga aylantirish kabi guruhlarga bo'linadi.

Orttirma va Qildirgan Nisbatlar

Orttirma Nisbatlar Turkchada eng ko'p tortishilgan muhim mavzulardan biridir. Buning sababi esa ba'zi fe'llarning orttirma nisbati qo'shimchasi bilan qo'shilib kelsada biroq orttirma ma'nosini bermasligidir.

Yemek pişti.

Esen yemeği pişirdi.

Gaplardagi *piş-mek* fe'li orttirma nisbat qo'shimchasi olgan holda piş-ir-mek shakliga o'zgargan. Faqat pişirmek fe'lining orttirma nisbat bo'lganligi munozarali mavzudir. Çünkü Esen yemeği bizzat kendisi pişirmekte, bu işi başkasına yaptırmamaktadır. Orttirma nisbatida sub'ekt ishni bajargan emas balki qildirgandir. Bu gapning orttirma nisbati shaklida bo'lishi uchun quyidagicha qurilishi kerak:

Esen yemeği aşçıya pişirtti.

Gapda Esen yemeği aşçıya pişirttiği için pişirtmek uchun pishirmek fe'li orttirma nisbattadir. *"Esen yemeği pişirdi."* misolida pişmek fe'liga qo'shilgan *-ır* qo'shimchasi bu fe'lni faqatgina o'timli fe'lga aylantirgandir.

Yemek pişti. (o'timsiz fe'l)

Esen yemeği pişirdi. (o'timli fe'l)

Orttirma nisbatlardagi bu qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun fe'l asosiga qo'shiluvchi qo'shimchalarni vazifasiga qarab quyidagi bo'limlar ustida tekshirib chiqish kerak:

*** O'timsiz fe'llarni o'timliga aylantirmoq**

*** Orttirma nisbat hosil qilmoq**

O'timsiz fe'llar asosiga *-dir, -r, -t* qo'shimchalari qo'shish bilan o'timli fe'l holiga aylantirilishidan hosil bo'lgan nisbatlarga qildirgan nisbat deyiladi. Bu nisbatda orttirma nisbat xususiyati yo'qdir. Faqatgina o'timsiz fe'l o'timli fe'l holiga o'zgaradi. Har ikki nisbatlar ham bir xil qo'shimchalar bilan qo'shilib yasalganligi uchun bir-birlaridan ayirish qiyin bo'lmoqdadir. Buning eng oson va qulay yo'li esa gaplarning ma'nosiga qarashdir:

Kalem suya battı.

Cengiz kalemi suya batırdı.

Birinchi gapda batmak fe'li o'timsiz fe'ldir. İkkinchi gapdagi batırmak fe'liga *-ır* orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilib faqat Cengiz kalemi suya kendisi batırdığı va sub'ekt ishni boshqa biriga qildirmaganligi uchun batırmak fe'li orttirma nisbat emas balki qildirgan nisbatdadir. Bunga yana quyidagi misollarni keltiramiz:

Kemal, masasıyla aşağı odaya indi. (o'timsiz fe'l)
Kemal, masasını aşağı odaya in**dir**di. (qildirgan nisbat)
Kemal, masasını aşağı odaya in**dirt**ti. (orttirma nisbat)

Ayşen, çiçeklerle yan odaya geçti. (o'timsiz fe'l)
Ayşen, çiçekleri yan odaya geç**ir**di. (qildirgan nisbat)
Ayşen çiçekleri yan odaya geç**irt**ti. (orttirma nisbat)

Umuman olganda tilshunoshlar orttirma va qildirma nisbatlari deya ayırmasdan faqatgina orttirma nisbat nomi ostida har ikki nisbat fe'llarini to'plab ko'rsatgan bo'lsada yuqoridagi misollar bu ikki nisbatning ajratib ko'rsatilishi kerakligini o'rtaga qo'ymoqdadir.

BİRDAN ORTİQ VAZİFANİ BAJARİB KELUVCHİ FE'L KATEGORİYALARİ

Turkchada qo'shimchalar bir hecha vazifani bajarib keladi.

Misol uchun *-l, -n* qo'shimchalari ham majhul hamda o'zlik nisbati hosil qilinishida foydalaniladi:

majhul nisbat	→	Kapı aç**ıl**dı.
o'zlik nisbati	→	Esen yor**ul**du.

majhul nisbat	→	Araba yık**an**dı.
o'zlik nisbati	→	Esen yık**an**dı.

Bunday hollarda fe'lning qaysi nisbatda ifodalanganligini o'rganish uchun gapning ma'nosiga qarash kerak. Bu shakilda *-ş* qo'shimchasi ham o'zlik hamda birgalik nisbatlari hosil qilishda foydalaniladi:

o'zlik nisbati : Tak, tak**ış**tır, bu akşam bana gel.
birgalik nisbati : Çocuklar döv**üş**tüler.

KO'P KATEGORİYALİ FE'LLAR

Ba'zan fe'llar birdan ortiq fe'l qo'shimchalari bilan qo'shilib keladi. Bunday fe'llarga ko'p kategoriyali fe'llar deyiladi. Bunday fe'llarda har bir fe'l kategoriyasi alohida-alohida o'z vazifasini bajarib keladi. Ularga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Hasan Bey müdürle tanı**şt**ı**r**ı**l**dı.

birgalik nisbat qo'shimchasi	: -ş	tanı-**ş**-mak
orttirma nisbat qo'shimchasi	: -tır	tanı-ş-**tır**-mak
majhul nisbat qo'shimchasi	: -ıl	tanı-ş-tır-**ıl**-mak

Ayşe Hanım bakanla gör**üş**t**ür**ü**l**dü.

birgalik nisbat qo'shimchasi	: -üş	gör-**üş**-mek
orttirma nisbat qo'shimchasi	: -tür	gör-üş-**tür**-mek
majhul nisbat qo'shimchasi	: -ül	gör-üş-tür-**ül**-mek

Fe'l nisbatlariga qo'shilib keluvchi qo'shimchalarni quyidagi umumiy jadvalda ko'rsatish mumkin:

FE'L KATEGORİYASİ QO'SHİMCHALARİ

Majhul nisbat qo'shimchalari	-I (-ıl, -il, -ul, -ül) -n (-ın, -in, -un, -ün)
O'zlik nisbat qo'shimchalari	-n (-ın, -in, -un, -ün) -l (-ıl, -il, -ul, -ül) -ş (-ış, -iş, -uş, -üş)
Birgalik nisbat qo'shimchalari	-ş (-ış, -iş, -uş, -üş)
Orttirma nisbat qo'shimchalari	-r (-ır, -ir, -ur, -ür) -t -dır (-dir, -dur, -dür) -tır (-tir, -tur, -tür)

Birdan ortiq fe'l kategoriyasi qo'shimchalarining fe'lga qo'shilib kelishi taqdirida ma'lum bir tartib kuzatilmoqda:

bul - uş - tur - ul - mak

fe'l + birgalik nisbat qo'shimchasi + orttirma n. q. + majhul n. q.

soy - un - dur - ul - mak

fe'l + o'zlik n. q. + orttirma n. q. + majhul n. q.

UNUTMANG!

FE'LLAR

Biron bir ish harakatning bajarilishini va jarayon tarzidagi holatni izohlab shaxs, zamon va holatni ifodalab keluvchi so'zlarga fe'l deyiladi. Fe'l-o'zak va qo'shimchadan tashkil topadi:



Fe'l O'zagi

Fe'l asosidan **-mak, -mek** qo'shimchalari chiqarilganda o'zak qoladi: Sev-, bil-, gör-... kabi.

Fe'l Negizi

Fe'l o'zagiga yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan hosil qilingan yangi asosga fe'l negizi deyiladi.

sev-	:	fe'l o'zagi
sevil-	:	fe'l negizi

Fe'l o'zagi yana ham kichik ma'noli bo'laklarga ajralmaydi. Fe'l negizi esa yana ham kichik ma'noli bo'laklarga ajratila oladi.

Fe'llarda Shaxs va Zamon Kategoriyasi

Fe'l o'zagiga qo'shiluvchi qo'shimchalar fe'lning shaxsini va zamonini ifodalab keladi.

FE'L KATEGORİYALARİ

Fe'llarning ob'ektiv va sub'ektiv holatlariga qarab fe'l kategoriyasi qo'shimchalari qo'shish bilan hosil qilingan yangi fe'llarga fe'l kategoriyalari deyiladi: *sevmek, sevilmek, sevişmek, sevdirmek, sevindirmek, sevindirtmek*.. kabilar.

Turkchadagi fe'l kategoriyalari ob'ekt va sub'ektning holatiga qarab quyidagicha bo'linadi:

Ob'ektga ko'ra	**Sub'ektga ko'ra**	
1. O'timli fe'l	1. Bosh nisbat	4. Birgalik nisbati
2. O'timsiz fe'l	2. Majhul nisbat	5. Orttirma nisbati
	3. O'zlik nisbati	

OB'EKTGA KO'RA KATEGORİYALAR

O'timli Fe'llar

Sub'ekt (bajaruvchi)ning amalga oshirayotgan ish yoki harakati jonli va jonsiz borliqga ta'sir ko'rsatib ularda biror o'zgarishni yuzaga keltirayotgan bo'lsa bunday fe'llarga o'timli fe'l deyiladi. O'timli fe'llardan ta'sirlangan va fe'lning ma'nosini tugallab keluvchi so'zlarga esa ob'ekt (predmet) deyiladi.

"Ahmet kitabı okuyor" misolidagi kitabi so'zi bir ob'ektdir. O'timli fe'llar mutlaqo ob'ektni ifodalab keladi. Ob'ektni aniqlash uchun neyi, kimi savollarini beramiz.

Nurten **çiçekleri** suluyor. Nurten neyi suluyor? → çiçekleri

O'timsiz Fe'llar

Sub'ekt (bajaruvchi)ning ishi yoki harakati jonli va jonsiz borliqga ta'sir ko'rsatmasa bunday fe'llarga o'timsiz fe'llar deyiladi. O'timsiz fe'llar neyi, kimi savollariga javob bermaydi.

Çocuklar hep birlikte güldüler.

SUB'EKTGA KO'RA KATEGORİYALAR

Bosh Nisbat: Sub'ekti ma'lum bo'lgan fe'llarga bosh nisbat deyiladi.

Orhan erkenden okula gitti.

FE'L KATEGORİYASİ QO'SHİMCHALARİ BİLAN YASALGAN FE'LLAR

Fe'l kategoriyasi qo'shimchalari bilan hosil qilingan fe'llar to'rtga bo'linadi:

* **Majhul Nisbat:** Fe'l o'zagi yoki negiziga *-l, -n* qo'shimchalari qo'shish bilan hosil qilinadi: sev-**il**-mek, bil-**in**-mek, yaz-**ıl**-mak, oku-**n**-mak, aç-**ıl**-mak... kabi.

* **O'zlik Nisbati:** Sub'ekt tomonidan bajarilib yana sub'ektning o'ziga qaytgan harakat yoki holat fe'lidir. O'zlik nisbati fe'l o'zagi yoki negiziga *-l, -n, -ş* qo'shimchalari qo'shish bilan yasaladi:

-l : Tayfun'un ölümüne çok üz**ül**düm.
-n: Yarışlarda birinci olunca çok sev**in**dim.
-ş : Tatilde genç bir delikanlıya dön**üş**tüm.

* **Birgalik Nisbati:** Biron bir ish-harakatning ikki yoki undan ortiq sub'ekt tomonidan birgalikda bajarilishiga aytiladi. Birgalik nisbati fe'l asosiga *-ş* qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi va vazifasiga qarab ikkiga bo'linadi:

* Biron bir ish-harakatning qarshilikli o'laroq amalga oshirilganligini ifodalaydi:

Çocuklarla tam iki saat gör**üş**tük.

* Bir harakatning ko'plik tomonidan amalga oshirilganligini ifodalaydi:

Kuşlar gökyüzüne doğru uç**uş**tular.

* **Orttirma Nisbat:** Biron bir ish-harakatning boshqalariga qildirilganligini ifodalovchi fe'llardir. Orttirma nisbat fe'l asosiga *-dır, -r, -t* qo'shimchalari qo'shish bilan hosil qilinadi:

-r	: Çocuk su içti.	→	Anne çocuğa su iç**ir**di.
-t	: Çocuk uyudu.	→	Anne çocuğu uyu**t**tu.
-dır	: Sekreter mektupları yazdı.	→	Müdür mektupları sekretere yaz**dır**dı.

BİRDAN ORTİQ VAZİFANİ BAJARİB KELUVCHİ FE'L KATEGORİYALARİ

-l, -n qo'shimchalari majhul va o'zlik nisbatlari hosil qilishda foydalaniladi.

KO'P KATEGORİYALİ FE'LLAR

Ba'zi fe'llar birdan ko'p qo'shimchalar bilan qo'shilib keladi:

Orhan başbakanla gör**üştürül**dü. → gör-üş-tür-ül-dü

majhul nisbat	→	Pencere açıldı.
o'zlik nisbati	→	Ayşe üz**ül**dü.

majhul nisbat	→	Araba yıkandı.
o'zlik nisbati	→	Engin yıkandı.

FE'LLARNİNG TUSLANİSHİ VA MAYLLAR

(Tr. Eylem çekimi ve kipler; İng. conjugation; Germ. konjugation; Fr. paradigma, mode)

Fe'llarning o'zak yoki negiziga tuslovchi qo'shimchalar qo'shilib kelinishiga fe'l tuslanishi deyiladi. Fe'l o'zagining o'ziga xos bir ma'nosi bo'lib unga qo'shilib kelgan qo'shimchalar fe'lga zamon, shaxs, mayl, son, so'roq, bo'lishli va bo'lishsizlik ma'nolarini beradi.

FE'LLARDA ZAMON KATEGORİYASİ *(Tr. Eylemde zaman; İng. verbal tense; Germ. Tempus; Fr. temps de verbe)*

Zamon kategoriyasi fe'l ifodalagan harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Turkchada besh xil zamon turi bor:

* **Hozirgi zamon**
* **Aniq o'tgan zamon**
* **Uzoq o'tgan zamon**
* **Kelasi zamon**
* **Kelasi zamon gumon fe'li**

FE'LLARDA MAYL KATEGORİYASİ *(Tr. Eylemde kip; İng. verbal mood; Germ. Modus; Fr. mode du verbe)*

Harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi. Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib keladi. Turkchada to'qqiz tur mayl shakli bor. Bu to'qqiz shakl ijro mayli va hohish mayli bo'lib ikki asosiy bo'limga bo'linadi:



Sodda va Murakkab Zamonli Fe'llar

Turkchada fe'llar zamon kategoriyasi jihatidan ikkiga bo'linadi:

* **Sodda zamonli fe'llar**
* **Murakkab zamonli fe'llar**

Turk tilidagi to'qqiz turdagi mayl shakillarining sodda zamonli fe'llarga ko'ra tuslanishi quyidagichadir:

İJRO MAYLLARİ *(Tr. bildirme kipleri; İng. indicative; Germ. indikativ; Fr. mode indicatif)*

Hozirgi Zamon: -iyor (-ıyor, -uyor, -üyor)

Fe'lning hozirgi zamon shakli harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotganligini bildiradi. Hozirgi Zamon qo'shimchasi ba'zan bir harakatning davomliligini ifodalagan kelasi zamon gumon fe'li va kelasi zamon harakatini ham anglatib keladi:

Bu işi iki yıldan beri yap**ıyor**uz.

Ben yarın gel**iyor**um.

Biz yarın pikniğe gidi**yor**uz.

sev-mek	**sev-me-mek**
sev-**iyor**-um	sev-mi-**yor**-um
sev-**iyor**-sun	sev-mi-**yor**-sun
sev-**iyor**	sev-mi-**yor**
sev-**iyor**-uz	sev-mi-**yor**-uz
sev-**iyor**-su-nuz	sev-mi-**yor**-sunuz
sev-**iyor**-lar	sev-mi-**yor**-lar

so'roq shakli	
sev-**iyor** mu-y-um	sev-mi-**yor** mu-y-um
sev-**iyor** mu-sun	sev-mi-**yor** mu-sun
sev-**iyor** mu	sev-mi-**yor** mu
sev-**iyor** mu-y-uz	sev-mi-**yor** mu-y-uz
sev-**iyor** mu-sunuz	sev-mi-**yor** mu-sunuz
sev-**iyor** lar-mı	sev-mi-**yor** lar-mı

Hozirgi zamon qo'shimchasi *-ıyor* unli uyg'unligi ta'siri bilan *-iyor, -uyor, -üyor* shakliga o'zgaradi:

al-*ıyor*, gel-*iyor*, otur-*uyor*, gör-*üyor* ... kabi.

Fe'l o'zagi unli bilan tugayotgan bo'lsa *-ıyor* qo'shimchasi *-yor* shaklini oladi:

oku-mak → oku-**yor**

uyu-mak → uyu-**yor**

a, e tovushlari bilan tugagan fe'l o'zaklarida y undoshinin ta'siri bilan ı, i, u, ü unlilariga o'zgaradi:

anl**a**-mak	→	anl**ı-yor**	yaşa-mak	→	yaş**ı-yor**
dinl**e**-mek	→	dinl**i-yor**	izle-mek	→	izl**i-yor**
özl**e**-mek	→	özl**ü-yor**	gözle-mek	→	gözl**ü-yor**
oyn**a**-mak	→	oyn**u-yor**	bekle-mek	→	bekl**i-yor**

Aniq O'tgan Zamon: -di (-dı, -du,- dü); - ti (- tı, - tu,- tü)

Bu shakl ma'no tomonidan o'tmishda aniq bajarilgan harakatni ko'rsatadi:

sev-mek	**sev-me-mek**	**so'roq shakli**	
sev-**di**-m	sev-me-**di**-m	sev-**di** -m mi	sev-me-**di**-m mi
sev-**di**-n	sev-me-**di**-n	sev-**di** -n mi	sev-me-**di**-n mi
sev-**di**	sev-me-**di**	sev-**di** mi	sev-me-**di** mi
sev-**di**-k	sev-me-**di**-k	sev-**di** -k mi	sev-me-**di**-k mi
sev-**di**-niz	sev-me-**di**-niz	sev-**di** -niz mi	sev-me-**di**-niz mi
sev-**di**-ler	sev-me-**di**-ler	sev-**di**-ler mi	sev-me-**di**-ler mi

Aniq o'tgan zamon qo'shimchasi (-dı) unli uygunligi qonuniga bo'ysinadi:

yaz-**dı**-m, bil-**di**-m, bul-**du**-m, gör-**dü**-m... kabi.

Aniq o'tgan zamon qo'shimchasi (-dı) undosh orttirmasi qonuniga bo'ysinadi:

bırak-**tı**-m, git-**ti**-m, tut-**tu**-m, görüş-**tü**-m... kabi.

Aniq o'tgan zamonda shaxs qo'shimchasi boshqa shaxs qo'shimchalariga ko'ra farqlilik ko'rsatadi:

ben	- m
sen	- n
o	-
biz	- k
siz	- niz
onlar	- ler

Uzoq O'tgan Zamon: - miş (-mış, -muş, -müş)

Harakatning nutq paytidan ancha ilgari aniq bajarilganligini, so'zlovchining ko'z o'ngida yuz bermagan har xil faktlar asosida yoki turli manbalar vositasida aniqlangan yoki noaniq bo'lgan holatlarni ifodalaydi.

- Ahmet ne zaman geldi?

- Bilmiyorum, dün saat beşte gel**miş.**

-Sen ne zaman konuşmaya başladın?

-Ben iki yaşında konuş**muş**um.

Harakat sodir bo'lish asnosida emas balki so'ngradan farq etilgan voqea-hodisalar ko'pincha bu shakl bilan ifodalanadi:

Cüzdanım çalın**mış**.

Aaa! Boyun ne kadar uza**mış**.

Yemekler çok tuzlu ol**muş**.

-dır qo'shimchasi bilan kelganda ikki xil ma'noni ifodalab keladi:

a) Taxmin, gumon, noaniqlik ma'nosi ifodalanadi

Bu keki yapsa yapsa Naciye yap**mış**tır.

Çocukların uyku saati geçti. Çocuklar çoktan uyu**muş**lardır.

Bu kompozisyonu Ahmet arkadaşına yazdır**mış**tır.

b) Aniqlikliknì, qat'iy ishonch voqealarini ifodalab keladi (e'lon, xabar berish kabi)

Mağazamızda indirimli satışlar başla**mış**tır.

Kursumuza kayıtlar başla**mış**tır.

Sınav bit**miş**tir. Kalemlerinizi bırakın.

Bu binanın kaloriferleri Buderus şirketi tarafından yapıl**mış**tır.

sev-mek	sev-me-mek	so'roq shakli	
sev-**miş**-im	sev-me-**miş**-im	sev-**miş** mi-y-im	sev-me-**miş** mi-y-im
sev-**miş**-sin	sev-me-**miş**-sin	sev-**miş** mi-sin	sev-me-**miş** mi-sin
sev-**miş**	sev-me-**miş**	sev-**miş** mi	sev-me-**miş** mi
sev-**miş**-iz	sev-me-**miş**-iz	sev-**miş** mi-y-iz	sev-me-**miş** mi-y-iz
sev-**miş**-siniz	sev-me-**miş**-siniz	sev-**miş** mi-siniz	sev-me-**miş** mi-siniz
sev-**miş**-ler	sev-me-**miş**-ler	sev-**miş**-ler mi	sev-me-**miş**-ler mi

Uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi (-mış) unli uyg'unligi qoidasiga bo'ysinadi:

bak-**mış**, gel-**miş**, oku-**muş**, gör-**müş**.... kabi.

Kelasi Zamon: -acak, -ecek

Fe'lning kelasi zamon shakllari nutq paytidan keyin bajariladigan harakatni bildiradi.

sev-mek	sevme-mek	so'roq shakli	
sev-**eceğ**-im	sev-me-y-**eceğ**-im	sev-**ecek** mi-yim	sev-me-y-**ecek** mi-yim
sev-**ecek**-sin	sev-me-y-**ecek**-sin	sev-**ecek** mi-sin	sev-me-y-**ecek** mi-sin
sev-**ecek**	sev-me-y-**ecek**	sev-**ecek** mi	sev-me-y-**ecek** mi
sev-**eceğ**-iz	sev-me-y-**eceğ**-iz	sev-**ecek** mi-y-iz	sev-me-y-**ecek** mi-y-iz
sev-**ecek**-siniz	sev-me-y-**ecek**-siniz	sev-**ecek** mi-siniz	sev-me-y-**ecek** mi-siniz
sev-**ecek**-ler	sev-me-y-**ecek**-ler	sev-**ecek**-ler mi	sev-me-y-**ecek**-ler mi

-Kelasi zamon qo'shimchasi *acak (-ecek)* birlik shakli ko'plikda (-acağ, -eceğ) shaklini oladi. Chunki ikki unli o'rtasidagi k tovushi yumshoq ğ ga o'zgaradi:

okuyacağım, sevmeyeceğiz... kabi.

Turkchada ikki unli bir orada kelmaganligi uchun me bo'lishsiz qo'shimchasidan keyin o'rtaga **y** himoyachi undoshi qo'yiladi:

sevme**y**eceğim, sevme**y**eceksin, sevme**y**ecek kabi.

ye- de- fe'llarida e > i ga o'zgaradi:

yiyeceğim, diyeceğim... kabi.

Kelasi zamon gumon fe'li: -r (-ar, -er, -ir, -ır, -ur, -ür)

Fe'l shaklining ifodalagan harakati zamon bilan chegaralanmagan, doim bo'lib turganligini va kelgusida ham davom etishini anglatadi. Bu yuzdan bir ma'noda o'tgan, hozirgi va kelgusi zamonlarni o'z ichiga olib keladi:

Hech o'zgarmagan vaziyatlarni ifodalaydi:

İnsanlar binlerce yıldan beri doğ**ar**, büyü**r** ve öl**ür**ler.

Güneş her gün doğudan doğ**ar**, batıdan bat**ar**.

Yüzyıllardan beri, bu güzel dünyamızda sular ak**ar**, kuşlar öt**er**, çiçekler aç**ar**, bahar bit**er**, yaz gel**ir**, yaz bit**er**, kış gel**ir**. Barışı sev**er** insanlar, bir bak**ar**sın, barış bit**er**, savaş gel**ir**.

Tez-tez qilinadigan yoki odat tusiga kelib qolgan holatlarni ifodalaydi:

Mehmet Bey sabahları bir saat yürüyüş yap**ar**.

Sergül her yıl yazları Bursa'daki yazlıklarına gid**er**.

Biz sigara içmeyiz ama onlar içer**ler**.

So'roq shaklida iltimosni, yumshoq tarzdagi buyurishni yoki biron-bir taklifni ifodalab keladi:

Benimle evlen**ir** misin?

TÖMER'e benimle beraber gel**ir** misin?

Bu sorunun cevabını siz ver**ir** misiniz?

Kafeteryada çay içmek ist**er** misin?

sev-mek	**sev-me-mek**	**so'roq shakli**	
sev-**er**-im	sev-**me**-m	sev-**er** mi-yim	sev-**mez**-mi-y-im
sev-**er**-sin	sev-**mez**-sin	sev-**er** mi-sin	sev-**mez** misin
sev-**er**	sev-**mez**	sev-**er** mi	sev-**mez** mi
sev-**er**-iz	sev-**me**-yiz	sev-**er** mi-y-iz	sev-**me-z**-mi-y-iz
sev-**er**-siniz	sev-**mez**-siniz	sev-**er** mi-siniz	sev-**mez** mi-siniz
sev-**er**-ler	sev-**mez**-ler	sev-**er**-ler mi	sev-**mez**-ler mi

Unli bilan tugagan fe'l o'zaklaridan keyin kelasi zaman gumon fe'li qo'shimchasi **-r** keladi:

yaşa-**r**, uyu-**r**, büyü-**r**, oku-**r**, söyle-**r**... kabi.

İkki yoki undan ortiq bo'g'inli undosh bilan tugagan fe'l o'zaklaridan keyin **-ır, -ir, -ur, -ür** qo'shimchasi keladi:

çalış-**ır**, getir-**ir**, unut-**ur**, görüş-**ür** ... kabi.

Bir bo'g'inli undosh bilan tugagan fe'l o'zaklaridan keyin **-ar, -er** qo'shimchasi keladi:

yaz-**ar**, sat-**ar**, bak-**ar**, sil-**er**... kabi.

* Faqat bir bo'g'inli bo'lsa ham undosh bilan tugagan 13 fe'ldan keyin **-ır, -ir, -ur, -ür** qo'shimchasi keladi:

al-**ır**, ol-**ur**, öl-**ür**, var-**ır**, ver-**ir**, vur-**ur**, dur-**ur**, gör-**ür**, bil-**ir**, bul-**ur**, gel-**ir**, kal-**ır**, san-**ır**

HOHİSH MAYLLARİ *(Tr. isteme kipleri; İng. subjunctives; Germ. subjunktiv; Fr. subjonctif)*

Fe'l shaklining ifodalagan harakatning bajarilishi asnosida istak, tilak-shart, keraklilik va buyruq ma'nolari ifodalanib kelsa bundag mayllarga istak mayllari deyiladi. İstak mayllari to'rtga bo'linadi:

İstak Mayli: -a, -e

İstak mayli istak va hohishni bildiradi.

sev-mek	**sev-me-mek**	**so'roq shakli**	
sev-**e**-y-im	sev-me-y-**e**-y-im	sev-**e**-y-im mi	sev-me-y-**e**-y-im mi
sev-**e**-sin	sev-me-y-**e**-sin	-	-
sev-**e**	sev-me-y-**e**	-	-
sev-**e**-lim	sev-me-y-**e**-lim	sev-**e**-lim mi	sev-me-y-**e**-lim mi
sev-**e**-siniz	sev-me-y-**e**-siniz	-	-
sev-**e**-ler	sev-me-y-**e**-ler	-	-

İstak maylida ben va biz shaxsi juda ko'p ishlatiladi. İnsonlar orasida kundalik hayotda istak mayli o'rniga buyruq mayli ko'p ishlatiladi. Bu holda istak maylinin so'roq shakli faqatgina Ishaxs birlik va ko'plik da tuslanadi.

İstak mayli -a (-e) unli uyg'unligiga rioya qiladi:

al**a**yım, gel**e**yim, ver**e**yim, sev**e**yim, bil**e**yim... kimi.

ye-, de- fe'llarida e > i ga o'zgaradi:

yiyeyim, diyelim...kimi.

Doğayı sevelim, ormanları koruyalım.

Bu dünyada gülelim, oynayalım, yaşamdan zevk alalım.

Haydi arkadaşlar! Hep beraber tenefüse çıkalım.

Kendimize birer bisiklet alalım, her gün kırlara çıkalım.

Bu yaz tatile gidelim mi, gitmeyelim mi?

Tilak-Shart Mayli: -sa, -se

Fe'lda tilak va shart ma'nolarini ifodalab keladi. Tilak ma'nosidagi keşke so'zidan foydalanib ma'noni orttirib, kuchaytirib keladi.

sev-mek	sev-me-mek	so'roq shakli	
sev-**se**-m	sev-me-**se**-m	sev-**se**-m mi	sev-me-**se**-m mi
sev-**se**-n	sev-me-**se**-n	sev-**se**-n mi	sev-me-**se**-n mi
sev-**se**	sev-me-**se**	sev-**se** mi	sev-me-**se** mi
sev-**se**-k	sev-me-**se**-k	sev-**se**-k mi	sev-me-**se**-k mi
sev-**se**-niz	sev-me-**se**-niz	sev-**se**-niz mi	sev-me-**se**-niz mi
sev-**se**-ler	sev-me-**se**-ler	sev-**se**-ler mi	sev-me-**se**-ler mi

Tilak-shart mayli -sa (-se) unli uyg'unligi qoidasiga rioya qiladi:

oku**sa**m, gel**se**m, dokun**sa**m, bak**sa**m, bil**se**m, gör**se**m... kabi.

Keşke savaşlar olma**sa**, insanlar hiç ölme**se**.

Keşke memleketim yakın ol**sa** da sık sık oraya gidebil**se**m.

Keşke yağmur yağma**sa**.

Keşke onunla bu konuyu açık açık konuşabil**se**n.

-sa, -se tilak-shart qo'shimchasi shart ma'nosini tashigan holatlarda (kelgusi zamon gumon fe'li, hozirgi zamon, kelgusi zamon, aniq va uzoq o'tgan zamon) qo'shimchalari bilan birgalikda ishlatiladi:

Eğer İstanbul'a gider**sem** Dolmabahçe Sarayını görürüm.

Eğer insanları iyi tanımak ve onlarla dost olmak ister**sen** onları dinlemelisin.

Eğer çalışmazlar**sa** bu sınavda da başarılı olamayacaklar.

Yağmur yağıyor**sa** şemsiyeni almalısın.

Kızılay'a gidecek**sen** bana bir çift çorap almayı unutma!

Aynur tatilden dönmüş**se** beni arar.

Bu evi beğendiy**seniz** size ucuza satabilirim.

Tilak-Shart Mayli Shaklida Yozilgan Maqollar:

Allah gümüş kapıyı kapar**sa**, altın kapıyı açar.

Sık gider**se**n dostuna, yatar arka üstüne.

Kedinin kanadı ol**sa**ydı, serçenin adı kalmazdı.

Keraklilik Mayli: -malı, -meli

Fe'lning ifodalagan harakatning bajarilishi kerakligini anglatadi.

sev-mek	sev-me-mek	so'roq shakli	
sev-**meli**-y-im	sev-me-**meli**-y-im	sev-**meli** mi-y-im	sev-me-**meli** mi-y-im
sev-**meli**-sin	sev-me-**meli**-sin	sev-**meli** mi-sin	sev-me-**meli** mi-sin
sev-**meli**	sev-me-**meli**	sev-**meli** mi	sev-me-**meli** mi
sev-**meli**-y-iz	sev-me-**meli**-yiz	sev-**meli** mi-y-iz	sev-me-**meli** mi-yiz
sev-**meli**-siniz	sev-me-**meli**-siniz	sev-**meli** mi-siniz	sev-**meli** mi-siniz
sev-**meli**-ler	sev-me-**meli**-ler	sev-**meli** ler mi	sev-me-**meli** ler mi

Keraklilik mayli -malı (-meli) unli uyg'unligi qoidasiga rioya qiladi:

oku**malı**, yaz**malı**, bil**meli**, ver**meli**... kabi.

Keraklilik mayli biron bir ish-harakatning bajarilishi kerakligini anglatuvchi *lâzım, gerek* va icap etmek so'zlarining ma'nosini bildiradi:

Kitap oku**malısın**.	→	Kitap okuman gerek.
Kitap oku**malısın**.	→	Kitap okuman lâzım.
Kitap oku**malısın**.	→	Kitap okuman icap ediyor.
Doğayı sev**meli**sin.	→	Doğayı sevmen gerek.
Ormanları koru**malı**yız.	→	Ormanları korumamız gerek.
Sınavı başar**malı**sın.	→	Sınavı başarman lâzım.
Borcunu öde**meli**sin.	→	Borcunu ödemen icap ediyor.
Biraz hızlı git**meli**yiz.	→	Biraz hızlı gitmemiz gerek.
Saat beşte evde ol**malı**.	→	Saat beşte evde olması lâzım.
Yarın bize gel**meli**ler.	→	Yarın bize gelmeleri gerek.
Sigara içme**meli**sin.	→	Sigara içmemen gerek.
Sigarayı bırak**malı**sın.	→	Sigarayı bırakman lâzım.
Bu yaz tatil yap**malı**yız.	→	Bu yaz tatil yapmamız lâzım.

Biron bir kuchli majburiy hollarda mecbur va zorunda so'zlari ishlatiladi:

Bugün bu raporu yazıp bitirmeye mecbursun.

Bu sene Türkçe diploması almak zorundasın.

Buyruq Mayli

Biron bir ish-harakatning ma'lum zamonda bajarilishini, ijro etilishi haqida xabar beradi. Buyruq maylining Ishaxs, birlik va Ishaxs, ko'plik shakli yo'qdir.

	sev-mek	**sevmemek**
Sen	sev	sev-me
O	sev-**sin**	sev-me-**sin**
Siz	sev-**in** sev-**in**-iz	sev-me-y-**in** sev-me-y-**iniz**
Onlar	sev-**sin-ler**	sev-me-**sin-ler**

* Buyruq maylida qo'shimchalar unli uyg'unligiga rioya qiladi:

gel-**sin**, otur-**sun**, bak-**sın**, gör-**sün**... kabi.

İnsanları sev, çiçekleri **koru**!

Çocuklar sınıfa gir**sin**, derslerine çalış**sın**!

Öğrenciler yarın bütün ödevlerini bana getir**sin**ler.

Kimse duvarlara yazı yazma**sın**!

Kötüleri sevmeyiniz, onlara yardım etme**yiniz**!

Buyruq mayli shaklida yozilgan maqollar:

Önce **düşün,** sonra **söyle.**

Ulular köprü olsa, basıp **geçme.**

Çalma elin kapısını, çalarlar kapını.

Al malın iyisini, **çekme** kaygısını.

UNUTMANG!

FE'LLARNİNG TUSLANİSHİ VA MAYLLAR

Fe'l o'zagi yoki negiziga tuslovchi qo'shimchalar qo'shilishiga fe'l tuslanishi deyiladi.

Fe'l o'zagiga qo'shilgan qo'shimchalar fe'lga zamon, shaxs, mayl, son, so'roq, istak va tilak-shart kabi yangi ma'nolar berib keladi.

MAYLLAR

Fe'l ifodalagan ish-harakatning qanday, qachon va qay shakilda bajarilganligi haqida xabar berishga fe'l mayli deyiladi. Turkchada to'qqiz tur mayl shakli bo'lib ular ikki asosiy guruhga ajratiladi:

Mayl Kategoriyalari

İjro Mayllari	**Holish Mayllari**
Hozirgi zamon	İstak mayli
Aniq o'tgan zamon	Tilak-Shart mayli
Uzoq o'tgan zamon	Keraklilik mayli
Kelasi zamon	Buyruq mayli
Kelasi zamon gumon fe'li	

İJRO MAYLLARİ

Kozirgi Zamon

Ben hemen geli**yor**um. (Hozirgi zamon)
Ahmet Bey çok sigara içi**yor.** (Kelasi zamon gumon fe'li)
Bir hafta sonra tatile çıkı**yor**uz. (Kelasi zamon)

Aniq O'tgan Zamon

Fe'l ifodalagan ish-harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligini bildiradi:

Bu kitabı oku**dum**.

Uzoq O'tgan Zamon

O'tmishda bajarilgan bir ishning boshqalaridan o'rganilganligini yoki noaniqligini bildiradi:

Engin dün akşam gel**miş**.

Uzoq o'tgan zamon shakli taxmin, gumon va noaniqlik ma'nosini beradi:

Ömer, güya bütün yarışlarda birinci ol**muş**!

Babasına göre, Hamdi dünyanın en güçlü ve zeki adamı**ymış**!

Kelasi zamon

Fe'l ifodalagan ish harakatning kelasi zamon ichida bajarilishini bildiradi.

Yarın pikniğe gid**eceğ**iz.

Kelasi zamon gumon fe'li

Fe'l ifodalagan ish-harakatning har doim bajarilganligini, bajarilayotganligini va kelasi zamonda ham davom etishini bildiradi:

İnsanlar doğ**ar**lar, büyü**r**ler, öl**ür**ler.

HOHİSH MAYLLARİ

Fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilishi asnosida istak, tilak-shart, keraklilik va buyruq haqida xabar beruvchi mayllarga hohish mayllari deyiladi.

İstak mayli, istak-hohish ma'nosini bildiradi:

Bugün sinemaya gid**e**lim.

Tilak-Shart mayli, tilak va shart manolarini bildiradi:

Param ol**sa,** bir ev alırım.

Keraklilik mayli, keraklilik ma'nosini bildiradi:

İyi yaşamak istiyorsak, çok çalış**malı**yız.

Buyruk mayli, bir ishning bajarilishi haqida buyruq berishda ishlatiladi:

Hemen buraya **gel!**

MURAKKAB ZAMONLİ FE'LLAR

(Tr. Birleşik zamanlı eylemler; İng. compound tenses; Germ. zusammengesetztes Verbum; Fr. verbes aux temps composés)

Sodda zamonli fe'llar bilan to'liqsiz fe'llarning qo'shilgan holda ikkinchi bir zamonni hosil qilishga murakkab zamon deyiladi. Turkchada uch murakkab zamon shakli bordir:

	Tuslangan fe'l	Yordamchi fe'l
Murakkab zamon hikoyasi	gel-iyor-	du
Murakkab zamon eshitilganlik shakli	gel-iyor-	muş
Murakkab zamon sharti	gel-iyor-	sa

MURAKKAB ZAMON HİKOYASİ *(Tr. Hikâye birleşik zamanı; İng. imperfect, pluperfect; Germ. imperfekt, Plusquamperfekt; Fr. imparfait)*

Sodda zamonli bir fe'l bilan to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchasidan hosil bo'lgan murakkab zamonga murakkab zamon hikoyasi deyiladi. Bu fe'l shakli fe'l ifodalagan ish-harakat yoki voqelikning hikoya shaklida tushuntirilishiga imkon beradi. İjro mayllarining barcha shakli murakkab zamon hikoyasiga ko'ra tuslanadi. Bunday fe'l shakillari esa quyidagilardir:

- **Hozirgi zamon hikoyasi**
- **Aniq o'tgan zamon hikoyasi**
- **Uzoq o'tgan zamon hikoyasi**
- **Kelasi zamon hikoyasi**
- **Kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi**
- **Tilak-shart maylining hikoyasi**
- **İstak maylining hikoyasi**
- **Keraklilik maylining hikoyasi**

Hozirgi Zamon Hikoyasi: -iyor + -du

Hozirgi zamon *-ıyor* qo'shimchasini olgan bir fe'lning oxiriga to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchasi qo'shilishi bilan hozirgi zamon hikoyasi hosil qilinadi:

gel-**iyor**-um, gel-**iyor-du**-m kabi.

O'tgan zamondagi voqealarning hozir ro'y berayotgandek hikoya qilinishida foydalaniladi:

Onunla tanıştığımızda ikimiz de üniversiteye gid**iyorduk**.

Japonya'dayken büyük bir şirkette çalış**ıyordu**m.

Elektrikler kesildiğinde korku filmi seyred**iyorduk**.

-ken ravishi o'rnini ham ba'zan egallab keladi:

Çocuk ağlar**ken**, annesi kucağına aldı.

Çocuk ağl**ıyordu**, annesi kucağına aldı.

Bisikletle yolda gider**ken** ağaca çarptı.

Bisikletle yolda gid**iyordu**; ağaca çarptı.

Az kalsın, az daha, neredeyse kabi ravishlar bilan birga qo'llanilganda ishning bajarilishiga juda yaqinlashsada biroq hanuz ishning bajarilmaganligini ko'rsatadi:

Az kalsın kötü kokudan bayıl**ıyordu**m.

Az daha uçurumdan aşağı yuvarlan**ıyorlardı**.

Neredeyse merdivenden düş**üyordu**.

Hozirgi zamon		**Hozirgi zamon hikoyasi**
Ben seni sevi**yor**um.	→	Ben seni sev**iyordu**m.
Biz çiçekleri sevi**yor**uz.	→	Biz çiçekleri sev**iyordu**k.
Serpil kitap oku**yor.**	→	Serpil kitap ok**uyordu**.
Çocuklar dondurma isti**yor**lar.	→	Çocuklar dondurma ist**iyorlardı**.

gelmek	**gelmemek**	**sóroq shakli**	
geli**yordu**m	gelmi**yordu**m	geli**yor** muy**du**m	gelmi**yor** muy**du**m
geli**yordu**n	gelmi**yordu**n	geli**yor** muy**du**n	gelmi**yor** muy**du**n
geli**yordu**	gelmi**yordu**	geli**yor** muy**du**	gelmi**yor** muy**du**
geli**yordu**k	gelmi**yordu**k	geli**yor** muy**du**k	gelmi**yor** muy**du**k
geli**yordu**nuz	gelmi**yordu**nuz	geli**yor** muy**du**nuz	gelmi**yor** muy**du**nuz
geli**yorlardı**	gelmi**yorlardı**	geli**yor**lar mı**ydı**	gelmi**yor**lar mı**ydı**

So'roq Shakli

Anne, ben küçükken çok yaramazlık yapı**yor muydu**m?

Sen çikolata sevm**iyor muydu**n?

Sen İngilizce bil**iyor muydu**n?

Siz bugün tatile çıkm**ıyor muydu**nuz?

Onlar beni dinl**iyorlar mıydı**?

Ayşe dışarı alışverişe çıkm**ıyor muydu**?

Affedersiniz, banyo mu yap**ıyordu**nuz?

Aaa! Yoksa uy**uyor muydu**n?

Aniq O'tgan Zamon Hikoyasi: -di+y+-di

Aniq o'tgan zamonga ko'ra tuslangan fe'l oxiriga to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchasi qo'shilish bilan **aniq o'tgan zamon hikoya** shakli hosil qilinadi:

gel-**di**m, gel-**di**-y-**di**-m kabi.

Bu fe'l shakli uzoq otgan zamon hikoyasi bilan qo'llanilishda juda chalkashtirilganligi sababli unchalik ko'p ishlatilmaydi.

gelmek	**gelmemek**	**so'roq shakli**	
geldiy**di**m	gelme diy**di**m	geldim miy**di**	gelmedim miy**di**
geldiy**di**n	gelme diy**di**n	geldin miy**di**	gelmedin miy**di**
geldiy**di**	gelme diy**di**	geldi miy**di**	gelmedi miy**di**
geldiy**di**k	gelme diy**di**k	geldik miy**di**	gelmedik miy**di**
geldiy**di**niz	gelme diy**di**niz	geldiniz miy**di**	gelmediniz miy**di**
geldiy**di**ler	gelme diy**di**ler	geldiler miy**di**	gelmediler miy**di**

So'roq shakli esa quyidagicha bo'lishi mumkin:

geldi miy**di**m? gelmedi miy**di**m? kabi.

Uzoq O'tgan Zamon Hikoyasi: -mış+ -tı

Uzoq o'tgan zamon -mış qo'shimchasi bilan tuslangan fe'lning oxiriga to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchasini qo'shish bilan uzoq o'tgan zamon hikoyasi hosil qilinadi:

gel-**miş**-im, gel-**miş-ti**-m... gel-**miş-ti**-n... kabi.

Undosh orttirilishi ta'siri natijasida -mış qo'shimchasidan so'ngra kelgan -dı qo'shimchasi -tı shakliga o'zgaradi.

O'tmishda ro'y sergan voqealarni xotirlash yoki xotirlatish uchun qo'llaniladi. Bu yuzdan xotiralarni tushuntirishda ko'p ishlatiladi.

Sizi daha önce gör**müştü**m.

Bu hikayeyi daha önce oku**muş** muy**du**nuz?

Hatırlıyor musun? Mezuniyet partisinde ikimiz de aynı model elbiseyi giy**miştik**. Birbirimizi görünce önce çok şaşır**mıştık**, galiba biraz da üzül**müş**tük ama sonra çok eğlen**miş**tik.

Xotirlatish jarayonida tez-tez ogohlantirish ma'nosini tashib keladi:

Sana bu şekilde plansız, programsız çalışmayla başarılı olamayacağını söylememiş miydim?

Yarım saat önce telefonla arayıp buraya hemen bir taksi göndermenizi rica et**miş**tim.

gelmek	**gelmemek**	**so'roq shakli**	
gel**miş**tim	gelme**miş**tim	gel**miş** miy**dim**	gelme**miş** miy**dim**
gel**miş**tin	gelme**miş**tin	gel**miş** miy**din**	gelme**miş** miy**din**
gel**miş**ti	gelme**miş**ti	gel**miş** miy**di**	gelme**miş** miy**di**
gel**miş**tik	gelme**miş**tik	gel**miş** miy**dik**	gelme**miş** miy**dik**
gel**miş**tiniz	gelme**miş**tiniz	gel**miş** miy**diniz**	gelme**miş** miy**diniz**
gel**miş**ler**di**	gelme**miş**ler**di**	gel**miş** miy**di**	gelme**miş** miy**di**

Kelasi Zamon Gumon Fe'li Hikoyasi: -ır + -dı

Kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi qo'shimchasi -ır bilan bog'lanib tuslangan fe'l oxiriga to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchagi qo'shish bilan kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi fe'li hosil qilinadi:

gel-**ir**-im, gel-**ir-di**-m, gel-**mez-di**-m... kimi.

Kelasi zamon gumon fe'li qo'shimchasi (-ır) unli uyg'unligiga rioya qiladi:

sev**erdi**m, bak**ardı**m, bil**irdi**m, ok**urdu**m, gör**ürdü**m... kabi.

O'tmishda odat tusiga kirib qolgan va tez-tez bajarib turilgan ish-harakatlarni anglatishda qo'llaniladi:

Annem gençken güzel dikiş dik**erdi**.

Ben çocukken yaramazlık yap**ardım**, annemi çok üz**erdi**m.

Üniversitedeyken çok boş zamanımız ol**urdu**.

Bu yüzden sık sık sinemaya gid**erdi**k.

Shartli gaplarning ikkinchi bo'limida qo'llaniladi. Bu hollarda, odatda, bo'lishsizlik ma'nosini anglatadi:

Daha çok çalışsaydı, başar**ırdı**.

Hasta olduğunu duysaydım, mutlaka ziyaretine gel**irdi**m.

Sana söz vermeseydim, buraya kadar gelm**ezdi**m.

gelmek	**gelmemek**	**so'roq shakli**	
gel**irdi**m	gel**mezdi**m	gel**ir miydi**m	gel**mez miydi**m
gel**irdi**n	gel**mezdi**n	gel**ir miydi**n	gel**mez miydi**n
gel**irdi**	gel**mezdi**	gel**ir miydi**	gel**mez miydi**
gel**irdi**k	gel**mezdi**k	gel**ir miydi**k	gel**mez miydi**k
gel**irdi**niz	gel**mezdi**niz	gel**ir miydi**niz	gel**mez miydi**niz
gel**irler di**	gel**mezler**di	gel**ir miydi**ler	gel**mez miydi**ler

Kelasi Zamon Hikoyasi: -acak+ -tı

Kelasi zamon qo'shimchasi -acak oluvchi tuslangan fe'lning oxiriga to'liqsiz fe'lning -dı qo'shimchasi qo'shilgan holda hosil bo'lgan fe'l shakliga kelasi zamon hikoyasi deyiladi.

* Kelasi zamon qo'shimchasi -acak unli uyg'unligi qoidasiga rioya qiladi:

yaz-**acak**, yaz-**acak-tı**... kabi.

• Kelasi zamon qo'shimchasi -acak undosh orttirmasi qoidasiga rioya qiladi. O'tgan zamon qo'shimchasi -dı undosh orttirmasi yuzidan -tı shakliga o'zgaradi:

yaz-acak-**tı**, bil-ecek-**ti** kabi.

O'tmishda va kelajakda qilinadigan ishlar haqida reja tuzish, fikir yuritish kabi holatlarni ifodolashda yordam beradi. Umuman bo'lishsizlik ma'nosini beradi.

Ali üniversiteye gid**ecekti**, babası yatalak olunca çalışıp ailesini geçindirmek zorunda kalınca gidemedi.

Bahar ile Soner bu sene içinde evlen**eceklerdi**. Evlendiler mi bilmiyorum.

Dün sana gel**ecektim**, yeni evinin adresini bilmediğim için gelemedim.

Kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi kabi shartli gaplarning ikkinchi qismida foydalaniladi. Bahs mavzusi bo'lgan voqeaning rejalanmish, avvaldan o'ylanmish ekanligi tushuniladi.

Yeterli param olsaydı büyük bir ev al**acaktım**.

Benden özür dileseydi onu affed**ecektim**.

Sen onlara sırrımı söylemeseydin, hiç kimse öğren**meyecekti**.

Hozirgi zamon hikoyasi shaklida bo'lganidek az kalsın, az daha kabi ravishlari bilan birga qo'llanilgan vaqtda biron ishning bajarilishiga juda yaqinlashgan bo'lsa ham biroq hanuz tugallanmaganligi haqida xabar beradi:

Az kalsın, korkudan öl**ecekti.**

gelmek	gelmemek	so'roq shakli	
gel**ecektim**	gelmey**ecektim**	gel**ecek** miy**dim**	gelmey**ecek** miy**dim**
gel**ecektin**	gelmey**ecektin**	gel**ecek** miy**din**	gelmey**ecek** miy**din**
gel**ecekti**	gelmey**ecekti**	gel**ecek** miy**di**	gelmey**ecek** miy**di**
gel**ecektik**	gelmey**ecektik**	gel**ecek** miy**dik**	gelmey**ecek** miy**dik**
gel**ecektiniz**	gelmey**ecektiniz**	gel**ecek** miy**diniz**	gelmey**ecek** miy**diniz**
gel**ecekler**di	gelmey**ecekler**di	gel**ecekler** miy**di**	gelmey**ecekler** miy**di**

Tilak-Shart Mayli Hikoyasi: -sa+ y+ -dı

Tilak-shart mayli qo'shimchasi *-sa* olgan tuslangan fe'l *-dı* qo'shimchasi bilan bog'lanib tilak-shart mayli hikoyasi hosil qilinadi:

Televizyon icat edil**meseydi** pek çok ülkeyle ilgili ilginç görüntüler göremeyecektik.

Beslenmenize dikkat et**seydi**niz sağlıklı olurdunuz.

Onu tanıma**saydı**m ön yargılı davranabilirdim.

gelmek	gelmemek	so'roq shakli	
gel**seydi**m	gelme**seydi**m	gel**se** miy**dim**	gelme**se** miy**dim**
gel**seydi**n	gelme**seydi**n	gel**se** miy**din**	gelme**se** miy**diniz**
gel**seydi**	gelme**seydi**	gel**se** miy**di**	gelme**se** miy**di**
gel**seydi**k	gelme**seydi**k	gel**se** miy**dik**	gelme**se** miy**dik**
gel**seydi**niz	gelme**seydi**niz	gel**se** miy**diniz**	gelme**se** miy**diniz**
gel**selerdi**	gelme**seydi**	gel**seler** miy**di**	gelme**seler** miy**di**

İstak Mayli Hikoyasi: -a+y+-dı

İstak mayli qo'shimchasi *-a* olgan tuslangan fe'l to'liqsiz fe'lning *-dı* qo'shimchasi bilan bog'lanib istak mayli hikoyasi hosil qilinadi:

gelmek	gelmemek	so'roq shakli	
gel**eydi**m	gelmey**eydi**m	gele miy**di**m	gelmeye miy**di**m
gel**eydi**n	gelmey**eydi**n	gele miy**di**n	gelmeye miy**di**n
gel**eydi**	gelmey**eydi**	gele miy**di**	gelmeye miy**di**
gel**eydi**k	gelmey**eydi**k	gele miy**di**k	gelmeye miy**di**k
gel**eydi**niz	gelmey**eydi**niz	gele miy**di**niz	gelmeye miy**di**niz
gel**elerdi**	gelmey**elerdi**	gel**eler miydi**	gelmey**eler miydi**

Keraklilik Mayli Hikoyasi: -malı+y+-dı

Keraklilik mayli qo'shimchosi *-malı* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-dı* qo'shimchasi qo'shilgan holda keraklilik mayl hikoyasi hosil qilinadi:

Biz tatildeyken çiçekleri sulamalı, balıklara yem ver**meliydi**n.

Pazardan mal alırken malların kalitesine dikkat et**meliydi**k.

Bana bunu yapmamalıydın, yalan söyleme**meliydi**n.

gelmek	gelmemek	so'roq shakli	
gel**meliydi**m	gelme**meliydi**m	gel**meli** miy**di**m	gelme**meli** miy**di**m
gel**meliydi**n	gelme**meliydi**n	gel**meli** miy**di**n	gelme**meli** miy**di**n
gel**meliydi**	gelme**meliydi**	gel**meli** miy**di**	gelme**meli** miy**di**
gel**meliydi**k	gelme**meliydi**k	gel**meli** miy**di**k	gelme**meli** miy**di**k
gel**meliydi**niz	gelme**meliydi**niz	gel**meli** miy**di**niz	gelme**meli** miy**di**niz
gel**melilerdi**	gelme**melilerdi**	gel**meliler miydi**	gelme**meliler miydi**

MURAKKAB ZAMON ESHİTİLGANLİK SHAKLİ

(Tr. rivayet birleşik zamanı; İng. dubitatibe narrative; Germ. Dubitativ, zweifelhafte Erzählungsform; Fr. temps dubitatif)

Sodda zamonli bir fe'l bilan to'liqsiz fe'lning uzoq o'tgan zamonni ko'rsatuvchi *-imiş > -miş* qo'shimchasi bilan qo'shilishidan hosil qilingan fe'l shakliga murakkab zamon eshiilganlik shakli deyiladi. Aniq o'tgan zamon fe'lining rivoyati qurilolmaydi. Murakkab zamon eshitilganlik fe'l shakllari quyidagilardir:

* **Hozirgi zamon eshitilganlik shakli**
* **Uzoq o'tgan zamon eshitilganlik shakli**
* **Kelasi zamon gumon fe'li eshitilganlik shakli**
* **Kelasi zamon eshitilganlik shakli**
* **Tilak-shart mayli eshitilganlik shakli**
* **Keraklilik mayli eshitilganlik shakli**

Hozirgi Zamon Eshitilganlik Shakli: -ıyor+-muş

Hozirgi zamon hikoyasi bu murakkab zamon ichida ham o'z o'rnini egallab boshqalaridan o'rganish, bizzot ko'z o'ngida yuz bermaslik va bunga aniq guvohlik bermaslik ma'nosini beradi. Bundan tashqari hanuz davom etmoqda bo'lgan bir voqelikning boshqasidan o'rganilganligini yoki boshqa manbalar vositasida ma'lum bo'lganligini ifodalaydi.

Ali dünyaya gelmeden önce annesi öğretmen olarak çalış**ıyormuş.**

Büyükannem evin kapısını açtığında hırsız evdeki eşyaları topl**uyormuş.**

Gül Çankaya'da otur**uyormuş.**

Duydun mu, İstanbul'da kar yağ**ıyormuş.**

bilmek	**bilmemek**	**so'roq shakli**	
bili**yormuş**um	bilmi**yormuş**um	bili**yor** muy**muş**um	bilmi**yor** muy**muş**um
bili**yormuş**sun	bilmi**yormuş**sun	bili**yor** muy**muş**sun	bilmi**yor** muy**muş**sun
bili**yormuş**	bilmi**yormuş**	bili**yor** muy**muş**	bilmi**yor** muy**muş**
bili**yormuş**uz	bilmi**yormuş**uz	bili**yor** muy**muş**uz	bilmi**yor** muy**muş**uz
bili**yormuş**sunuz	bilmi**yormuş**sunuz	bili**yor** muy**muş**sunuz	bilmi**yor** muy**muş**sunuz
bili**yorlarmış**	bilmi**yorlarmış**	bili**yorlar** mı**ymış**	bilmi**yorlar** mı**ymış**

Uzoq O'tgan Zamon Eshitilganlik Shakli: -mış+ -mış

Uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi *-mış* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'l qo'shimchasi *-mış* qo'shilgan holda uzoq o'tgan zamon eshitilganlik shakli hosil qilinadi:

Bu fe'l shakli noaniqlik va gumon ma'nolarini anglatib unchalik ko'p ishlatilmaydi.

bilmek	bilmemek	so'roq shakli	
bil**mişmiş**im	bilme**mişmiş**im	bil**miş** miy**miş**im	bilme**miş** miy**miş**im
bil**mişmiş**sin	bilme**mişmiş**sin	bil**miş** miy**miş**sin	bilme**miş** miy**miş**sin
bil**mişmiş**	bilme**mişmiş**	bil**miş** miy**miş**	bilme**miş** miy**miş**
bil**mişmiş**iz	bilme**mişmiş**iz	bil**miş** miy**miş**iz	bilme**miş** miy**miş**iz
bil**mişmiş**siniz	bilme**mişmiş**siniz	bil**miş** miy**miş**siniz	bilme**miş** miy**miş**siniz
bil**mişler miş**	bilme**mişler miş**	bil**miş**ler miy**miş**	bilme**miş**ler miy**miş**

Kelasi Zamon Gumon Fe'lining Eshitilganlik Shakli: -ır + -mış

Kelasi zamon gumon fe'li qo'shimchasi *-ır* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'l *-mış* qoshimchasining qo'shilishi bilan hosil qilinadi. Kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi bu murakkab zamon ichida keladi va boshqalar vositasida, boshqa manbalardan o'rganish, harakatning ro'y berib-bermaganligi, gumon ma'nolarini anglatadi. Buni quyidagi misollar asosida ko'rsatishga urinamiz:

Şu sahnede şarkı söyleyen ünlü şarkıcı eskiden bir inşaatta işçi olarak çalış**ırmış.**

Osmanlı İmparatorluğu döneminde, Türkler günümüze göre çok farklı giyin**irlermiş**.

Biraz daha geç kalsaymışım yemek yap**armış.**

Partiye gelmeseymiş herkes sıkıntıdan öl**ürmüş.**

O fiziğini korumak için her gün spor yap**armış.**

O asla içki iç**mezmiş.**

bilmek	bilmemek	so'roq shakli	
bil**irmiş**im	bil**mezmiş**im	bil**ir** miy**miş**im	bil**mez** miy**miş**im
bil**irmiş**sin	bil**mezmiş**sin	bil**ir** miy**miş**sin	bil**mez** miy**miş**sin
bil**irmiş**	bil**mezmiş**	bil**ir** miy**miş**	bil**mez** miy**miş**
bil**irmiş**iz	bil**mezmiş**iz	bil**ir** miy**miş**siniz	bil**mez** miy**miş**iz
bil**irmiş**siniz	bil**mezmiş**siniz	bil**ir** miy**miş**ler	bil**mez** miy**miş**siniz
bil**irler miş**	bil**mezler miş**	bil**irler** miy**miş**	bil**mezler** miy**miş**

Kelasi Zamon Eshitilganlik Shakli: -acak+ -mış

Kelasi zamon qo'shimchasi *-acak* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-mış* qo'shimchasi qo'shilib hosil qilinadi. Kelasi zamon hikoya fe'li ham bu fe'l shakli ichida keladi. Voqelikni boshqa birilaridan o'rganish, bizzot o'zi ishtirok etmaslik va gumon ma'nolarini anglatadi. Bundan tashqari kelasi zamon ichida ro'y berishi mumkin vaziyatlar uchun ishlatiladi:

Düğün için hazırlanmışlar. Tam çık**acaklarmış**; misafir gelmiş.
Neredeyse arabasıyla kamyona çarp**acakmış.**
Bilim adamlarının söylediğine göre çevre kirliliği bu hızla devam ederse kirli havanın sera etkisi nedeniyle havalar ısın**acakmış** ve kutuplardaki buzlar eriyip her yeri sel bas**acakmış.**
Yarın televizyonda Türkan Şoray'ın filmi oyna**yacakmış.**
Gelecek hafta yeni bir kanal yayına başla**yacakmış.**

bilmek	**bilmemek**	**so'roq shakli**	
bil**ecekmiş**im	bilmey**ecekmiş**im	bil**ecek** miy**miş**im	bilmey**ecek** miy**miş**im
bil**ecekmiş**sin	bilmey**ecekmiş**sin	bil**ecek** miy**miş**sin	bilmey**ecek** miy**miş**sin
bil**ecekmiş**	bilmey**ecekmiş**	bil**ecek** miy**miş**	bilmey**ecek** miy**miş**
bil**ecekmiş**iz	bilmey**ecekmiş**iz	bil**ecek** miy**miş**iz	bilmey**ecek** miy**miş**iz
bil**ecekmiş**siniz	bilmey**ecekmiş**siniz	bil**ecek** miy**miş**siniz	bilmey**ecek** miy**miş**siniz
bil**ecekler**miş	bilmey**ecekler**miş	bil**ecekler** miy**miş**	bilmey**ecekler** miy**miş**

Tilak-Shart Mayli Eshitilganlik Shakli: -sa + y + -mış

Tilak-Shart mayli qo'shimchasi *-sa* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-mış* qo'shimchasi qo'shilgan holda hosil qilinadi:

Üniversite sınavında iki soruya daha doğru cevap ver**seymişim** istediğim bölüme girecektim.
Babası genç yaşta ölme**seymiş** malî sorunlar yaşamazlarmış.
Geçen yıl Türkiye'ye gel**seymiş**; şimdi Türkçe diploması alırmış.

bilmek	**bilmemek**	**so'roq shakli**	
bil**seymiş**im	bilme**seymiş**im	bil**se** miy**miş**im	bilme**se** miy**miş**im
bil**seymiş**sin	bilme**seymiş**sin	bil**se** miy**miş**sin	bilme**se** miy**miş**sin
bil**seymiş**	bilme**seymiş**	bil**se** miy**miş**	bilme**se** miy**miş**
bil**seymiş**iz	bilme**seymiş**iz	bil**se** miy**miş**iz	bilme**se** miy**miş**iz
bil**seymiş**siniz	bilme**seymiş**siniz	bil**se** miy**miş**siniz	bilme**se** miy**miş**siniz
bil**selermiş**	bilme**selermiş**	bil**seler** miy**miş**	bilme**seler** miy**miş**

İstak Mayli Eshitilganlik Shakli: -a+y+-mış

İstak mayli qo'shimchasi *-a* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'l qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi.

bilmek	bilmemek	so'roq shakli	
bil**eymişim**	bilmey**eymişim**	bile miy**mişim**	bilmeye miy**mişim**
bil**eymişsin**	bilmey**eymişsin**	bile miy**mişsin**	bilmeye miy**mişsin**
bil**eymiş**	bilmey**eymiş**	bile miy**miş**	bilmeye miy**miş**
bil**eymişiz**	bilmey**eymişiz**	bile miy**mişiz**	bilmeye miy**mişiz**
bil**eymişsiniz**	bilmey**eymişsiniz**	bile miy**mişsiniz**	bilmeye miy**mişsiniz**
bil**elermiş**	bilmey**elermiş**	bileler miy**miş**	bilmeyeler miy**miş**

Keraklilik Mayli Eshitilganlik Shakli: -malı+y+mış

Keraklilik mayli qo'shimchasi *-malı* olgan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'l qo'shimchasi *-mış* qo'shilish bilan hosil qilinadi:

Patron söyledi; bu hafta işi tamamlamalı, yeni işe bir an önce başla**malıymış**sınız.

Ona hiç bu konudan bahsetme**meliymiş**im.

Babam söyledi; evin vergi borcunu bugün geciktirmeden yatır**malıymış**sın.

bilmek	bilmemek	so'roq shakli	
bil**meliymişim**	bilme**meliymişim**	bil**meli miymişim**	bilme**meli miymişim**
bil**meliymişsin**	bilme**meliymişsin**	bil**meli miymişsin**	bilme**meli miymişsin**
bil**meliymiş**	bilme**meliymiş**	bil**meli miymiş**	bilme**meli miymiş**
bil**meliymişiz**	bilme**meliymişiz**	bil**meli miymişiz**	bilme**meli miymişiz**
bil**meliymişsiniz**	bilme**meliymişsiniz**	bil**meli miymişsiniz**	bilme**meli miymişsiniz**
bil**melilermiş**	bilme**melilermiş**	bil**meli miymişler**	bilme**meli miymişler**
		(bil**meli**ler miy**miş**)	(bilme**meli**ler miy**miş**)

MURAKKAB ZAMON SHARTİ *(Tr. koşul birleşik zamanı; İng. conditional; Germ. Konditional; Fr. temps conditionel)*

Tuslangan fe'llarga to'liqsiz fe'lning *-sa (-se)* qo'shimchasi qo'shilgan holda hosil qilingan fe'l shakliga murakkab zamon sharti deyiladi. Barcha ijro mayllarining va keraklilik mayllaring bu fe'l shakli qo'llaniladi.

Hozirgi Zamon Sharti: -ıyor+ -sa

Hozirga zamon qo'shimchasi *-ıyor* bilan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-sa* qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi. Hozirgi zamondagi shart holatini ifodalab keladi:

Dişin ağrı**yorsa** doktora gitmelisin.

O sana ilgi göstermi**yorsa** sen de onu unutmaya çalış.

Sigara seni öksürt**üyorsa** içme.

yapmak	yapmamak
yapı**yorsa**m	yapmı**yorsa**m
yapı**yorsa**n	yapmı**yorsa**n
yapı**yorsa**	yapmı**yorsa**
yapı**yorsa**k	yapmı**yorsa**k
yapı**yorsa**nız	yapmı**yorsa**nız
yapı**yorlarsa**	yapmı**yorlarsa**

Aniq O'tgan Zamon Sharti: -dı+y+-sa

Aniq O'tgan zamon *-dı* qo'shimchasi bilan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-sa* qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi. Qo'shimchalar o'zaro bog'langanda o'rtaga himoyachi *y* undoshi keladi:

Aniq o'tgan zamon ichidagi biron bir shartga bog'liq kuchli taxmin yoki taklif ma'nosini anglatadi:

Babandan para al**dıysa**n yemeğe çıkalım.

Yemek pişme**diyse** lokantaya gidelim.

Yağmur din**diyse** yoluna devam etsin.

O işi Ahmet yap**tıysa** eksiksiz bitirir.

Dün gece uçağa bin**dilerse** bugün Ankara'ya geleceklerdir.

yapmak	yapmamak
yaptıysam	yapmadıysam
yaptıysan	yapmadıysan
yaptıysa	yapmadıysa
yaptıysak	yapmadıysak
yaptıysanız	yapmadıysanız
yaptılarsa	yapmadılarsa

Uzoq O'tgan Zamon Sharti: -mış+ -sa

Uzoq o'tgan zamon *-mış* qo'shimchasi bilan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-sa* qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi. Qo'shimchalar o'rtasiga *y* himoyachi undoshi keladi va uzoq o'tgan zamon ichida ro'y bergan biron-bir shartga bog'liq taxminni ifodalab keladi. Bu fe'l formasi asosan III shaxs birlik va III shaxs ko'plik shakllarida qo'llaniladi:

Eğer o büyük evi al**mışsa** çok para vermiştir.

Eve bu akşam telefon et**mişse** bizi bulamamıştır.

Tatil haberini duy**muşlarsa** eminim çok sevinmişlerdir.

Biz ona çalış de**mişsek** iyiliği için dedik.

Ondan borç al**mışsa**m vereceğim, elbette.

yapmak	yapmamak
yapmışsam	yapmamışsam
yapmışsan	yapmamışsan
yapmışsa	yapmamışsa
yapmışsak	yapmamışsak
yapmışsanız	yapmamışsanız
yapmışlarsa	yapmamışlarsa

Kelasi Zamon Gumon Fe'lining Sharti: -ır+ -sa

Kelasi zamon gumon fe'lining *-ır* qo'shimchasi bilan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'l *-sa* qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi. Bu zamon shakli ichidagi shartli holatni ifodalab keladi. Eng ko'q qo'llanilgan fe'l formasidir:

Vaktimiz ol**ursa** sinemaya gideriz.

Yeni bir şey duy**arsa**n lütfen bana da söyle.

Bebek karnı doy**mazsa** ağlar.

yapmak	yapmamak
yap**arsa**m	yap**mazsa**m
yap**arsa**n	yap**mazsa**n
yap**arsa**	yap**mazsa**
yap**arsa**k	yap**mazsa**k
yap**arsa**nız	yap**mazsa**nız
yap**arlarsa**	yap**mazlarsa**

Kelasi Zamon Sharti: -acak+ -sa

Kelasi zamon sharti *-acak* qo'shimchasi bilan tuslangan fe'l to'liqsiz fe'lning *-sa* qo'shimchasi qo'shilgan holda yasaladi. Kelasi zamon ichida shartga bog'liq voqelikni ifodalaydi.

Yat**acaksa**n kapıyı kapat, ışıkları söndür.

Dışarı çık**acaksa**nız kalın giyinin, hava çok soğuk.

Artık okula git**meyeceksen** boş mu gezeceksin?

yapmak	yapmamak
yap**acaksa**m	yapma**yacaksa**m
yap**acaksa**n	yapma**yacaksa**n
yap**acaksa**	yapma**yacaksa**
yap**acaksa**k	yapma**yacaksa**k
yap**acaksa**nız	yapma**yacaksa**nız
yap**acaklarsa**	yapma**yacaklarsa**

Keraklilik Mayli Sharti: -malı+y+ -sa

Keraklilik maylining *-malı* qo'shimchasi bilan tuslangan fe'lga to'liqsiz fe'lning *-sa* qo'shimchasi qo'shilgan holda hosil qilinadi. Qo'shimchalar o'rtasiga *-y* himoyachi undoshi qo'yiladi.

Keraklilik maylining biron-bir shart bilan bog'liq holatini anglatadi.

Bu akşam bu dosyayı incele**meliysek** bitirebilmek için işe hemen başlamalıyım.

Ona yaş günü için hediye alm**alıysa**n acele etmelisin.

10 kilo kadar ver**meliyse** uzman kontrolünde diyet uygulamalı.

yapmak	**yapmamak**
yap**malıysa**m	yapma**malıysa**m
yap**malıysa**n	yapma**malıysa**n
yap**malıysa**	yapma**malıysa**
yap**malıysa**k	yapma**malıysa**k
yap**malıysa**nız	yapma**malıysa**nız
yap**malılarsa**	yapma**malılarsa**

UNUTMANG!

MURAKKAB ZAMON FE'LLARİ

Sodda zamon fe'llari bilan to'liqsiz fe'l o'zaro bog'lanib murakkab zamon shaklini hosil qiladi. Turkchada uch xil murakkab zamon shakli bor:

	Tuslangan fe'l	To'liqsiz fe'l
Murakkab zamon hikoyasi	gel-iyor-	du
Murakkab zamon eshitilganlik shakli	gel-iyor-	muş
Murakkab zamon sharti	gel-iyor-	sa

MURAKKAB ZAMON HİKOYASİ

Sodda zamon fe'l formasi bilan to'liqsiz fe'lning *-dı* shakli o'zaro qo'shilib murakkab zamon hikoyasini hosil qiladi. İjro mayllarining barchasi bu zamon shakliga ko'ra tuslahib keladi:

	Tuslangan fe'l	To'liqsiz fe'l
Hozirga zamon hikoyasi	gel-iyor-	du
Aniq o'tgan zamon hikoyasi	geldi-y-	di
Uzoq zamon hikoyasi	gelmiş-	ti
Kelasi zamon gumon fe'li hikoyasi	gelir-	di
Kelasi zamon hikoyasi	gelecek	ti
Tilak-Shart mayli hikoyasi	gelse-y	di
Keraklilik mayli hikoyasi	gelmeli-y	di
İstak mayli hikoyasi	gele-y	di

MURAKKAB ZAMON ESHİTİLGANLİK SHAKLİ

kılmak va *eylemek* fe'llari faqatgina namaz kılmak, ihya eylemek, itaat eylemek kabi bir necha so'z bilan birga qo'llanilmoqdadir. Eylemek so'zi o'rniga hozirgi kunda daha çok, etmek yordamchi fe'li ishlatilmoqdadir.

sabr eylemek	→	sabretmek
emr eylemek	→	emretmek
seyr eylemek	→	seyretmek

ver-, yap-, al-, at-, gel-, bul-

Bu fe'llar yakka holda bir ma'no anglatish bilan bir qatorda boshqa so'zlar bilan birgalikda qo'llanilib yordamchi fe'l vazifasini bajarib keladi.

vermek	**yapmak**	**almak**	**atmak**	**gelmek**
ceza ver-	spor yap-	ceza al-	suç at-	iyi gel-
hesap ver-	resim yap-	karar al-	iftira at-	hoş gel-
söz ver-	duş yap-	*kafaya al-	tokat at-	dar gel-
karar ver-	temizlik yap-	*göze al-	*göz at-	zor gel-
gözdağı ver-	makyaj yap-	*alaya al-		pahalı gel-
	jest yap-	*ciddiye al-		

* Na'munadagi bu yordamchi fe'llar bilan iboralar tuzilganligi kuzatilmoqdadir.

RAVİSHDOSHLİ - QO'SHMA FE'LLAR

(Tr. Ulaçlı birleşik zamanlı eylemler; İng. compound verbs, descriptive verbs; Germ. deskriptives Verbum, Verbum Kompositum; Fr. verbes composés)

Quyida ko'rsatilgan ravishdoshlar bilan vermek, bilmek, durmak,kalmak, gelmek fe'llarining qo'shilishidan hosil bo'lgan fe'llarga ravishdoshli - qo'shma fe'llar deyiladi. Bu fe'llar uchga bo'linadi:

* **Yetarlilik fe'li**
* **Sur'atlilik fe'li**
* **Davomlilik fe'li**

YETERLİLİK FE'Lİ: -a (-e) ravishdoshi +bilmek

(Tr. Yeterlik eylemi; İng. potential verb; Germ. Verbum potentialis; Fr. verbes potentiels)

Bilmek fe'lidan avval so'z asosiga -a (-e) yetarlilik fe'li qo'shish bilan yasaladi. Yetarlilik fe'li yetarlilik ma'nosini anglatib amalga oshiriladigan ishning mumkinligini yoki amalga oshirish ehtimoli borligini ifodalab keladi:

yapabilmek → yap-a-bil-mek görebilmek → gör-e-bil-mek

Bu ishni bajara olish kuchi va qobiliyatiga ega bo'lish:

Bir dilim börek yiy**ebilirim** ama bir tepsi yiy**emem**.
Ayşe İngilizce konuş**abilir** ama Fransızca konuş**amaz**.

İltimos:

Şu havluyu bana ver**ebilir misiniz**?
Lütfen kapıyı kapat**abilir misiniz**?

Ruxsat, ijozat so'rash:

Telefonunuzu kullan**abilir miyim**?
Arabanızı bu akşam için al**abilir miyim**?

Ehtimol, taxmin:

Bugün yağmur yağ**abilir**.
Bu sınavı sen de kazan**abilirsin**.

Yetarlilik fe'lining bo'lishsiz shakli **-ma (-me)** qo'shimchasi bilan yasalib qo'shimchalarning kelish shakliga qarab so'zga turli ma'nolar beradi:

Senin işini bugün yapamam. (aniq)

Senin işini bugün yapmayabilirim. (hohishiga bog'liq)

Senin işini bugün yapamayabilirim. (hohlayman biroq muammo chiqishi mumkin)

YETERLİLİK FE'LİNİNG TUSLANİSHİ

Hozirgi Zamon	
yap**abiliyor**um	yap**amıyor**um
yap**abiliyor**sun	yap**amıyor**sun
yap**abiliyor**	yap**amıyor**
yap**abiliyor**uz	yap**amıyor**uz
yap**abiliyor**sunuz	yap**amıyor**sunuz
yap**abiliyor**lar	yap**amıyor**lar

Aniq O'tgan Zamon	
yap**abildi**m	yap**amadı**m
yap**abildi**n	yap**amadı**n
yap**abildi**	yap**amadı**
yap**abildi**k	yap**amadı**k
yap**abildi**niz	yap**amadı**nız
yap**abildi**ler	yap**amadı**lar

Uzoq O'tgan Zamon	
yap**abilmiş**im	yap**amamış**ım
yap**abilmiş**sin	yap**amamış**sın
yap**abilmiş**	yap**amamış**
yap**abilmiş**iz	yap**amamış**ız
yap**abilmiş**siniz	yap**amamış**sınız
yap**abilmiş**ler	yap**amamış**lar

Kelasi Zamon	
yap**abileceğ**im	yap**amayacağ**ım
yap**abilecek**sin	yap**amayacak**sın
yap**abilecek**	yap**amayacak**
yap**abileceğ**iz	yap**amayacağ**ız
yap**abilecek**siniz	yap**amayacak**sınız
yap**abilecek**ler	yap**amayacak**lar

Kelasi Zamon Gumon Fe'li	
yap**abilir**im	yap**amam**
yap**abilir**sin	yap**amaz**sın
yap**abilir**	yap**amaz**
yap**abiliriz**	yap**amayız**
yap**abilir**siniz	yap**amaz**sınız
yap**abilir**ler	yap**amaz**lar

Tilak - Shart Mayli	
yap**abilse**m	yap**amasa**m
yap**abilse**n	yap**amasa**n
yap**abilse**	yap**amasa**
yap**abilse**k	yap**amasa**k
yap**abilse**niz	yap**amasa**nız
yap**abilse**ler	yap**amasa**lar

Bu işi yap**abilecek** misiniz?	→	Evet, yap**abiliriz**.
Yarın bize gel**ebilecek** misiniz?	→	Hayır, gel**emem**.
Dün mektubu yaz**abildiniz** mi?	→	Hayır, yaz**amadım**.
Kitabı okuy**abildiniz** mi?	→	Evet, okuy**abildi**m.
Bana borcunuzu ödey**ebilecek** misiniz?	→	Evet, ödey**ebileceğ**im.
Bavulu taşıy**abiliyor** musunuz?	→	Evet, taşıy**abiliyor**um.

Fe'l kategoriyasi qo'shimchalari bilan qo'shilib keladi:

yazabilmek → yaz**dır**abilmek, yaz**ıl**abilmek, yazı**ş**abilmek... kabi.

SUR'ATLİLİK FE'Lİ: -ı (-i, -u, -ü) ravishdoshi + vermek

(Tr. tezlik eylemi; İng. verbe of haste; Germ. Hast Verbum, Zeitwort von Eile)

Bir fe'lning *-i* ravishdoshi va vermek fe'li bilan qo'shilishidan tuzilgan qo'shma fe'llarga sur'atlilik fe'li deyiladi. Suratlilik fe'li ish-harakatning tez va oson bajarilganligini bildiradi. Ayni paytda yumshoq va iltimosona buyruqni bildiradi.

gelivermek → gel-i-ver- uyuyuvermek → uyu-y-u-ver-

SUR'ATLİLİK FE'LİNİNG TUSLANİSHİ

Buyruq-İstak Mayli		Aniq O'tgan Zamon	
gel**iver**eyim	gelmey**iver**eyim	gel**iver**medim	gelmey**iver**dim
gel**iver**	gelmey**iver**sin	gel**iver**medin	gelmey**iver**din
gel**iver**sin	gelmey**iver**	gel**iver**medi	gelmey**iver**di
gel**iver**in	gelmey**iver**elim	gel**iver**medik	gelmey**iver**dik
gel**iver**elim	gelmey**iver**in	gel**iver**mediniz	gelmey**iver**diniz
gel**iver**sinler	gelmey**iver**sinler	gel**iver**mediler	gelmey**iver**diler

Uzoq O'tgan Zamon	
geliver**miş**im	geliver**memiş**im
geliver**miş**sin	geliver**memiş**sin
geliver**miş**	geliver**memiş**
geliver**miş**iz	geliver**memiş**iz
geliver**miş**siniz	geliver**memiş**siniz
geliver**miş**ler	geliver**memiş**ler

Kelasi Zamon	
geliver**eceğ**im	geliver**meyeceğ**im
geliver**ecek**sin	geliver**meyecek**sin
geliver**ecek**	geliver**meyecek**
geliver**eceğ**iz	geliver**meyeceğ**iz
geliver**ecek**siniz	geliver**meyecek**siniz
geliver**ecek**ler	geliver**meyecek**ler

Kelasi Zamon Gumon Fe'li	
geliver**ir**im	geliver**mem**
geliver**ir**sin	geliver**mez**sin
geliver**ir**	geliver**mez**
geliver**ir**iz	geliver**mey**iz
geliver**ir**siniz	geliver**mez**siniz
geliver**ir**ler	geliver**mez**ler

Tilak-Shart Mayli	
geliver**sem**	geliver**mesem**
geliver**sen**	geliver**mesen**
geliver**se**	geliver**mese**
geliver**sek**	geliver**mesek**
geliver**seniz**	geliver**meseniz**
geliver**seler**	geliver**meseler**

Sur'atlilik fe'lida *-i* tovushi unli uyg'unligi qoidasiga rioya qiladi:

bilivermek, bakıvermek, okuyuvermek, görüvermek... kabi.

Tezkorlik, Oson va Qulaylik Ma'nosi

Araba birdenbire yoldan çık**ıverdi.**

Aniden sağanak bir yağmur başlay**ıverdi.**

Televiyon seyrederken elektrikler kesil**iverdi.**

Küçük çocuk ansızın caddeye doğru koş**uverdi.**

Herşey kendiliğinden ol**uverdi.**

Masa ve sandalyeleri kolayca taşıy**ıverdik.**

Bu ilacı içerseniz, hemen iyileş**iverecek**siniz.

Buyruq Ma'nosi

Lütfen kapıyı kapat**ıverin**.
Şu raporları hemen yaz**ıverin.**
Yarın erkenden buraya uğray**ıverin**.
Bu akşam da erken yatmay**ıverin**!

So'roq Shakli

Yarın büroya geliverir misin?
Lütfen bana bakıverir misin?
Bir kez de bizleri dinleyiverir misiniz?
Kitapları buraya koyuverir misin?

Sur'atlilik fe'lining bo'lishsiz shakli ikki usulda tuziladi:

a. Oson, qulay yechim

Baban gitmeni istemiyorsa gitmeyiver.
Bu haber onu üzecekse söylemeyiverirsin.

b. Davomli ishontirishga urinish va ishning osonligiga qaramay olmadı, yapmadı ma'nosini yuklaydi:

O kadar istedik, yapıvermedi.
Her zaman kapıyı açardı; o gün açıvermedi.

Sur'atlilik fe'li ravishdosh va harakat nomi vazifalarini bajarib egalik, kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi:

Birden yağmurun yağ**ıvermesi** bizi perişan etti.
Üst üste gel**iveren** sorunlar bizi zor duruma soktu.
Rüzgârın etkisiyle yerdeki karın buz ol**uvermesi** pek çok kazaya neden oldu.
Seni görünce birden sana doğru koş**uvermek** istedim.

DAVOMLİLİK FE'Lİ

(Tr. sürerlik eylemi; İng. durative verb; Germ. Verbum durativum; Fr. verbe duratif)

Bir fe'lning *-a (-e)* ravishdoshi bilan durmak,kalmak, gelmek fe'llarining birlashishidan tuzilgan fe'llarga davomlilik fe'li deyiladi. Davomlilik fe'li bajarilgan ishning davomliligini anglatadi. Davomlilik fe'lining yasalishida ba'zan *-ıp (-ip, -up, -üp)* ravishdoshi bilan durmak fe'llari ham qo'llaniladi. Davomlilik fe'li Turkchada ko'p ishlatilmaydi.

-a (-e) + durmak

Sen vitrinlere bak**adur**, ben hemen geliyorum.

Siz eve gid**edurun**, biz daha sonra geliriz.

Sen gazeteni okuy**adur**, ben sana bir fincan kahve hazırlayayım.

Sizler burada bekley**edurun**, otobüs az sonra gelir.

-a (-e) + kalmak muallaq turib qolish va davomlilik ma'nosini anglatadi; umuman hayratlanish, hayajon va sarosima holatlarini ifodalashda qo'llanilganligi uchun quyidagi fe'llar bilan birga ishlatiladi: don-, bak-, şaş-, ol-, otur-, uyu-, dur-:

Kadın, kocasının arkasından saatlerce bak**akaldı.**

Feci trafik kazasını gören insanlar don**akaldılar**.

Şaban Bey yorgunluktan koltukta uyuy**akalmış**.

Sona kalan don**akalır**. (Türk Atasözü)

Ayşe'yi o kıyafetle karşımda görünce şaşkınlıktan bak**akaldım.**

-a (-e) + gelmek umuman ko'p yillardan beri, asrlarcha davom etgan vaziyatlarni tushuntirishda foydalaniladi:

Yıllardan beri bu efsane burada söylen**egelmiştir**.

Bu gelenek burada yıllarca halk tarafından uygulan**agelmiştir**.

Kılıç eskiden yapılan savaşlarda yıllarca kullanıl**agelmiştir**.

-a (-e) ravishdoshi va gelmek fe'lidan tashkil topgan davomlilik fe'li ba'zan sur'atlilik fe'lidagi tezkorlik ma'nosini anglatadi:

Ansızın bir adam çık**ageldi**.

-ıp (-ip, -up, -üp) + Kalmak, durmak

Serpil Hanım saatlerce geminin ardından bak**ıp durdu**.

Üst kattaki komşunun çocuğu akşama kadar evde koş**up durdu**.

Onun bu konu hakkındaki düşüncelerini öğrenince şaş**ıp kaldım**.

Onu yıllar sonra aniden karşısında görünce don**up kaldı.**

-ıp ravishdoshisiz ham durmak, kalmak fe'llari davomlilik ma'nosini anglatadi.

Kadın sabaha kadar ağladı durdu. → Kadın sabaha kadar ağlayıp durdu.



UNUTMANG!

YORDAMCHİ FE'LLAR

Ot turkumli so'zlar bilan qo'shma fe'llar yasovchi *olmak, etmek, eylemek,kılmak* fe'llarga yordamchi fe'llar deyiladi. Bu fe'llardan eng ko'p faydolaniladiganlari olmak va etmek fe'llaridir.

OLMAK

* Bu fe'l barcha otlar va ot turkumli so'zlar bilan qo'llaniladi:

öğrenci olmak, asker olmak, güzel olmak, sağlıklı olmak... kabi.

* Juft so'zlar qo'shma fe'l sifatida qo'llaniladi:

deli divane olmak, göz kulak olmak, delik deşik olmak... kabi.

* *olmak* fe'li o'tgan, kelasi va kelasi zamon gumon fe'li sifatdoshlari bilan ifodalanib keladi:

O'tgan zamon sifatdoshi: -mış (-miş, -muş, -müş) + olmak / -mış gibi ol- (yap-)

pişmiş olmak, gelmiş olmak, söylemiş olmak, bakmış olmak... kabi.

Kelasi zamon gumon fe'li sifatdoshi: -ar (-er,-ır,-ir,-ur,-ür)+olmak / -ar gibi ol- (yap-)

gelir olmak, bakar olmak, okur olmak, yazmaz olmak... kimi.

Kelasi zamon sifatdoshi: -acak (-ecek) + olmak / -acak gibi ol- (yap-)

söyleyecek olmak, duracak olmak, vuracak olmak, bilecek olmak... kimi.

ETMEK

Otlar va ot turkumli so'zlar bilan qo'shilib qo'shma fe'llarni hosil qiladi:

yardım etmek, söz etmek, var etmek, deli etmek... kabi.

olmak fe'li o'timli va *etmek* fe'li esa o'timsizdir.

Bu konu aramızda hiçbir zaman sorun olmadı. (o'timsiz)
Bu konuları kendinize sorun etmeyiniz. (o'timli)

etmek fe'lidan oldin kelgan so'zning oxirgi bo'g'inida tovush o'zgarishi holati bo'lsa etmek fe'li bu so'z bilan qo'shilib yoziladi:

devir → devretmek, hüküm → hükmetmek, keşif → keşfetmek

KILMAK, EYLEMEK

Bu fe'llar kam qo'llaniladi:

namaz kılmak, ihya eylemek, itaat eylemek, perişan eylemek... kabi.

RAVİSHDOSHLİ - QO'SHMA FE'LLAR

Ravishdoshlar bilan *vermek, bilmek, durmak, kalmak, gelmek* fe'llarining qo'shilishidan hosil bo'lgan fe'llarga ravishdoshli - qo'shma fe'llar deyiladi. Ravishdoshli qo'shma fe'llar uchga bo'linadi:

* **Yetarlilik fe'li**
* **Sur'atlilik fe'li**
* **Davomlilik fe'li**

YETERLİLİK FE'Lİ: -a (-e) ravishdoshi + bilmek

Bilmek fe'lidan avval so'z asosiga *-a (-e)* ravishdoshi qo'shilishi bilan yetarlilik fe'li hosil qilinadi. Yetarlilik fe'li yetarlilik ma'nosini anglatib amalga oshirilayotgan ishning mumkinligini yoki amalga oshirish ehtimoli borligini ifodalab keladi:

Bu sorunu kendi başına halled**ebile**cek misin?
Dergiyi ancak bugün oku**yabil**dim.
Beni yarın aray**abil**irseniz çok sevinirim.

SUR'ATLİLİK FE'Lİ: -ı (-i, -u, -ü) ravishdoshi + vermek

Bir fe'lning *-i* ravishdoshi va vermek fe'li bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llarga sur'atlilik fe'li deyiladi. Sur'atlilik fe'li ish-harakatning tez, oson va qulay bajarilganligini bildiradi. Bundan tashqari buyruq ma'nosini ham anglatadi:

Yaz tatili çabucak bit**iver**di.
Sınav zamanı hemen gel**iver**di.
Giderken kapıyı kapat**ıver**in.

DAVOMLİLİK FE'Lİ:

Bir fe'lning *-a (-e)* ravishdoshi bilan durmak, kalmak, görmek, gelmek fe'llarining qo'shilishidan tashkil topgan qo'shma fe'lga davomlilik fe'li deyiladi. Davomlilik fe'lining yasalishida ba'zan durmak, fe'li bilan *-ıp (-ip, -up, -üp)* ravishdoshi ham qo'llaniladi. Bu fe'l qilingan ishning davomliligini anglatadi.

-a (-e) + durmak :
Siz gid**edur**un, ben hemen geliyorum.

-a (-e) + kalmak :
Televizyon izlerken uyuy**akal**mışım.

-a (-e) + gelmek :
Bu yöntem, pek çok eğitimci tarafından yıllardır uygulan**agel**miştir.

-ıp (-ip, -up, -üp) :
Yaşlı adam uzun yıllar bu kötü şartlarda yaşa**yıp dur**du.

QO‘SHİMCHALAR

(Tr. Ekler; İng. affix; Germ. affix; Fr. affixes)

"Turkcha o‘rganish - qo‘shimchalarni o‘rganish demektir."
Jean Deny

So‘zlarning qaysi vazifalarini bajarib kelishida yoki yangi so‘zlar yasalishida foydalanilgan va ma‘nolarini o‘zgartirib keluvchi eng kichik tovush yoki tovushlarga qo‘shimcha deyiladi. Qo‘shimchalar bir yoki birdan ortiq tovushdan tuzilishi mumkin. Umuman jahon tillarida old qo‘shimcha, ich qo‘shimcha va ort qo‘shimcha bo‘lib 3 xil bog‘lovchi turi bordir. Turk tilida esa faqat ort qo‘shimchalar bordir. Old qo‘shimcha faqatgina orttirma sifatlarida foydalaniladi. Turkchada so‘z asosiga qo‘shimchalarning qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan so‘zlar bahs mavzusidir. Bu yuzdan qo‘shimchalar Turk tili tuzilish shaklining va til tizimi jihatidan katta ahammiyatga egadir. Ko‘pgina tillarda juda ko‘p so‘z yoki gaplar bilan tushuntirilishga urinilgan tushunchalar Turk tilida ko‘pincha yagona bir qo‘shimcha bilan anglatiladi.
Turkchadagi qo‘shimchalar asosan bir bo‘g‘inlidir. Bu qo‘shimchalar ba‘zan ustma-ust kelib uzun zanjirsimon qo‘shimchalarni tashakil qilishi mumkin. So‘z asosiga qo‘shiluvchi qo‘shimcha soni o‘n ikkitagacha chiqishi mumkin: Amerikalılaştıramadıklarımızdan mısınız? (Amerika-lı-laş-tır-a-ma-dık-lar-ımız-dan mısınız?) so‘zida kuzatilgani kabi.
Turkchada qo‘shimchalar ikki asosiy bo‘limga bo‘linadi:

* **Turlovchi qo‘shimchalar**
* **Yasovchi qo‘shimchalar**

TURLOVCHİ QÓSHİMCHALAR

(Tr. cekim ekleri; İng. inflexion suffixis, termination; Germ. Endungen, Suffixe, Flexionsendungen; Fr. suffixe de conjugaison, terminaison de conjugaison)

Fe‘l va ot asosiga shaxs, zamon, so‘roq, ko‘plik, bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarni beruvchi qo‘shimchalarga turlovchi qo‘shimchalar deyiladi. Turlovchi qo‘shimchalar otlarga va fe‘llarga qo‘shilib kelganda so‘zlarning o‘zak ma‘nosini o‘zgartirmaydilar. Bu so‘zlarning ma‘nolarini shaxs, zamon, o‘rin, jo‘nalish, so‘roq, bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllar jihatidan tugallaydi:

ge**liyorum**, gör**dün mü?** al**madın mı?** ev**i**, ev**de**, ev**den**, ev**im**, ev**ler**... kabi.

Yasovchi qo'shimchalar esa so'zlardagi o'zak mánosini o'zgartirib yangi so'zlar yasaydi:

göz → göz**lük** → göz**lükçü** → göz**lükçülük**

Umuman olganda turlovchi qo'shimchalar deyilganda hayolimizga avvalo fe'llarga qo'shilgan tuslash qo'shimchalari keladi. Faqat otlarga qo'shilib keluvchi kelishik qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari va ham otlar hamda fe'llardagi ko'plik qo'shimchalari so'zlarning o'zak ma'nosini o'zgartirmaganligi uchun barchasining turlovchi qo'shimcha sifatida qabul qilinishi kerak bo'ladi. Bu jihatdan turlovchi qo'shimchalar quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

*** Otlarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalar**
*** Fe'llarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalar**
*** Otlarga va fe'llarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalar**

OTLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ TURLOVCHİ QO'SHİMCHALAR

Otlarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalarni egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari va aloqa qo'shimchalari deya uch guruhga bo'lish mumkin:

Egalik Qo'shimchalari: -m (-im, -in, -i, -imiz, -iniz,-leri)

Ot ifodalagan predmetning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini ifodalovchi qo'shimchalarga egalik qo'shimchasi deyiladi. Egalik qo'shimchalari shaxs ma'nosini anglatadi va unli uyg'unligi qoidasiga rioya qiladi.

Egalik Qóshimchalari va Unli Uygunlugi

Benim	ev**im**	oda**m**	okul**um**	köy**üm**
Senin	ev**in**	oda**n**	okul**un**	köy**ün**
Onun	ev**i**	oda**sı**	okul**u**	köy**ü**
Bizim	ev**imiz**	oda**mız**	okul**umuz**	köy**ümüz**
Sizin	ev**iniz**	oda**nız**	okul**unuz**	köy**ünüz**
Onların	ev**leri**	oda**ları**	okul**ları**	köy**leri**

Unli bilan tugagan so'zlardan keyin egalik qo'shimchalari qo'shilib kelganda qo'shimchadagi old unli harf tushib qoldiriladi:

oda	→ odam		sevgi	→ sevgim	
oda	→ odan		sevgi	→ sevgin	

III shaxs birlikda ikki unli yonma-yon kelib oraga "s" himoyalovchi undoshi qo'yiladi:

oda	+ ı	→	odası	sevgi	+ i	→	sevgisi
çanta	+ ı	→	çantası	bilgi	+ i	→	bilgisi

Egalik qo'shimchalaridan keyin ham kelishik qo'shimchalari kelishi mumkin:

evim**i**, evim**in**, evim**e**, evim**den**

odam**ı**, odam**ın**, odam**a**, odam**dan**

Kelishik Qo'shimchalari

Otlarning va otlashgan so'zlarning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ko'rsatishga xizmat qiluvchi qo'shimchalarga kelishik qo'shimchalari deyiladi. Kelishik qo'shimchalari otlarning ma'nolarini kelishik kategoriyalari bo'yicha shakillantirib keladi.

Kelishik qo'shimchalari unli uyg'unligi va undosh orttirmasi qoidalariga bo'ysinadi. Buni quyidagi jadval bilan shu shakilda ko'rsatish mumkin:

Kelishik Qo'shimchalari, Unli Uyg'unligi va Undosh Orttirmasi

Tushum kelishigi -ı, -i, -u, -ü	sınıf**ı**	ev**i**	okul**u**	köy**ü**
Jo'nalish kelishigi -a, -e	sınıf**a**	ev**e**	okul**a**	köy**e**
O'rin-payt kelishigi -da, -de, -ta, -te	sınıf**ta**	ev**de**	okul**da**	köy**de**
Chiqish kelishigi -dan, -den, -tan, -ten	sınıf**tan**	ev**den**	okul**dan**	köy**den**
Qaratgich kelishigi -ın, -in, -un, -ün	sınıf**ın**	ev**in**	okul**un**	köy**ün**

Undosh orttirmasi yuzidan o'rin-payt va chiqish kelishiklaridagi d > t shaklida o'zgarishga uchraydi:

okul**da**, okul**dan**	ev**de**, ev**den**	köy**de**, köy**den**
sınıf**ta**, sınıf**tan**	ağaç**ta**, ağaç**tan**	yatak**ta**, yatak**tan**

* Unli bilan tugagan so'zlardan keyin tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi va qaratqich kelishigi qo'shimchalari orasiga "y, n" himoyachi undoshlari qo'yiladi:

araba-**y**-ı	→	araba-**y**-a	→	araba-**n**-ın
silgi-**y**-i	→	silgi-**y**-e	→	silgi-**n**-in
Ayşe'-**y**-i	→	Ayşe'-**y**-e	→	Ayşe'-**n**-in

Aloqa Qo'shimchasi: -ki (sifat va shaxs yasovchi -ki qo'shimchasi)

Ot yoki otlashgan so'zlar bilan qo'shilib grammatik aloqa o'rnatgan va xoslik ma'nosini bildiruvchi qo'shimchaga aloqa qo'shimchasi deyiladi "-ki" aloqa qo'shimchasi unli uyg'unligi qoidasiga rioya qilmaydi:

sabah**ki**, akşam**ki**, bu yıl**ki**, onun**ki**, odada**ki**, yukarı**ki**, sokakta**ki**... kabi.

Faqatgina dünkü, bugünkü kabi so'zlar unli uyg'unligiga rioya qiladi.

"-ki" aloqa qo'shimchasi, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasidan keyin keladi:

Sokakta**ki** adam	→	Sokakta bulunan adam.
Odada**ki** masa	→	Odada bulunan masa.
Evde**ki** kitap	→	Evde bulunan kitap.
Yukarda**ki** oda	→	Yukarda bulunan oda.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasidan keyin keladi:

Serpil'**in** arabası	→	Serpil'in**ki**	→	Serpil'e ait araba.
O**nun** arabası	→	Onun**ki**	→	Ona ait araba.
Biz**im** arabamız	→	Bizim**ki**	→	Bize ait araba.
Kim**in** arabası	→	Kimin**ki**?	→	Kime ait araba?

Aloqa qo'shimchasidan keyin egalik qo'shimchalari keladi:

A tárgyeset	→	Seninkin**i** getir.
Az irány eset	→	Seninkin**e** bak.
A bentlevõ eset	→	Seninkin**de** şeker var.
A távolító' eset	→	Seninkin**den** bana da ver.
A birtokos eset	→	Seninkin**in** motoru bozuk.

Zamon bildiruvchi so'zlardan keyin keladi:

Sabah**ki** olay	→	Sabah vakti olan olay
Öğle**ki** yemek	→	Öğle vakti yenen yemek
Akşam**ki** yemek	→	Akşam vakti yenen yemek
Dün**kü** olay	→	Dün olan olay

Bu namunalar sonini shu shakilda orttirish mumkin:
bu yıl**ki**, geçen yıl**ki**, şimdi**ki**, sonra**ki**, geçen hafta**ki**, gelecek hafta**ki**... kabi.

"-ki" aloqa qo'shimchasi ba'zi so'zlarda unli uyg'unligi qoidasıga rioya qiladi:

bugün**kü**, dün**kü**, öbür**kü**, Gönül'ün**kü**, üçünün**kü**, dördünün**kü**... kabi.

FE'LLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ TURLOVCHİ QO'SHİMCHALAR

Fe'llarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalar umuman shaxs-son, zamon, so'roq, bo'lishli, bo'lishsiz; istak, tilak-shart, keraklilik mayl shakillari kabi ma'nolarni anglatadi. Turkchada to'qqiz xil fe'l shakli bo'lib ularga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalar bir-biridan farq qiladi. Fe'llarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalarni shu misollarni keltirirish bilan kuzatishimiz mumkin:

gelmemeli miydim? → gel-me-meli mi-y-di-m?

Gapdagi qo'shimchalarni quyidagicha tasvirlash mumkin:

gel-	:	fe'l o'zagi
-me	:	bo'lishsiz shakil qo'shimchasi
-meli	:	keraklilik mayli

-mi : so'roq shakli qo'shimchasi

-y- : himoyachi undosh

-di : aniq o'tgan zamon qo'shimchasi

-m : I shaxs birlik qo'shimchasi

Qisqacha izohdan keyin, fe'llarga qo'shilib keluvchi turlovchi qo'shimchalarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

FE'LLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ TURLOVCHİ QO'SHİMCHALAR

Hozirgi Zamon -iyor	Aniq O'tgan Zamon -dı (-di, -du, -dü)	Uzoq O'tgan Zamon -mış (-miş, -muş, -müş)
bil-**iyor**-um	bil-**di**-m	bil-**miş**-im
bil-**iyor**-sun	bil-**di**-n	bil-**miş**-sin
bil-**iyor**	bil-**di**	bil-**miş**
bil-**iyor**-uz	bil-**di**-k	bil-**miş**-iz
bil-**iyor**-sunuz	bil-**di**-niz	bil-**miş**-siniz
bil-**iyor**-lar	bil-**di**-ler	bil-**miş**-ler

Kelasi Zamon -acak (-ecek)	Kelasi Zamon Gumon Fe'li -ır (-ir, -ur, -ür)	İstak Mayli -a (-e)
bil-**eceğ**-im	bil-**ir**-im	bil-**e**-y-im
bil-**ecek**-sin	bil-**ir**-sin	bil-**e**-sin
bil-**ecek**	bil-**ir**	bil-**e**
bil-**eceğ**-iz	bil-**ir**-iz	bil-**e**-lim
bil-**ecek**-siniz	bil-**ir**-siniz	bil-**e**-siniz
bil-**ecek**-ler	bil-**ir**-ler	bil-**e**-ler

Tilak-Shart Mayli -sa (-se)	Keraklilik Mayli -malı (-meli)	Buyruq Mayli
bil-**se**-m	bil-**meli**-y-im	-
bil-**se**-n	bil-**meli**-sin	**bil**
bil-**se**	bil-**meli**	bil-**sin**
bil-**se**-k	bil-**meli**-y-iz	-
bil-**se**-niz	bil-**meli**-siniz	bil-**in**, bil-**iniz**
bil-**se**-ler	bil-**meli**-ler	bil-**sin-ler**

OTLARGA VA FE'LLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ KO'PLİK QO'SHİMCHALARİ

Turkchada ko'plik-qo'shimchasi -lar (-ler) va so'roq qo'shimchasi mı ham otlarga hamda fe'llarga qo'shilib keladi.

Otlarda Ko'plik Qo'shimchasi: -lar (-ler)

Ko'pchilik tillarda so'zlarning ko'plik shakli yasalar ekan so'z o'zagi o'zgarishga uchraydi. Misol uchun, olmon tilida uy ma'nosiga keluvchi das haus so'zining ko'plik shakli yasalar ekan die häuse shaklida o'zgaradi. Bu holda olmon tilini va bunga o'xshash boshqa tillarni o'rganuvchi kishi minglab so'zning ham birlik hamda koplik shaklini o'rganishi kerak bo'ladi. Turkchada esa so'zlarning ko'plik shaklini yasash uchun so'z oxiriga faqatgina -lar (-ler) qo'shimchasi qo'shiladi:

masa	→	masa**lar**	ev	→	ev**ler**
kapı	→	kapı**lar**	defter	→	defter**ler**
elma	→	elma**lar**	güzel	→	güzel**ler**

Ko'plik qo'shimchasi -lar (-ler) ot turkumli so'zlar va fe'llar bilan birgalikda qo'llaniladi. Ot turkumli so'zlar bilan birga qo'llanilganda ko'plik ma'nosidan boshqa farqli ma'nolar ham chiqadi.

* Xalq va joy nomini bildiruvchi so'zlardan keyin kelib jamoat nomini bildiradi va umumlama ma'nosini bildiradi:

Türk**ler** ile Alman**lar** son zamanlarda ekonomik alandaki ilişkilerini geliştirdiler.

İşsizlik nedeniyle köylü**ler**in çoğu kentlere göç ettiler.

Romalı**lar** büyük bir imparatorluk kurmuşlardı.

Ankaralı**lar** trafik sorununu büyük ölçüde çözümlediler.

* Shaxs va qarindosh-urug' nomlaridan keyin kelib oila va jamoat nomini ifodalaydi:

Ayşe**ler** dün İzmir'e gittiler.

Mehmet**ler** yarın tatile çıkıyorlar.

Amcam**lar** dün bize geldiler.

Teyzem**ler** bugün evde yoklar.

* Shaxsiy nomlarga o'xshashlik va hurmat ma'nosi beradi:

Fatih**ler**, Kanuni**ler** bu ülkeyi dünya çapında büyük bir imparatorluk haline getirdiler.

Biz**ler** Orhan Veli**leri**, Sait Faik**leri** okuyarak büyüdük.

Fuzuli**ler**, Baki**ler** divan şiirinin büyük ustalarıdır.

Bu savaşı adı bile bilinmeyen Mehmetçik**ler** kazanmıştır.

* Jamoatga xitob qilishda qo'llaniladi:

Değerli öğretmen**ler**, çocuklarımız sizlere emanettir.

Sevgili genç**ler**, ülkemiz sizin çalışmalarınızla yükselecektir.

Sayın bay**lar**, bayan**lar** bugün burada dünyanın en büyük sirk gösterisini izleyeceksiniz.

Sevgili izleyici**ler**, şimdi haber bültenimizi sunuyoruz.

* Zamon va umumlashtirish ma'nolarini anglatadi:

Akşam**ları** : akşam vakitleri, her akşam

Saba**hları** : sabah vakitleri, her sabah

Akşam**ları** az yemek yerim.

Saba**hları** gazete okurum.

Bahar**ları** ve sonbahar**ları**, yazdan ve kıştan daha çok severim.

Biz her yıl yaz**ları** burada tatil yaparız.

* İlmiy soxalarda o'xshashlik va oila ma'nosini anglatuvchi iboralar uchun qo'llaniladi:

Yılan, kertenkele ve solucan, sürüngen**ler** grubundandır.

Fasulye, nohut ve mercimek baklagil**ler** grubuna girer.

Fe'llarda Ko'plik Qo'shimchasi: -lar (Ler)

Ko'plik qo'shimchaları -lar (-ler) fe'llardan so'ngra kelib III shaxs ko'plik ma'nosini beradi. -lar (-ler) oddiy va murakkab zamonli barcha fe'l tuslanishida qo'llaniladi:

geliyor**lar**, gelmiş**ler**, geldi**ler**, gelecek**ler**, gelmiş**ler**di, gelse**ler**di, gelecek**ler**di... kabi.

Çocuklar bugün tiyatroya gidecek**ler**.

Öğrenciler derse başlamış**lar**.

Bütün yarışçılar yerlerini almış**lar**dı.

Atlar silah sesinden ürkerek büyük bir hızla koşmaya başladı**lar.**

* Birlik shaklidagi muhim shaxslarga hurmat ma'nosidagi xitobotni anglatishda qo'llaniladi:

Sayın başbakanımız törene teşrif etti**ler**.

Sayın cumhurbaşkanımız bir konuşma yapacak**lar**.

Hanımefendi bu geziye katılacak**lar** mı?

Beyefendi, bu akşam yemek yiyecek**ler** mi?

SO'ROQ SHAKLİ QO'SHİMCHASİ: -mı, mi, -mu, mü

Fe'l va ot turkumli so'zlardan keyin kelib so'roq ma'nosini anglatganligi uchun mi qo'shimchasiga so'roq qo'shimchasi deyiladi. -mı so'roq qo'shimchasi mustaqil so'zdek alohida yoziladi. Yani boshqa qo'shimchalar kabi so'zga qo'shilib yozilmaydi. Alohida yozilsa ham unli uyg'unligi qoidasiga bo'ysinadi:

* Ot turkumli so'zlardan keyin:

Bu küçük çocuk sizin kızınız **mı**?

Dün izlediğin film güzel **mi**?

Şu büyük bina sizin okul **mu**?

Yolculuk için araba **mı** daha iyi, yoksa otobüs **mü**?

Yarışta sizin çocuk **mu** birinci olmuş?

Siz **mi** bana gelirsiniz, ben **mi** size geleyim?

Hafta sonu İstanbul'da **mı**ydınız?

Ahmet Bey iki yıldan beri İzmir'de **mi**ymiş?

* Fe'llardan keyin:

-mı so'roq qo'shimchasi sodda va murakkab zamonlı barcha fe'llardan keyin keladi:

Ayşe yarın bize gelir **mi**?

Siz bugün okula geliyor **mu**sunuz?

İki gün için kitabınızı bana ödünç verir **mi**siniz?

Lütfen buraya bakar **mı**sınız?

Siz dün akşam tiyatroya gitmiş **mi**ydiniz?

Kemal Bey bu evi görmüş **mü**ydü?

Bana hiçbir şey vermeyecek **mi**siniz?

Sizce ben bu konuyu iyi anlamış **mı**yım?

So'roq Qo'shimchasining Boshqa Ma'nolari

So'roq qo'shimchasi (-mı) so'roq ma'nodagi so'zlardan tashqari boshqa ma'nolarni ham anglatib keladi. Ular quyidagilardir:

* Zamonni Ko'rsatib Keladi

So'roq qo'shimchasi ba'zan zamon va shart ma'nolarini ham anglatib keladi:

Yaz geldi **mi** tatile çıkacağım. → Yaz geldiği **zaman** tatile çıkacağım.

Ayni gap shart ma'nosini ham tashib kelmoqda:

Parayı aldım **mı** tatile çıkacağım. → Parayı al**ırsa**m tatile çıkacağım.

Kış başladı **mı** paltolarımızı giyeriz.

Yedi yaşına geldin **mi** okula gideceksin.

Ben söz verdim **mi** tutarım.

Paramız oldu **mu** kendimize bir ev alacağız.

*** So'roq ma'nosidan tashqari hayajonlanish ma'nosini ham anglatib keladi:**

Sen de **mi** Brutüs!

Hırsızların başı gerçekten komiser **mi**ymiş!

Banka soygununa Murat da **mı** katılmış!

Bu resimleri o küçük çocuk **mu** yaptı!

Bu yazıları gerçekten yarım saatte **mi** yazdın?

***Orttirma, kuchaytirish ma'nolarini anglatadi:**

Nişanlım güzel **mi** güzel, zengin **mi** zengin!

O adam korkak **mı** korkak, yalancı **mı** yalancı.

Öyle bir yiğit ki, boylu **mu** boylu, soylu **mu** soylu.

Bu adam dediğini yapar **mı** yapar.

Öyle bir ev ki güzel **mi** güzel, büyük **mü** büyük, tek kelimeyle muhteşem.

UNUTMANG!

QO'SHİMCHALAR

So'zlarning vazifalarini ifodalashga yoki so'z yasashda foydalaniladigan va so'zning eng kichik tovush yoki tovushlarga qo'shimcha deyiladi. Turkchada qo'shimchalar turlovchi va yasovchi qo'shimchalar bo'lib ikkiga ajraladi:

TURLOVCHİ QO'SHİMCHALAR

Fel va ot asosiga shaxs,zamon, so'roq, ko'plik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarni beruvchi qo'shimchalarga turlovchi qo'shimchalar deyiladi. Turlovchi qo'shimchalar uchga bo'linadi:

* Otlarga qo'shilib keluvchi qo'shimchalar
* Fe'llarga qo'shilib keluvchi qo'shimchalar
* Otlarga va fe'llarga qo'shilib keluvchi qo'shimchalar

OTLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ QO'SHİMCHALAR

Otlarga qo'shilib keluvchi qo'shimchalarni egalik, kelishik va aloqa qo'shimchasi bo'lib uch guruhga bo'lamiz:

Egalik Qo'shimchalari: -m (-im,- in, - i, -imiz, - iniz, - leri)

Egalik Qo'shimchalari qarashlilik, oidlik ma'nosini anglatadi: ***evim, evin, evi, evimiz, evleri***... kabi.

Tushum kelishigi	:	-ı (-i, -u, -ü)
Jo'nalish kelishigi	:	-a (-e)
O'rin-payt kelishigi	:	-da (-de)
Chiqish kelishigi	:	-dan (-den)
Qaratqich kelishigi	:	-ın (-in, -un, -ün)

→	**evi**	**sınıfı**	**okulu**	**otobüsü**
→	**eve**	**sınıfa**	**okula**	**otobüse**
→	**evde**	**sınıfta**	**okulda**	**otobüste**
→	**evden**	**sınıftan**	**okuldan**	**otobüsten**
→	**evin**	**sınıfın**	**okulun**	**otobüsün**

Kelishik Qo'shimchalari

Aloqa Qo'shimchasi: -ki

Otlarga yoki ot turkumli so'zlar bilan bo'glanib grammatik aloqa va qarashlilik ma'nosini ifodalaydi.

evdeki, sokaktaki, bahçedeki, bugünkü, dünkü... kabi.

FE'LLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ QO'SHİMCHALAR

Fe'llarga qo'shilib keluvchi qo'shimchalar umuman **shaxs-son, so'roq, bo'lishli, bo'lishsiz, istak, tilak-shart, keraklilik** shakllar ma'nosini anglatadi.

Yapmamalı mıydım? → Yap-ma-malı mı-y-dı-m?

Gapdagi qo'shimchalar quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

yap-	: fe'l o'zagi		-y-	: himoyachi undoshi
-ma	: bo'lishsiz shakl		-dı	: aniq o'tgan zamon q.si
-malı	: keraklilik shakli		-m	: I shaxs, birlik shakli
mı	: so'roq shakli qo'shimchasi			

OTLARGA VA FE'LLARGA QO'SHİLİB KELUVCHİ QO'SHİMCHALAR

Ham otlarga ham fe'llarga qo'shilib keluvchi ko'plik qo'shimchalari *-lar (-ler)* va so'roq qo'shimchalari *-mı (-mi, -mu, -mü)* dir.

Ko'plik Qo'shimchasi: -lar (-ler)

Ko'plik Qo'shimchasi	: okul → okul**lar**, çiçek → çiçek**ler**
Ko'plik ma'nosini anglatadi	: Türk**ler**, Alman**lar**, İngiliz**ler**, İstanbullu**lar**... kabi.
Millat nomini bildiradi	: amcam**lar**, teyzem**ler**, Ahmet**ler**, Mehmet**ler**... kabi.
Jamoat, oila ma'nosini bildiradi	: Fatih**ler**, Kanuni**ler**, Fuzuli**ler**... kimi.
Maxsus shaxs otlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish ma'nosini ifodalaydi	: genç**ler**, öğretmen**ler**, bay**lar**, bayan**lar**... kabi.
Zamon va umumlashtirish ma'nosini anglatadi	: akşam**ları**, sabah**ları**, yaz**ları**, kış**ları**... kabi.

İlm-fan sohasida o'xshashlik va oila ma'nosini ifodalovchi iboralar uchun qo'llaniladi: sürüngenler, baklagiller... kabi.

Fe'llardan Keyin: -lar (-ler)

* Fe'llardan keyin keluvchi -lar (-ler) qo'shimchasi III shaxs ko'plik ma'nosini anglatadi:

Çocuklar bahçeye çıktı**lar**. Kuşlar ülkelerine göçtü**ler**.

* Birlik shaklidagi muhim kishilarga hurmat ma'nosini ifodalaydi:

Sayın cumhurbaşkanımız yarın törene teşrif edecek**ler**.
Sayın başbakanımız Türkmenistan'a gidecek**ler**.

So'roq Qo'shimchasi: mı (mi, mu, mü)

* Ot va ot turkumli so'zlardan keyin keladi:

Bu sizin arabanız **mı**?
Yolculuk için uçak mı yoksa otobüs **mü** daha iyi?

* Fe'llardan keyin keladi:

İnsanlar bir gün savaşmaktan vazgeçecekler **mi**?

* So'roq qo'shimchasi zamonni ko'rsatadi:

Kış geldi **mi** kayak yapacağım → Kış geldiği zaman kayak yapacağım.

* Shart ma'nosini bildiradi:

Param oldu **mu** ev alacağım.

* So'roq va hayajon ma'nosini anglatadi:

Sende **mi** Brütus?!

* Orttirma va kuchaytirish ma'nosini anglatadi:

Kız güzel **mi** güzel; zengin **mi** zengi

YASOVCHİ QO‘SHİMCHALAR

(Tr.: Yapım ekleri; İng.: morphemes; Germ.: formans, bildungs- element; Fr.: suffixe de formation)

So‘z asosiga qo‘shilib so‘zga yangi ma‘no beruvchi qo‘shimchalarga yasovchi qo‘shimchalar deyiladi. Yasovchi qo‘shimchalar ot va fe‘llar bilan qo‘shilib yangi so‘zlarni yasaydi:

söz, söz**lük**, söz**cü**, söz**cülük**, bil**mek**, bil**gi**, bil**inç**, bil**im**... kabi.

Turk tili yasovchi qo‘shimchalar jihatidan boy bir tildir. Ot va fe‘llarga qo‘shilgan holda minglab yangi so‘zlarni hosil qiladi. 1986 yili Bobil til bo‘yicha musobaqada jahon birinchisi bo‘lgan ayni paytda 32 tilni bilgan Johan Vandewalle, Anqara Universitesi (TÖMER) Turkcha Til O‘rgatish Markazida Turk tilida yasovchi qo‘shimchalar mavzusida o‘zining qiziqarli namoyishini qo‘ygan edi. Johan Vandewalle o‘zinin bu namoyishida, Turk tili ustida yozgan kompyuter programmasini taqdim etib bir fe‘l asosiga qo‘shilib keluvchi qo‘shimchalarning bu fe‘lga yuz ming atrofida ma‘no berib kelganligini isbotlab bergan edi. Faqatgina bir fe‘l asosiga qo‘shilib kelgan qo‘shimchalarning bu qadar ma‘noni anglatishi Turk tilining qanchalik boy bir til bo‘lganligini ko‘rsatmoqdadir. Biroq Usmonlicha tilining olti-yetti asırlık ta‘siri bilan Turkchadagi qo‘shimchalar va o‘zaklar bir tarafga uloqtirilib yangi so‘zlar yasash o‘rniga Arapcha va Forschadan boshqa xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirishga katta ahammiyat berilganligi kuzatilmoqda. Bu jarayon jumhuriyat qurilishigacha davom etib yangi tuzum Turkchaga alohida étibor berib yangi so‘zlar yasagan edi. Turkchada yasovchi qo‘shimchalar to‘rt guruhga bo‘linadi:

- **Otdan ot yasovchi qo‘shimchalar**
- **Otdan fe‘l yasovchi qo‘shimchalar**
- **Fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimchalar**
- **Fe‘ldan fe‘l yasovchi qo‘shimchalar**

Yasovchi qo‘shimchalarning ba‘zılari keng ko‘lamda qo‘llaniladi ,ba‘zilari esa ko‘p qo‘llanilmaganligi uchun cheklangandir. Turkchaning haqiqiy boyligini o‘rtaga

qo'yishi va xorijiy tillarning bo'yinturug'idan soqit bo'lishi uchun bu qo'shimchalarning barchasidan unumli foydalanish kerak. Endi esa bu qo'shimchalarni birma-bir ko'zdan kechiramiz.

OTDAN OT YASOVCHİ QO'SHİMCHALAR

Ot asosiga qo'shimchalar qo'shish bilan yangi bir ot yoki ot turkumli so'z yasovchi qo'shimchalarga otdan ot yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Bu qo'shimchalar asosan otlardan yangi ot,sifat va hol yasaydi. Otdan ot yasovchi qo'shimchalardan ba'zilari quyidagilardir:

-lık (-lik, -luk, -lük) qo'shimchasi

Otlardan joy nomini bildiruvchi so'zlar yasaydi:

kitap	→	kitap**lık**	çöp	→	çöp**lük**
kum	→	kum**luk**	kömür	→	kömür**lük**
odun	→	odun**luk**	taş	→	taş**lık**
zeytin	→	zeytin**lik**	incir	→	incir**lik**

Ot va ot turkumli so'zlarning ifodalagan ma'nolar bilan bog'liq mavhum tushunchalarning nomini yasaydi:

insan	→	insan**lık**	Müslüman	→	Müslüman**lık**	iyi	→	iyi**lik**
çocuk	→	çocuk**luk**	Türk	→	Türk**lük**	kötü	→	kötü**lük**
anne	→	anne**lik**	kadın	→	kadın**lık**	güzel	→	güzel**lik**
baba	→	baba**lık**	erkek	→	erkek**lik**	büyük	→	büyük**lük**

-lık qo'shimchasi ot ifodalagan ma'noga bog'liq aidiyet va için ma'nosini anglatuvchi sifatlar yasaydi:

kış**lık** elbise	→	kışın giyilen elbise
yaz**lık** elbise	→	yazın giyilen elbise
manto**luk** kumaş	→	manto yapmak için kullanılan kumaş
elbise**lik** kumaş	→	elbise yapmak için kullanılan kumaş
dolma**lık** biber	→	dolma yapmak için uygun olan biber

-lık qo'shimchasi sanoq otlariga qo'shilib bu sonning jamlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar yasaydi. Bu so'zlar umuman sifat bo'lib keladi:

iki	→	iki**lik**	ikilik paketler
dört	→	dört**lük**	dörtlük gruplar
dokuz	→	dokuz**luk**	dokuzluk sıralar
yüz	→	yüz**lük**	yüzlük banknotlar

-lık qo'shimchasi jihoz nomlarini anglatishda qo'llaniladi:

kulak	→	kulak**lık**	baş	→	baş**lık**
tuz	→	tuz**luk**	kol	→	kol**luk**
buz	→	buz**luk**	diz	→	diz**lik**
göz	→	göz**lük**	ağız	→	ağız**lık**

-lık qo'shimchasi rang nomlarini anglatadi:

mavi	→	mavi**lik**	kırmızı	→	kırmızı**lık**
beyaz	→	beyaz**lık**	sarı	→	sarı**lık**
mor	→	mor**luk**	siyah	→	siyah**lık**
yeşil	→	yeşil**lik**	kahverengi	→	kahverengi**lik**

-lık qo'shimchasi miqdor va o'lchov birligini bildiradi:

milyon	→	milyon**luk**	metre	→	metre**lik**
milyar	→	milyar**lık**	gün	→	gün**lük**
kilo	→	kilo**luk**	ay	→	ay**lık**
litre	→	litre**lik**	yıl	→	yıl**lık**

-lık qo'shimchasi kasb-hunarga oid so'zlarda qo'llaniladi:

öğretmen	→	öğretmen**lik**	dişçi	→	dişçi**lik**
doktor	→	doktor**luk**	gözlükçü	→	gözlükçü**lük**
avukat	→	avukat**lık**	arıcı	→	arıcı**lık**
eczacı	→	eczacı**lık**	oduncu	→	oduncu**luk**

Daraja, unvon nomlarini anglatadi:

onbaşı**lık**, çavuş**luk**, yüzbaşı**lık**, binbaşı**lık**, paşa**lık**, asistan**lık**, doçent**lik**, profesör**lük**... kabi.

-lık qo'shimchasi -cı qo'shimchasi bilan birgalikda bog'liqlik, qarashlilik, oqim va harakat nomlarini bildiruvchi so'zlar yasaydi:

sağ	→	sağcı**lık**	ülkü	→	ülkücü**lük**
sol	→	solcu**luk**	geri	→	geri**lik**
toplum	→	toplumcu**luk**	ileri	→	ileri**lik**
Türk	→	Türkçü**lük**	vurgun	→	vurguncu**luk**

-lık qo'shimchai otaliq qaramog'iga olish ma'nosini bildiruvchi so'zlarni yasaydi:

ana**lık**, baba**lık**, evlât**lık**... kimi.

-lık qo'shimchasi kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi so'zlar yasaydi:

sabah	→	sabah**lık**	gelin	→	gelin**lik**
gece	→	gece**lik**	diz	→	diz**lik**
yağmur	→	yağmur**luk**	baş	→	baş**lık**

-lık qo'shimchasi bilan juft so'zlar hosil qilinadi:

var**lık**	yok**luk**	dir**lik**	düzen**lik**
az**lık**	çok**luk**	bir**lik**	beraber**lik**
iyi**lik**	sağ**lık**	bağ**lık**	bahçe**lik**
aç**lık**	tok**luk**	gün**lük**	güneş**lik**
güll**ük**	gülüstan**lık**	dağ**lık**	taş**lık**

-lı (-li, -lu, -lü) qo'shimchasi

Ot turkumli so'zlarga qo'shilib sifat yasaydi. Unli uyg'unligi qoidasiga bo'ysinadi:

başarı	→	başarı**lı** insan	tuz	→	tuz**lu** yemek
akıl	→	akıl**lı** çocuk	çizgi	→	çizgi**li** kumaş
güneş	→	güneş**li** hava	sis	→	sis**li** hava

koku	→	koku**lu** sabun	görgü	→	görgü**lü** kız
güç	→	güç**lü** adam	bilinç	→	bilinç**li** toplum
korku	→	korku**lu** rüya	ev	→	ev**li** kadın

-lı qo'shimchasi joy nomlari bilan qo'shilib ot va sifatlar yasaydi:

Avrupa	→	Avrupa**lı**	Ürgüp	→	Ürgüp**lü**
Ankara	→	Ankara**lı**	Bakırköy	→	Bakırköy**lü**
Roma	→	Roma**lı**	Trabzon	→	Trabzon**lu**
Samsun	→	Samsun**lu**	İstanbul	→	İstanbul**lu**

-lı qo'shimchasi otlar bilan qo'shilib mansublik ma'nosini anglatuvchi so'zlarni quradi:

üniversite	→	üniversite**li**	kuzey	→	kuzey**li**
lise	→	lise**li**	güney	→	güney**li**
Fenerbahçe	→	Fenerbahçe**li**	batı	→	batı**lı**
köy	→	köy**lü**	doğu	→	doğu**lu**

-lı qo'shimchasi raqamlarga qo'shilib keladi:

bir	→	bir**li**	altı	→	altışar**lı**
beş	→	beş**li**	yedi	→	yedişer**li**
dokuz	→	dokuz**lu**	yirmi	→	yirmişer**li**

-lı qo'shimchasi juft so'zlarni hosil qiladi:

allı pul**lu**	der**li** top**lu**	saç**lı** sakal**lı**
büyük**lü** küçük**lü**	gece**li** gündüz**lü**	yaş**lı** baş**lı**
daya**lı** döşe**li**	hız**lı** hız**lı**	tat**lı** tat**lı**
cici**li** bici**li**	iniş**li** çıkış**lı**	uyku**lu** uyku**lu**

-sız (-siz, -suz, -süz) qo'shimchasi

Ot turkumli so'zlar bilan qo'shilib sifat vazifasini bajaruvchi so'zlarni hosil qiladi:

akıl	→	akıl**sız**	güç	→	güç**süz**
bağım	→	bağım**sız**	kuvvet	→	kuvvet**siz**
bilgi	→	bilgi**siz**	terbiye	→	terbiye**siz**

korku	→	korku**suz**	ölüm	→	ölüm**süz**
görgü	→	görgü**süz**	tuz	→	tuz**suz**
taş	→	taş**sız**	kum	→	kum**suz**

-sız qo'shimchasi ba'zi so'zlarda qoliplashgan shakilda qo'llaniladi:

eş*siz*, soy*suz*, ök*süz*, beyin*siz*, kalp*siz*, kimse*siz*, metelik*siz*, zevk*siz*, son*suz* ... kabi.

-sız qo'shimchasi juft so'zlarni hosil qiladi:

dert**siz** tasa**sız**	uç**suz** bucak**sız**
ip**siz** sap**sız**	tat**sız** tuz**suz**
kayıt**sız** şart**sız**	sess**iz** sess**iz**

-ca (-ce, -ça, -çe) qo'shimchasi

Ot va ot turkimli so'zlar bilan qo'shilib turlicha ma'nolarni anglatuvchi so'zlarni yasaydi. Bu yuzdan ko'p qullaniluvchi qo'shimcha bo'lib unli uyg'unligi va undosh orttirmasi qoidalariga rioya qiladi:

adam	→	adam**ca**	adam gibi
baba	→	baba**ca**	baba gibi
çocuk	→	çocuk**ça**	çocuk gibi
deli	→	deli**ce**	deli gibi
ahlâk	→	ahlâk**ça**	ahlâk yönünden, ahlâk bakımından
yaş	→	yaş**ça**	yaş yönünden, yaş bakımından
hükümet	→	hükümet**çe**	hükümet tarafından, hükümete göre
kurum	→	kurum**ca**	kurum yönünden, kuruma göre
ben	→	ben**ce**	bana göre
siz	→	siz**ce**	size göre
biz	→	biz**ce**	bize göre
kendim	→	kendim**ce**	kendime göre

-ca qo'shimchasi otlardan keyin qo'llanilib til va lahja nomlrini yasaydi:

Türk	→	Türk**çe**	Türkmen	→	Türkmen**ce**
İngiliz	→	İngiliz**ce**	Çuvaş	→	Çuvaş**ça**
Alman	→	Alman**ca**	Özbek	→	Özbek**çe**
Fransız	→	Fransız**ca**	Kırgız	→	Kırgız**ca**
Arap	→	Arap**ça**	Kazak	→	Kazak**ça**
Rus	→	Rus**ça**	Yakut	→	Yakut**ça**
Macar	→	Macar**ca**	Tatar	→	Tatar**ca**
Japon	→	Japon**ca**	Kıpçak	→	Kıpçak**ça**
İtalyan	→	İtalyan**ca**	Uygur	→	Uygur**ca**

-ca qo'shimchasi zamon ma'nosini anglatadi:

ay	→	aylar**ca**	evvel	→	evvel**ce**
gün	→	günler**ce**	hafta	→	haftalar**ca**
yıl	→	yıllar**ca**	süre	→	sürе**ce**
saat	→	saatler**ce**	müddet	→	müddet**çe**

-ca qo'shimchasi sifat vazifasini bajaruvchi so'zlar bilan qo'shilib o'xshashlik, tenglik va nisbiylik ma'nolarini anglatuvchi so'zlar yasaydi:

küçük	→	küçük**çe**	az küçük
büyük	→	büyük**çe**	az büyük
çok	→	çok**ça**	çok gibi
az	→	az**ca**	az gibi
güzel	→	güzel**ce**	güzel gibi, az güzel
hoş	→	hoş**ça**	hoş gibi, az hoş
iyi	→	iyi**ce**	iyi gibi, az iyi
uzun	→	uzun**ca**	uzun gibi, az uzun
kısa	→	kısa**ca**	kısa gibi, az kısa

-ca qo'shimchasi joy nomlarini yasashda ishlatiladi:

Çamlı**ca**, Çekme**ce**, Sapan**ca**, Orta**ca**, Taşlı**ca**, Ilı**ca**... kabi.

-cı (-ci, -cu, -cü) qo'shimchasi

Bu qo'shimcha otlar bilan qo'shilib kelgan holda asosan kasb-hunarga oid so'zlar yasaydi. Unli uyg'unligi va undosh orttirmasi qoidalariga bo'ysinadi:

boya	→	boya**cı**	odun	→	odun**cu**	ekmek	→	ekmek**çi**
çay	→	çay**cı**	kömür	→	kömür**cü**	süt	→	süt**çü**
av	→	av**cı**	göz	→	göz**cü**	diş	→	diş**çi**
dokuma	→	dokuma**cı**	söz	→	söz**cü**	aş	→	aş**çı**
gemi	→	gemi**ci**	soygun	→	soygun**cu**	top	→	top**çu**
eski	→	eski**ci**	futbol	→	futbol**cu**	iş	→	iş**çi**

-cı qo'shimchasi ot va sifatlar bilan qo'shilib odat holiga aylanib qolgan va davomlilik ko'rsatuvchi so'zlarni yasaydi. Bu so'zlar kasb-hunar nomini ko'rsatmasdan balki ish-harakatning davomliligini ifodalab keladi:

yalan	→	yalan**cı**	sürekli yalan söyleyen
kavga	→	kavga**cı**	sürekli kavga yapan
şaka	→	şaka**cı**	çok şaka yapan
inat	→	inat**çı**	inat etmeyi huy edinen kimse
bozgun	→	bozgun**cu**	bozgun havası yaratan
çıkar	→	çıkar**cı**	hep kendi çıkarını düşünen
uyku	→	uyku**cu**	uykuyu çok seven, sürekli uyuyan
ülkü	→	ülkü**cü**	bir ülküyüsavunan, bir ülküye bağlı olan
Türk	→	Türk**çü**	Türklüğü savunan akıma bağlı kimse

-cık (-cik, -cuk, -cük) qo'shimchasi

Ot va ot turkumli so'zlar bilan bog'lanib sevgi, mehr va kichraytiruvchi ma'nolarni anglatuvchi so'zlarni yasaydi:

adam	→	adam**cık**	zavallı adam
ev	→	ev**cik**	küçük ev
kadın	→	kadın**cık**	zavallı kadın
kedi	→	kedi**cik**	küçük, zavallı kedi
köpek	→	köpek**çik**	küçük, zavallı köpek

kuş	→	kuş**çuk**	küçük, zavallı kuş
kuzu	→	kuzu**cuk**	küçük, sevimli kuzu
yavru	→	yavru**cuk**	küçük, sevimli yavru

Sifatlar bilan qo'shilib ularning ma'nosini kuchaytirib keladi:

az	→	az**ıcık**	çok az
ince	→	ince**cik**	çok ince
mini	→	mini**cik**	çok küçük, çok minik
ufak	→	ufa**cık**	çok ufak
sıcak	→	sıca**cık**	çok sıcak
yumuşak	→	yumuşa**cık**	çok yumuşak

-cık qo'shimchasi egalik qo'shimchalari bilan birgalikda xitob, chaqiriq so'zlarida qo'llaniladi:

baba**cığım**, anne**ciğim**, teyze**ciğim**, abla**cığım**... kabilar.

-cık qo'shimchasi joy nomlarini anglatuvchi so'zlar yasaydi:

Harman**cık**, Ova**cık**, Ayva**cık**, Germen**cik**... kabi.

-daş (-deş) qo'shimchasi

Bu qo'shimcha ot turkumli so'zlar bilan qo'shilib mushtaraklik, o'xshashlik ma'nolarini anglatuvchi otlarni yasaydi. Umuman unli uyg'unligi va undosh orttirmasi qoidalariga rioya qiladi. Ba'zan kardeş, meslektaş kabi so'zlarda quroldan tashqariga chiqilganligi kuzatiladi:

ad	→	a**daş**	adı aynı olan
arka	→	arka**daş**	iyi anlaşan, birbirine arka çıkan kimseler
